

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Qarshi davlat universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrası

T.Jumayevning

**“TURKIY TILLARNING QIYOSIY-TARIXIY
GRAMMATIKASI”**

dan

MA'RUZALAR MATNI

Qarshi 2014 y

1-ma'ruza. TURKIY TILLI XALQLARNING JOYLASHISH O'RNIGA KO'RA TASNIFI

Reja:

1. Shimoliy hududlarda yashovchi turkiy tilli xalqlar haqida qisqacha ma'lumot.
2. Kavkaz hamda Dog'istonda yashaydigan turkiylarning tillari, ularing soni haqida.
3. Volga daryosining o'ng va chap qirg'og'ida istiqomat qiluvchi turkiylar, ular gaplashadigan xalqlarning tillari haqida
4. Markaziy Osiyo, Qozog'iston hamda Sharqiy Xitoyning turkiy xalqlari haqida qisqacha ma'lumot
5. Sibirda yashovchi tarixan eng qadimiy turkiy xalqlar haqida.

Tayanch tushunchalar: 1. Rossiya, Ukraina, Moldova, Ruminiya va boshqa davlatlarda yashab qolgan turkiy tillarning etnik tarkibi va ular tillarining eng umumiy belgilari. 3. Kavkazda yashovchi son jihatidan kam bo'lgan turklarining tillarining turliguruh tillariga mansubligi. 4. Markaziy Osiyo va Qozog'iston turklarining soni va til xususiyatlari haqida qisqacha tushuncha. 5. Sibirda istiqomat qiluvchi turklarning eng qadimgi turkiy til belgilarini saqlaganligi.

Turkiy xalqlarning joylashishini MDH mamlakatlarida quyidagicha belgilash mumkin:

- 1) G'arbiy Litva, Qrim, Ukraina, Moldaviya turklari;
- 2) Kavkaz va Dog'iston turklari;
- 3) Volga bo'yi turklari;
- 4) O'rta Osiyo va Qozog'iston turklari;
- 5) G'arbiy va SHarqiy Sibir turklari.

Birinchi guruh turklariga litva va belorus tatarlari, qaraimlar, qrimchoqlar, urumlar, qrimtatarlar va gagauzlar kiradi. Bu guruh turklarini tarixan ikkiga bo'lish mumkin: a) qipchoqlar (uning asosiy qismini sobiq Qrim xonligi turklari tashkil qiladi), bunga qrim tatarlari va litva tatarlari, qaraimlar va qrimchoqlar kiradi; b) o'g'uzlar (bunga pecheneglar, bolqon turklari, urumlar kiradi).

Litva va belorus tatarlari o'z tillarini yo'qotib, mahalliy xalqlar tarkibiga singib ketishgan. Hozirgi paytda ularning tili haqida ayrim yodgorliklar va matnlar guvohlik beradi, xolos. Qaraimlar (10 m. k.) Litvaning Trakay, Panevejis, Vil'nyus va Ukrainaning Galich, Lutsk, Evpatoriya, Bog'chasaroy shaharlarida yashashadi. Unchalik katta bo'lmagan turkiy xalqlar guruhiga kiruvchi qrimchoqlar (1,5 m. k.) va urumlar (150 m. k.) Ukrainada yashashadi. Urumlar kelib chiqishi jihatidan greklarga borib taqaladi. Ular hozirgacha o'z tillarini yo'qotishmagan. Qrimtatarlar son jihatidan ko'pchilik bo'lib, ular hozir o'zbekiston va Qozog'istonda ham yashashadi.

Gagauzlar (200 m. k.) Moldaviya va Ukrainada (150 m. k.) istiqomat qilishadi, 10 ming kishidan iborat gagauzlar Bolgariya hududida turadilar. Ular bessarabiya, dunay orti, primoriya, gretsiya va makedoniya gagauzlari kabi guruhlariga bo'linadi.

Ikkinchi guruh turklari Kavkaz va Dog'istonda joylashgan. Ular ozarbayjonlar, qo'miqlar, qorachoy-balqarlar, no'g'aylar, stavrapol truxmanlaridir. Bu xalqlar ham etnik jihatdan ikki guruhga o' o'g'uzlar hamda qipchoqlarga bo'linadi.

o'g'uz guruhiga ozarbayjonlar, shimoliy kavkaz turkmanlari (truxmanlar), qipchoq guruhiga qorachoy-balqarlar, qo'miqlar, no'g'aylar kiradi.

Ozarbayjonlar (7,2 mln. k.) Ozarbayjon va Naxichivanda (3,5 mln. k.) yashashadi, ularning tarkibiga, asosan, o'g'uzlar mansub bo'lib, qisman qipchoq guruhiga mansub xalqlar ham kiradi. Ozarbayjonlar Gruziyada (200 m. k.) (2 m. k.), Armanistonda (1,0 m. k.), Darbantda (1, m. k.) Eronda (3,2 mln. k.) yashashadi. Ozarbayjon tilining quyidagi lahjalari mavjud: mug'allar, qozox tatarlari, qashqaylar, qizilboshlar, terekemlar, qorapapaxlar kabi. Ozarbayjon tilida gaplashuvchi bir qancha etnik guruhlar ham bor bo'lib, Eronda qo'nim topishgan. Ular shohsuvonlar (150 m. k.), qashqaylar (300 m.k.), kojarlar (20 m.k.) dir. Janubiy Eronda esa naraf, baharlu, inanlu, xurosoniy (200 m. k.) dan iborat ozarbayjon urug'lari istiqomat qilishadi. Bundan tashqari, afshorlar Eronda (300 m.k), Afg'onistonda (30 m. k.), qorapapaxlar Turkiyada (40 m. k.), Eronda (20 m. k.) yashashadi.

Qo'miqlar (200 m. k.) son jihatidan ikkinchi o'rinda turadi va Dog'istonda istiqomat qilishadi.

Qorachoy-balqarlar (123 m. k.) Kabarda-Balqar respublikasi hududida yashashadi, kelib chiqish jihatidan, ular janubiy rus cho'lli qipchoqlardir. Pecheneglar qora bulg'orlar hisoblanadilar va tarixan pecheneg-bulg'orlar bilan assimilyatsiyalashgan hamda o'z tillarida o'g'uz dialekti elementlarini saqlab qolganlar.

No'g'aylar (70 m. k.) Stavrapol o'lkasida va Dog'istonda yashashadi, ular Kuban daryosi bo'ylarida, Qorachoy-CHerkassda ham istiqomat qilishadi; tillarida qipchoq unsurlari mavjud.

Truxmanlar (200 m. k.) Stavrapol o'lkasida joylashishgan, ularning tili turkman tilining choydor dialektiga yaqin, ikkinchi tomondan, qo'shni no'g'ay tilining unsurlari ham truxman tilida uchraydi.

Uchinchi guruh turkiy tillariga chuvashlar, boshqirdlar hamda tatarlar kiradi.

CHuvashlar (2 mln. k.) qadimgi bulg'or xalqining avlodlari bo'lib, ular sobiq CHuvashiyada, Tatariston, Boshqirdiston, Mari va Rossiyada yashashadi. CHuvash tilining shakllanishiga, dastlab, skif-sarmat, slavyan, fin-ugor tillari, keyin esa qipchoq tillari ta'sir ko'rsatgan.

Boshqirdlar (2 mln. k.) kelib chiqish jihatidan qipchoqlar bo'lib, bulg'orlar bilan aralashish natijasida hosil bo'lgan. Boshqirdlar RFda (1 mln. k.), Qozog'iston va boshqa respublikalarda (35 m. k.) yashaydi.

Tatarlar hammasi bo'lib 5,015 m. k.ni tashkil qilib, o'zbekistonda (245 m. k.), Qozog'istonda (192 m. k.), Tojikistonda (57 m. k.), Qirg'izistonda (56 m. k.), Turkmanistonda (30 m. k.), boshqa respublikalarda (113 m. k.), chet ellarda esa (47 m. k.) yashaydilar.

To'rtinchi turkiy xalqlar guruhiga Markaziy Osiyo va Qozog'iston turklari - o'zbeklar, uyg'urlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, turkmanlar, qirg'izlar kiradi. Bu xalqlar tillari etnik-genetik jihatidan qarlulqlar (o'zbeklar, uyg'urlar), qipchoqlar

(qozoqlar, qoraqalpoqlar), o'g'uzlar (turkmanlar), qipchoq-qirg'iz (qirg'izlar)ni tashkil etadi. Bu tillarga qadimdan eroniy tillarning, xitoy tilining, keyingi davrlarda arab, fors va rus tillarining substrati yuz bergan.

o'zbeklar (18 mln. k.)

Uyg'urlar (7 mln. k.) 200 m. k. kishi MDH mamlakatlarida yashaydi, ular jarkent dialektida gaplashishadi. Uyg'ur tilida boshqa lahjalar ham mavjud: koshg'ar, turfon, yor'kent, xo'tan, hamiy, oqsuy, salar, sariuyg'ur, lobnor, xoton kabi lahjalarda so'zlashuvchi uyg'urlar Sintsiyaan milliy avtonom rayonida (XXR) yashashadi. Uyg'ur tilida gaplashuvchi xotonlar (200 m. k.), salarlar (350 m. k.) sariuyg'urlar (4 m. k.) kishini tashkil qiladi.

Uyg'ur tilida so'zlashuvchi xalqlarning asosiy qismi qarluqlardir, ammo salarlar tilida qadimgi o'g'uz tilining, sariuyg'urlar tilida qadimgi uyg'ur tilining, lobnorlar tilida qadimgi qirg'izlar tilining ta'siri kuchli. Qozoqlar dastlab qirg'izlar yoki qirg'iz-qaysoqlar deb atalgan. Ular Qozog'istonning asosiy xalqi hisoblanadi (3 mln. k.). Qozoq tili XV-XVI asrlarda o'ziga yaqin tillar o' qadimgi no'g'ay va qoraqalpoq tillari bilan birgalikda shakllandi. Bu tillar uchun eron, qadimgi hind va xitoy tillari substrati mavjud bo'lgan bo'lsa, keyinroq esa rus tilining ta'siri kuchli bo'ldi.

Qozoq xalqining ba'zi qismlari boshqa respublika va chet ellarda yashashadi. o'zbekistonda (400 m. k.), RFda (400 m. k.), Turkmanistonda (1,0 m. k.), Qirg'izistonda (0,4 m. k.), Tojikistonda (02 m. k.), Mo'g'ilistonda (6 m. k.), Afg'onistonda (3 m. k.), XXRda (600 m. k.) Qozoqlarning umumiy soni » (7 mln. k.)

Qoraqalpoqlar (700 m. k.) qipchoq dialektida so'zlovchi xalq bo'lib, ularning tarkibida myuten urug'lari ham bor. Qoraqalpoq tiliga qadimda so'g'd va parfiya tillarining ta'siri mavjud bo'lgan bo'lsa, keyingi davrlarda unga turkman va xorazm o'zbeklarining substrati sezilarli darajada singdi. Qoraqalpoqlar, Xorazm, Farg'ona, Namangan, Andijon, Buxoro, Samarqand va Toshkent viloyatlarida hamda Afg'onistonda (03 m. k.) ham yashaydi.

Turkmanlar (3 mln. k.) tili o'g'uz tillari sirasiga kirib, eng qadimgi tillardan hisoblanadi. Uning tarkibiga kiruvchi yomut, taka, go'k'lan, salir, sariq, ersarin urug'lari hozirgacha mavjud. Turkman tiliga qadimdan eron, parfiya, so'g'd, keyinroq fors tili substrati singan. Turkmanlar o'zbekistonda (55 m. k.) va boshqa respublikalarda (23 m. k.), Eronda (400 m.k.), Afg'onistonda (300 m. k.), Iroqda (1,5 m. k.), Turkiyada (100 m. k.), Suriyada (05 m. k.), Iordaniyada (03 m. k.) yashaydilar. MDHda (2000 m. k.), chet ellardagi bilan (300 m. k.) ni tashkil etadi.

Qirg'izlar (2 mln. k.) qadimgi Enisey qirg'izlarining avlodlaridir. Enisey yodgorliklarining ma'lumot berishicha, ular qadimgi o'g'uz va qadimgi uyg'ur qabilalariga tegishli bo'lgan. Qipchoq urug'lari bilan ularning yonma-yon yashashi natijasida qirg'izlarning tili qipchoq tillariga moyillasha bordi. Bu til sharqiy turkiy tillar, xususan, oltoy tiliga yaqinlikni ham o'ziga mujassam etgan. Qirg'izlar o'zbekistonda (1,5 m. k.), Tojikistonda (40 m. k.) boshqa respublikalarda (13 m. k.), XXRda (1 m. k.), Afg'onistonda (04 m. k.) yashashadi.

Beshinchi turkiy tillar guruhini Sibir turklari tashkil qiladi. Bu guruh turklariga tuvalar bilan tofalar, yoqutlar bilan dolg'anlar, xakaslar, shorlar, cho'limlar,

qamasilar, oltoylar kiradi. Sibir turklari etno-genetik jihatdan ham turli-tumanlik kasb etadi. SHu jihatdan ularni 2 guruhga bo'lish mumkin: a) uyg'ur-o'g'uz guruhi. Bunda quyidagi kichik guruhlar mavjud: uyg'ur-tukyu (tuva, tofa, karagas), yoqut (yoqutlar va dolg'anlar), xakas (xakas, shor, oltoy tilining shimoliy dialekti, cho'limlar, qamasilar); b) qirg'iz-qipchoq guruhiga qirg'iz tili va oltoy tilining janubiy dialekti kiradi.

YOqutlar va dolg'anlar (300 m. k.) etnik jihatdan uyg'ur-tukyu urug'laridan kelib chiqqan, lekin ularning tiliga qo'shni tungus hamda mo'g'ul tillari o'z ta'sirini o'tkazgan. YOqut tili boshqa turkiy tillardan leksik jihatdan ham, fonetik va grammatik tomonidan ham farq qiladi.

Tuvalar (150 m. k.) va tofalar yoki karagaslar yoqutlar bilan etnik jihatdan uyg'ur-tukyu urug'laridan kechib chiqqanligi bilan bir asosni tashkil qiladi. Biroq samodiy va mo'g'ul qabilalari bilan aralashish natijasida ular tilining leksik va grammatik tarkibiga samodiy va mo'g'ul tillarining ta'siri sezilarli. Tuvalar (18 m. k.) va ularning urug'i bo'lgan uryanxay-monchaklar (2 m. k.) Mo'g'ulistonda yashashadi.

Xakaslar (07 m. k.), shorlar (02 m. k.), chulimlar (7 m. k.) va qamasilar (2 m. k.) Janubiy Sibirda yashovchi etnik jihatdan aralash xalqlardir. Kelib chiqishiga ko'ra ular qadimgi uyg'ur va qirg'iz, kelt, selkup, samodiy va mo'g'ul urug'laridan tashkil topgan.

Oltoylar (60 m. k.) kelib chiqishi jihatidan uyg'ur-o'g'uz va qirg'iz qabilalariga borib taqaladi, keyinroq esa qipchoq dialektining ta'siri bu tilga singgan. Oltoy tilida ikki dialekt mavjud: a) janubiy oltoy tili. Bunga oltoy, teleut, telengit shevalari mansub bo'lib, bu dialektga oltoy va qadimgi va hozirgi qirg'iz tillari o'z ta'sirini o'tkazgan; b) shimoliy oltoy tili. Bunga tuba, kumandin, chalkan shevalari mansub, unda qadimgi uyg'ur va o'g'uz tillarining kuchli ta'siri sezilarli. Oltoy tiliga eng yaqin bo'lgan til hozirgi qirg'iz tilidir. Bu ikki til turkiy tillarning sharqiy, ya'ni qirg'iz-qipchoq tarmog'ini tashkil qiladi.

Turkiy tillarning milliy tillarga ajralishi XIII-XIV asrlarda - mo'g'illar bosqinidan keyin tezlashdi. SHunga ko'ra, bu tillar orasida o'xshashlik va farqlar qadimda mavjud bo'lganidek, hozirgi kunda ham yashab kelmoqda.

Bundan tashqari, bolqon turklari va usmonli turklar ham mavjud bo'lib, ular MDH mamlakatlaridan tashqarida yashaydilar va **oltinchi guruhni** tashkil qilishadi.

Bolqon turklariga makedoniya gagauzlari (6 m. k.) hamda surg'uchlar (9 m. k.) kiradi. Ularning tilida o'g'uz tili unsurlari saqlangan bo'lib, hozirgi gagauz tiliga bir oz yaqin turadi.

Turklar (50 mln. k.) hozirgi Turkiya davlatining mahalliy aholisi bo'lib, ular Bolgariya, Slaveniya, Kipr, Gretsiya, Eron, Suriya kabi mamlakatlarda ham istiqomat qilishadi. Ularning tili o'g'uz tilining o'g'uz-saljuq kichik guruhiga mansub.

Biz mazkur o'quv qo'llanmada SHarqiy Xunn va G'arbiy Xunn tarmoqlariga kiruvchi, va ayni paytda, eng qadimgi turkiy til belgilarini to'hanuz o'zida saqlab kelayotgan turkiy tillarning lisoniy belgilarini yoritishga harkat qilamiz.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

- 1.Qaysi turkiy tillar SHarqiy Evropa mamlakatlarida yashaydilar?
- 2.Kavkaz hamda Dog'istonda yashovchi turkiy xalqlardan qaysilarini bilasiz?
- 3.Kavkaz tukiylarining tillari qaysi til guruhlariga mansub?
- 4.CHuvash, tatar va boshqird tillari qaysi guruh tillarini tashkil etadi va ularning tillari qanday tasnif qilinadi?
- 5.Markaziy Osiyo, Qozog'iston hamda sharqiy Xitoyda yashovchi turkiy xalqlarnii sanang?
- 6.Sibir turklarini sanang, ularing tillari haqida qisqacha ma'lumot bering.

Zaruriy adabiyotlar:

1. Баскаков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. М., "Высшая школа", 1969, 24736-бетлар.
- 2.Т.Жумаев. Туркий tillarining tarixiy qiyosiy tahlili. Qarshi, "Nasaf", 2005, 4—10-betlar.
- 3.Щербак М.А. Сравнительная фонетика тюркских языков. М., -Л. 1970,
- 4.Гаджиева Н.З., Серебренников Б.А. Сравнительно-ицорическая грамматика тюркских языков. М.; Наука, 1986.

Qo'shimcha adabiyotlar:

- 1.Voprosy grmmatiki tyurkskix yazykov. Alma-ata, 1958.
- 2.Issledovanie po sravnitel'no grammatika tyurkskix yazykov. M., -L. 1955.
- 3.Malov S.E. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. M., 1951.

2-ma'ruza. TURKIY TILLARNING RIVOJLANISHI VA SHAKLLANISHI*Reja:*

- 1.Tillarning paydo bo'lishi haqidagi nazariyalar.
- 2.Turkiy tillarning shakllanishida hudud, urug'-qabilachilik hamda kasb-hunarning ahamiyati.
- 3.Turkiy tillarining shakllanishida bir-biriga yaqin lahjalarning roli.
- 4.Bir-biriga yaqin bo'lmagan qabila dialektlaridan tuzilga tillar tizimining shakllanishi.

Tayanch tushunchalar:Tillarning paydo bo'lishi haqidagi 4 xil nazariya. 2.Turkiy tillarning yuzaga kelshi uchun hudud, urug'-qabila qoldiqlarinig ahamiyati.3.Turkiy tillarning ajralishida kasb-hunarning ahamiyati.4.Bir guruhga kiruvchi tillaring paydo bo'lishida bir-biriga yaqin lahjalarinng ahamiyati.5.Biri-biriga yaqin bo'lmagan lahjalarning turli guruhlaarga mansub tillarning yuzaga kelishidagi ahamiyati.

Tillarning rivojlanishi va takomillashuvi xalq tarixi bilan chambarchas bog'liq. Tillar jamiyat rivoji bilan birgalikda taraqqiy qilib boradi.

Qabila ittifoqining yuzaga kelish jarayoni va turli urug'-qabilalarning birlashishi, ularning parchalanishi va birikishi, shuningdek, tillarining biri-biri bilan aloqasi natijasida lahjalar, shevalar bitta qabila tiliga birlashgan. Bu sheva, lahjalar umumiy lug'at boyligiga va grammatik qurilishga ega bo'ldi. Oqibatda bu o'zgarishlar asosiy lahja elat tili yoki milliy tilni yuzaga keltirdi.

Urug' va qabila tillarining, shuningdek, milliy tillarning rivojlanishi turkiy tillar uchun ham xarakterli. Turkiy urug' va qabilalarining birlashishi va parchalanishi III asrdan, va aniq ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, VI asrdan XV-XVI asrlargacha davom etdi, nihoyat, milliy tillar vujudga keldi.

SHunday qilib, muayyan xalqning yuzaga kelishi, birinchidan, urug'-qabila tuzilishining, ikkinchidan, shu urug' yoki qabila tilining meros bo'lib qolishi bilan bog'liq. Biroq muayyan qabila va elatning aralashib yoki chatishib ketishiga, uning tilida substratning mavjud bo'lishi unchalik katta ta'sir ko'rsatmaydi (masalan, karagaslar yoki tuvalar tili).

Har bir til uchun asos bo'lgan til har xil bo'lishi mumkin. Masalan, qaraqalpoq tili uchun asos (o'zak) til qipchoq-no'g'ay tili birligi bo'lgan, XIV-XVI asrdan boshlab asos til qipchoq tiliga aylangan, XIV-XV asrlarda esa G'arbiy Xunn tili asos bo'lgan, bu tilni sinchiklab o'rganish, unda mo'g'ul, tungus-manchjur, hatto, oltoy tilining belgilari borligini ham ko'rsatadi.

SHunisi xarakterliki, muayyan qabila ittifoqi yoki elat tili bilan ishlab chiqarish orasida uzviy aloqadorlik mavjud. Masalan, ko'chmanchi turk xalqlari chorvachilik bilan shug'ullanishgan va ular tilida shevlar orasidagi farqlar ancha kam. O'troq turkiy xalqlar esa qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanishgan va ularning tilida ichki farq juda katta. Masalan, qozoq tilida ichki farq ancha kam, o'zbek tilida esa bu xususiyat juda katta. Qozoq xalqi XX asr boshlarigacha urug'-qabilachilik xususiyatlarini yaxshi saqlagan edi. O'zbek va uyg'ur xalqlari esa urug'-qabilachilikni unutishgan. SHuning uchun ham uyg'urlar odamlarni yashash joyi bilan atashadi, ya'ni, qashqarliklar, turfonliklar, yorqentliklar kabi.

SHu bilan birga, ba'zi bir turkiy tillar guruhi rivoji uchun ularning dialektik qurilishi muhim omil bo'lgan. Ularning dialektik asosining shakllanishida ichki imkoniyatlardan tashqari, tashqi faktorlar ham ta'sir etgan.

1. Bir-biriga yaqin lahjali tillar tizimi. *Birinchidan*, turkiy xalqlarning ayrim guruhlari o'z tillarida, qabila-urug' tillari xususiyatlarini feodalistik tuzumning oxirlarigacha yo unutishgan yoki saqlab qolishgan. Turkiy tillarning eng qadimgi dialektik qurilishini ijtimoiy o'zgarishlar yuzaga keltirdi.

Ikkinchidan, shu xalq dialektik qurilishi uning urug'-qabila tarkibining bir-birining o'xshash yoki o'xshamasligiga bog'liq. Masalan, turkmanlar urug'-qabila tuzimiga ko'ra bir-birining yaqin, ular kelib chiqishiga ko'ra o'g'uzlardir. O'zbeklar esa uchta katta qabila guruhidan kelib chiqqan: qarluq, o'g'uz, qipchoq.

Uchinchidan, ayrim xalqlarning dialektik qurilishda urug'chilik tuzimining qoldiqlari saqlanmagan yoki mazkur xalqlar shevasi shu hududda yashovchi boshqa shevalarlar bilan to'g'ri kelmaydi. Biroq rivojlanish jihatidan shu hududda yashovchi boshqa xalqlar tillari bilan hamkorlikda, aloqadorlikda oldinga siljishdi. Masalan, uyg'ur xalqlari tili feodalizm davridayoq elat tili sifatida rivojlangan va urug'chilik qoldiqlarini unutgan. Qoraqalpoq tili urug'-qabila tuzilishi jihatdan bir-biriga yaqin tarkibida bir qancha shevalar bor, biroq boshqa qo'shni tillar bilan birgalikda rivojlangan.

To'rtinchidan, har bir tilning dialektik tuzilish turli xil substratlarning ta'siri bilan xarakterlanadi.

a) xalqning urug'-qabilachilik xususiyatlarini yaxshi saqlagan lahjalar. Bunday lahjalar ikkiga bo'linadi: a) xakas tilining shevalari (bu lahja o'zida sog'ay (baltir), qochin, qizil, shor lahja va shevalari bilan) uyg'ur urug'lari va qabilalarining bir-biriga yaqin dialektlari asosida 1917 yildan keyin yagona xakas elat tilini tashkil qildi.

b) turkman tilining shevalar tizimi. Bu tizim o'g'uz lahjasining bir-biriga yaqin yomud, taka, go'kkan, salir, sariq, ersari kabi shevalari asosida turkman xalq tilini shakllantirgan. Biroq bu tilning shakllanishida tashqi faktorlarning, xususan, Eron dialektlaridan noxurli, anauli, hasarlilarning ta'siri ham mavjud.

2. Bir-biriga yaqin bo'lmagan qabila dialektlaridan tuzilgan tillar tizimi.

a) tog'li oltoy tili, bu bir-biriga yaqin bo'lmagan ikki lahjani o'z ichiga oladi: 1) shimoliy guruh shevalari (qadimgi uyg'ur qabilalari asosida shakllangan tuba, kumandi, gukkan shevalari); b) janubiy guruh shevalari (kelib chiqish jihatidan qadimgi qirg'iz qabilalari shevalari bo'lmish oltoy (uyrot), teleut, telengit shevalari). b) o'zbek tilining dialektlar tizimi: a) o'g'uz; b) qarluq; v) qipchoq.

Ayrim xalqning etnik tuzilishida urug'-qabila izlari saqlangan bo'lsa-da, sheva va lahjalari hududiy belgilariga qarab belgilanadi. Bu ham turlicha bo'ladi.

1. Sheva va lahjalari bir-biriga yaqin qabila xususiyatlari asosida tuzilgan, asosiy farqlari hududiy belgilari deb belgilanadigan tillar.

a) qirg'iz tili tarixan qadimgi qirg'iz tili ikki asosiy dialekt bilan bog'liq: 1) qabila tilining ayrim xususiyatlarini saqlab qolgan shimoliy lahja; 2) o'zbek tili bilan aloqadorlikda vujudga kelgan janubiy lahja;

b) o'zida urug'-qabila belgilarini yaxshi saqlab qolgan, ammo differentsiyasi urug'-qabila belgilari asosida emas, balki hududiy belgilari asosida rivojlangan shevalar tizimi: bunday rivojlanishni qozoq, qoraqalpoq yoki no'g'ay tillari misolida ko'rish mumkin. Masalan, qozoq tili uch asosiy hududiy dialektga ega: 1) shimoliy-sharqiy; 2) janubiy; 3) g'arbiy;

2. Xalq tillarining urug'-qabila belgilarini saqlagan bo'lsa ham, bir xil bo'lmagan urug'-qabila belgilariga asoslanadigan shevalar tizimi.

3. Urug'-qabila belgilarini saqlagan bo'lsa ham, sheva va lahjalari bir-biriga yaqin bo'lmagan xalqlar tilining dialektik tizimi. Bunday tillar tizimiga hududiy belgilar asos qilinib olinadi. Bu xususiyat tuva tilining dialektik tizimiga xos:

1) markaziy sheva (adabiy til uchun asos bo'lgan sheva); 2) g'arbiy sheva (oltoy tilining ta'siri mavjud); 3) shimoliy-sharqiy sheva (ovchilik leksikasi bilan xarakterli); 4) janubiy-sharqiy sheva (mo'g'ul tilining ta'siri kuchli); 5) kaxema shevasi (janubiy va sharqiy shevalari o'rtasida turadi). Bu shevalar tizimining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar: birinchidan, tuva xalqining etnik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lmagan etnik sostavning turli-tumanligi; ikkinchidan, markaziy shevalar uchun xarakterli belgilarning mavjud emasligi.

Ayrim turkiy tillar urug'-qabilachilik belgilarini va nomlanishini to'liq yo'qotishdi. Bu protsess turkiy tillar taraqqiyotining o'tgan asr oxirida yuz berdi. Mazkur xalqlar (qipchoqlar va o'g'uzlar) ning qadimgi urug'-qabila ittifoqidan oldingi belgi xususiyatlari ularning tillarining umumiy belgilaridan aniqlanadi. Bu tillarning lahjalari hududiy aloqadorlik tufayli bir-biriga yaqinlashadi. Sheva va lahjalar tizimining shu xususiyati o'zida ikki xususiyatini jam etadi.

1. Xalqlarning etnik tizimi bir-biriga yaqin shevalardan iborat bo'ladi. Mazkur tillar sheva va lahja belgilarining bir-biriga singib ketishi xalqlar tarixining keyingi davrlariga tegishli bo'lib, u hududiy aloqadorlik asosida yuzaga kelgan. Bunday xususiyat quyidagi tillarga xos:

a) qo'miq tili (kelib chiqishi jihatdan qipchoq) bo'ynoq (adabiy til uchun asos bo'lgan) qaytoq, xasavyurt shevalaridan va jengutal lahjasidan iborat bo'lib, ularning bo'linib ketishiga hududiy tarqoqlik sabab bo'lgan.

b) tillarning etnik asosi bir-biriga yaqin bo'lgan hamda mazkur xalqlar tarixining keyingi davrlarida rivojlangan va milliylik bartaraf etgan sheva va lahjalar tizimiga ega tillar. Masalan, tatar tili (kelib chiqishi qipchoq)ning lahjalari *o'rta* tatar tili (adabiy til uchun asos bo'lgan) *g'arbiy* (mishar) tatar tili, *shimoliy* tatar tili (sibir tatarlari tili)larining hududiy farqlari katta, shuning uchun bir-biriga to'g'ri kelmasligi bilan xarakterlidir.

2. Etnik tuzilish bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lmagan turkiy tillarning sheva va lahjalari tizimi. Bunday xalqlarning tillaridagi lahjalarning farqli belgilari ikki xil: *birinchidan*, ularning kelib chiqishi shu tillar tarkibiga kiruvchi ba'zi etnik guruhlariga xos, *ikkinchidan*, tillar hamkorligining keyingi, ya'ni iqtisodiy markazlarning yuzaga kelishi davrida yuzaga kelgan lahjalar asosida paydo bo'lgan. Bu xususiyatni quyidagi tillar misolida ko'rish mumkin.

a) *chuvash tili* (fin tili substratiga ega bo'lgan bulg'or) *yuqori* (viryal), *quyi* (anatri) lahjalariga ega. Bu lahjalarning hududiy belgilari etnogenitik tarkib jihatidan bir-biriga yaqin emas, ular (bulg'or qabilalari va bulg'orlashgan qipchoqlar va ugor-fin etnik guruhlar) hisoblanadi. YOki yoqut tilining (mo'g'ul va evenk tillarini ta'siriga uchragan) lahjalari quyidagilar: 1) markaziy guruh shevalari (*o* lashgan va *a* lashgan); 2) vilyuy

guruhi shevalari (olektmen lahjasi bilan: 3) yuqori lahjalar; 4) dolg'an etnik guruhidagi dolgan lahjasi.

b) feodalizm tuzumi davrida milliy til darajasiga etgan xalqlarning tillari. Masalan, *ozarbayjon tili* quyidagi shevalari bilan ushbu guruhga mansub: 1) sharqiy guruh (kuban, boku, shamoxin shevalari va mug'on hamda lenqoran shevalari); 2) g'arbiy guruh (qozox, ganja, qarabog' va ayrum shevasi); 3) shimoliy guruh (nuhin shevalari va zaqatal qozox shevalari); 4) janubiy guruh (naxchivan, urdubod, tabriz va erevon shevasi; 5) almashinib turuvchi (geokchoy, agdash, jabroil shevalari.)

Bu guruhga yangi uyg'ur tili ham misol bo'la oladi.

Tillarning taraqqiyoti va shakllanishida o'ziga xos xususiyatlaridan biri, ayniqsa, leksika sohasida ayrim tillar yoki tillar gurhi uchun dinning ta'siri kuchli bo'lganligidir. Sibir tatarlarigacha islom dini etib bormagan, biroq ularning tilida mo'g'ul tilining unsurlari o'z aksini topgan. Bu xususiyatni Markaziy Osiyo turkiy xalqlarining tilida arab va fors tilliarining kuchli ta'sirida ham ko'rish mumkin.

Tillar tarixini o'rganishda qardosh tillarning leksikasida yoki grammatikasida umumiylikning bor bo'lishi bu xalqlarning uzoq tarixida bog'liqlik mavjud bo'lganligini ko'rsatadi.

Jamiyatning rivojlanishi bilan urug' va qabila munosabatlari ham rivojlanib bordi, natijada elat va xalq tillari yuzaga keldi. Bu tillarning lug'at boyligi, grammatik qurilishi asosan saqlangan bo'lsa-da, qabila va urug'larning o'zaro aloqalari natijasida bu jabha bir qancha ichki o'zgarishlarga yuz tuta bordi. Masalan, oltoy, turkman, yana ham qadimiyroq til hisoblangan chuvash, yoqut tillari turli genetik va hududiy aloqalarga qaramay, o'zining lug'at boyligi va grammatik qurilishni saqlab qoldilar. Ammo bu tillarda fonetik o'zgarishlar ham yuz bergan. Bunday dalillar turkiy tillarning bir-biri qardosh ekanligidan guvohlik beradi.

Turkiy tillarning grammatik qurilishi hamda asosiy lug'at boyligi umumiy bo'lib, ular qardosh, yagona qabila tili zamirida shakllangan, yanada aniqroq qilib aytganda, yagona urug' tili bu tillarning asosini tashkil etadi. Biroq bu tillarning yuzaga kelishiga qardosh va qardosh bo'lmagan tillarning (oltoy — mo'g'ul, turkman — eron, chuvash — ugor-fin, yoqut — mo'g'ul yoki tungus — manchjur) o'zaro aloqasi bir qancha turli-tumanliklarni keltirib chiqardi.

Turkiy tillar guruhining linivistik asoslari XIX asrning boshlariga qadar kam o'rganilgan edi. Bunga sabab, birinchidan, turkiy tillarning kam o'rganilganligi, dalillarning etarli bo'maganligi bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu tillarga oid manbalarning kamligi edi. Keyingi paytlarda bu bo'shliqni to'ldirish uchun turkiy tillar tarixini, mazkur xalqlarning tarixi bilan aloqadorlikda o'rganish yuzaga keldi. Turkiy tillarda bitilgan yodgorliklarni tekshirishlar faqat bu tillar tarixi va rivojlanishni, balki ko'p yillar mobaynida yuzaga kelgan fonetik o'zgarishlar sababini aniqlash imkoniyatini berdi.

Turk, mo'g'ul, tungus-manchjur tillari tarixini tarixiy chog'ishtiruv asosida o'rganish (M. A. Kastren, V. V. Bartold, V. V. Radlov, P. M. Melioranskiy, S. E. Malov, B. YA. Vladimirtsov, G. Ramstedt, V. Kotvich, K. Gryonbax, A. Ja'faro'g'li kabi olimlarning fikriga tayanib, turkiy tillar tarixini quyidagi olti davrga bo'lish mumkin: 1) Oltoy davri (eradan oldingi III asrgacha); 2) Xunn davri (eradan oldingi III asrdan eramizning V asrigacha); 3) Qadimgi turk davri (X-XV asrlar); 5) YAngi turk davri yoki milliy tillarning rivojlanishi va shakllanishi davri (XV-XX asrlar); 6) Eng yangi turk tili davri yoki turkiy tillarning 1917 yildan keyingi rivoji davri.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. *Tillarning paydo bo'lishi haqidaqanday nazariyalarni bilasiz?*
2. *Turkiy tillarning shakllanishida hududning ahamiyati deganda nimani tushunasiz?*
3. *Turkiy tillarning paydo bo'lishi uchun urug'-qabilachilik qanday rol o'ynagan?*
4. *Turkiy tillarning yuzaga kelishi uchun kasb-hunarning ahamiyati bormi?*
5. *Turkiy tillarining shakllanishida bir-biriga yaqin lahjalar qanday rol o'ynadi?*
6. *Bir-biriga yaqin bo'lmagan qabila dialektlaridan tuzilgan tillar tizimining shakllanishini misollar orqali tushuntirib bering*

Zaruriy adabiyotlar:

1. Baskakov N.A. Vvedenie v izuchenie tyurkskix yazykov. M., "Vysshaya shkola", 1969, 24—36-betlar.
2. T. Jumaev. Turkiy tillarining tarixiy qiyosiy tahlili. Qarshi, "Nasaf", 2005, 4—10-betlar.
3. Щербак М.А. Сравнительная фонетика тюркских языков. М., -Л. 1970,
4. Gadjeva N.Z., Serebrennikov B.A. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. М.; Nauka, 1986.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Вопросы описательных памятников народов СССР. М., Л. 1955.
2. Исследование по сравнительно грамматике тюркских языков. М., -Л. 1955.
3. Malov S.E. Памятники древнетюркской письменности. М., 1951.
6. Borovkov A.K. Лексика Среднеазиатского тefsira XI-XIII вв. М., 1963.

3--ma'ruza. TURKIY TILLAR TARIXINI DAVRLARGA BO'LIB O'RGANISH. OLTOY DAVRI

Reja:

1. *Turkiy tillar tarixini davrlashtirishga hissa qo'shgan olimlar.*
2. *Hozirgi oltoy tilining shakllanishidagi eng umumiy belgilar.*
3. *Oltoy tillarda saqlangan fonetik belgilar haqida.*

4.Hozirgi o'zbek adabiy tilida Oltoy tili davri belgilarining saqlanishi.

Tayanch tushunchalar: Turkiy tillar tarixini davrlashtirgan G'arb, rus va o'zbek tilshunos olimlarining tasniflari. 2.Oltoy davrining eng asosiy lisoniy belgilari, ular saqlab qolgan omillar.3.Bu darning fonetik belgilari hozirgi turkiy tillarda saqlanib qolganligi. 4.Hozirgi o'zbek adabiy tilida bu davr tilining ayrim xususiyatlari hamon mavjud ekanligi.

Turkiy tillar taraqqiyotining eng qadimgi davri oltoy tili davridir. Bu davr ilmiy jihatdan ham to'liq asoslanmagan. Oltoy tili davrida turkiy tillar mo'g'ul va to'ngus-manchjur tillaridan ajralib chiqmagan edi. «...mo'g'ul tili turkiy va tungus tillar bilan,— deb yozgan edi akademik B. YA. Vladimirsev, — biz shartli oltoy deb ataydigan bobo tilning bir shaxobchasidir. Oltoy tili ma'lum emas, ammo oltoy tillar ma'lum, ya'ni mo'g'ul, turk va tungus tillari shu oltoy tilidan rivojlangan.

Eng qadimgi til hisoblanmish oltoy tilining fonetik, leksik va grammatik belgilari hozirgi turkiy, mo'g'ul va tungus manchjur tillarida saqlanib qolgan.

Oltoy davri fanda na tarixiy, na lisoniy yodgorliklar bilan asoslangan. Mavjud, ma'lumotlar ham o'sha davrning til qonuniyatlari haqida aniq ma'lumot bermaydi. Oltoy tili xususiyatlari borasidagi barcha hukmlar taxminiy bo'lib, ular qadimgi o'lik tillarni hamda hozir iste'molda bo'lgan tillarni tarixiy- qiyosiy metod asosida chog'ishtirish bilan keltirib chiqarilgan. Bunday hukm va xulosalar, bir tomondan, tungus-manchjur tillarini, ikkinchi tomondan, turk-mo'g'ul tillarining keyingi davrda yuzaga kelgan differentsiyasi asosida paydo bo'lgan. Bu tillar differentsial belgilarining eng qadimgi va xarakterlisi undoshlarning muvofiq kelishidir (hozirgi tillar misolida). Tungus tilidagi *t* manchjur tilidagi *s* turk va mo'g'ul tillarida *i* dan oldin qo'llanadigan *ch~sh* ga mos keladi. Ba'zi turkiy tillarda oltoy tilining qadimgi belgilari saqlanib qolgan. Masalan, yoqut, xakas (sag'ay va baltir shevalarida) va boshqird, tungus tillaridagi *t* manchjur tilidagi *s* undoshiga muvofiq keladi. Ya'ni tungus tilida *gutin* va manchjur tilida *gusin* so'zlari mo'g'ul tilidagi *guchin* so'ziga to'g'ri keladi; manchjur tilidagi *xusun* mo'g'ul tilida *kuchin*, hozirgi oltoy tilida *kuch* «kuch» (sila) so'ziga shaklan o'xshash, (qiyoslang xakas tilida *kys* yoqut tilida *kyys*, boshqird tilida *kos* (*kys*) «kuch». Bu ma'lumotlar yoqut, xakas va boshqird tillari bilan to'ngus-manchjur tillari orasida qadimdan genetik aloqa mavjudligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, Oltoy davri turkiy tillar taraqqiyotida, bir tomondan, turk, mo'g'ul, tungus-manchjur tillariga bo'lingan umumiy til bo'lganligi bilan, ikkinchi tomondan, bir umumiy tilning ikkiga: 1) turk mo'g'ul va 2) to'ngus-manchjur tillariga bo'linishi bilan xarakterlanadi. Bu tillar ajralish jarayonida o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik belgilarga ega bo'lishdi.

Fonetika sohasida yuqoridagi holatlarni nazarda tutib tillarni ikki guruhga ajratish mumkin: a) *ch~sh* (s) lovchi turk-mo'g'ul tillari; b) *t* lovchi to'ngus-manchjur tillari.

Ko'rinadiki, Oltoy davrida na faqat to'ngus-manchjur guruhining to'liq guruhga ajralishi nihoyasiga etdi, hatto turk va mo'g'ul tillarining farqlanishi ham shakllanib bo'ldi.

Yuqorida keltirilgan dalillar, bir tomondan, hozirgi mo'g'ul tillari, ikkinchi tomondan, barcha turkiy tillar o'ziga xos fonetik belgilarga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Mo'g'ul tillaridagi *r* va *l* undoshlari turkiy tillardagi *z* va *sh* almashinishi bu tillar orasida yaqinlikni ko'rsatadi; *r* va *l* undoshlarining qo'llanishi ba'zi bir turkiy tillarda, xususan, qadimgi bulg'or va hozirgi chuvash tilida saqlanib qolgan. SHuningdek, hozirgi turkiy yoqut, xakas va boshqird tillarida *t~s* undoshi muvofiqligi saqlanib hamon mavjud. Masalan: *kyych*, *kys*, *kos* «kuch».

Qadimgi umumfonetik belgilar *r~z* va *l~sh/s* to'ngus-manchjur tillarida bo'lgani kabi mo'g'ul tillarida ishlatiladi. Bu holat hozirgi chuvash tilida hozir ham iste'molda. Masalan:

Chuvash tilidagi *r* Boshqa turkiy tillardagi *z*

<i>varam</i>	«uzun»	<i>uzun</i>
<i>varax</i>	«uzoq»	<i>uzaq</i>
<i>yer</i>	«iz»	<i>iz</i>
<i>ker</i>	«kuz»	<i>kuz</i>
<i>par</i>	«muz»	<i>buz</i>
<i>tir</i>	«tizmoq»	<i>diz</i>
<i>xer</i>	«qiz»	<i>qyz</i>
<i>xur</i>	«g'oz»	<i>qaz</i>
<i>xo'ran</i>	«qozon»	<i>qazan</i>
<i>cher</i> 1) «tizza/tiz»	<i>diz</i> 2) «sizmoq»	<i>syz-</i>
<i>ser</i>	«suzib o'tmoq»	<i>suz</i>
<i>shur</i>	«botqoq»	<i>saz</i>
<i>çer</i>	«yuz»	<i>yuz</i>

CHuvash tilidagi *l* Boshqa turkiy tillardagi *sh/s*

<i>sul</i>	«yl»	<i>yash /jas</i>
<i>pilek</i>	«besh»	<i>besh/bes</i>
<i>tel</i>	«vaqt»	<i>tush/tus</i>
<i>telek</i>	«tush»	<i>tush/tus</i>
<i>xel</i>	«qish»	<i>qysh/qys</i>
<i>chul</i>	«tosh»	<i>tash/tas</i>
<i>shal</i>	«tish»	<i>tish/til</i>
<i>alak</i>	«eshik»	<i>eshik/esik</i>
<i>ilt</i>	«eshit»	<i>eshit/esit</i>

SHu bilan birga, *r~z* va *l~sh/s* mosligi nafaqat chuvash tilida, balki boshqa turkiy tillarda ham bu moslikning izlari sinonimlar sifatida boshqa sema qabul qilgan boshqa so'z sifatida yashab keladi. Bu aloqadorlikni

tiklash hozir ancha murakkablik kasb etadi. Fikrimizning isboti uchun $r \sim z$ va $l \sim sh/s$ undoshlarining almashinib kelishini olib ko'raylik. Misollar: chuvash. *ul* — umumturk *yash* 1) «yil» «yosh»; 2) «ko'z yoshi»; umumturkiy tillarda, birinchidan; *yash* «yil», «yosh» va ikkinchidan, «yil»; chuvash. *pilek* umumturkiy tillarda *beshe* «beshe»; birinchidan, mumturkiy tillarda *beshe* «beshe» va ikkinchidan, *bilek* «bilak» shuningdek, qadimgi *kør* «ko'rmoq» va *köz* «ko'z» *yert* «izdan yurmoq», «iz olish» va *iz* «iz».

Qadimgi *r* (mo'g'ul tillari va turkiy tillarning bulg'or guruhi tillari uchun xarakterli) chuvash tili kabi boshqa turkiy tillardagi *z* ga to'g'ri keladi hamda *d* va *y* undoshlarining mosligi turkiy tillardagi $r \sim z/s/d/t/y$ qadimgi davrdan saqlangan meros bo'lib, bu turkiy tillarning farqlanishi asosida bir necha guruh tillarining shakllanishiga asos bo'ldi. Misol qilib, chuvash tili bilan boshqa turkiy tillardagi $r \sim y$ mosligini olib ko'raylik: *shar-* (*siy-*) «siymoq», *ura*, (*ayaq*) «oyoq»; *keru* (*kuyev*) «kuyov»; *sar* (*yay*) «yoymoq»; *xo'ran* (*qazan*) «qozon», *ıra* (*iyi/iygi*) «yaxshi», shuningdek, $r \sim d/t$ mosligiga misollar: *arak* (—*etek*) «etak»; *var* (—*at*) «otmoq».

Shuningdek, $r \sim s/z/d/t/y$ mosligi nafaqat ayrim guruhlariga mansub bo'lgan turkiy tillar uchun ayrim olingan bir til leksikasining ichki qurilishi uchun ham xarakterlidir. Masalan, qiyoslang: *ayaq* «qadah», «so'ng», «tamom», *oyoq* boshqa turkiy tillarda *adaq* «oxirgi» — oltoy tilida. Demak, oltoy davridayoq turk-mo'g'ul tillari $r \sim l$ belgili tillar bilan mo'g'ul qabila tillariga, turkiy tillar $z \sim sh/s$ belgili til bilan turkiy qabila tillariga ajraldi. Jumladan, o'g'urlar, sarag'urlar, qotirg'urlar turkiy qabila sifatida shakllanishdi (qiyoslang: bo'lg'orlar, uyg'urlar). Oltoy va Xunn davrlarida og'ur~uyg'ur~og'uz atamalarining farqlanishi yuzaga keldi (mo'g'ul, bulg'or-turk tillari uchun rotatsizm saqlangan).

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Turkiy tillar tarixini davrlashtirishga qaysi olimlar hissa qo'shgan? Bu tasniflarning qaysilari haqiqatga yaqinroq deb o'ylaysiz?
2. Hozirgi oltoy tilining shakllanishidagi eng umumiy belgilar nimada?
3. Oltoy tillarining qanday fonetik va morfologik belgilari hozir ham saqlanib qolgan?
4. Hozirgi o'zbek adabiy tilida oltoy tiliga xos belgilarga misollar keltiring.

Zaruriy adabiyotlar:

1. Baskakov N.A. Vvedenie v izuchenie tyurkskix yazykov. M., "Vysshaya shkola", 1969, 24-36-betlar.
2. T. Jumaev. Turkiy tillarining tarixiy ?iyosiy ta?lili. ?arshi, "Nasaf", 2005, 4-10-betlar.
3. Щербак М.А. Сравнительная фонетика тюркских языков. М., -Л. 1970,
4. Gadjeva N.Z., Serebrennikov B.A. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. М.; Nauka, 1986.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Voprosy opisatel'nykh pamyatnikov narodov SSSR. M., L. 1955.
2. Issledovanie po sravnitel'no grammatika tyurkskix yazykov. M., -L. 1955.
3. Malov S.E. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. M., 1951.
6. Borovkov A.K. Leksika Srednaziatskogo tefsira XI-XIII vv. M., 1963.

4--ma 'ruza. XUNN DAVRI

Reja:

1. Xunn imperiyasi haqida umuiy ma'lumot.
2. Jahon tarixiy manbalarida Xunn imperiyasi haqidagi ma'lumotlar.
3. Xunn davri tilining fonetik xususiyatlari.
4. Xunn davr tilining morfologik jihatlari.

Tayanch tushunchalar: 1. Xunn davlati joylashgan hudud va unda yashagan urug'-qabilalar. 2. Qadimgi Xitoy, grek, sansurit va arman yilnomalarida bu imperiya haqida saqlanib qolgan ma'lumotlar. 3. Bu davr tilining mo'g'ul, tungus-msanchjur va turkiy tillarda saqlanib qolgan belgilar.

Xunn davri (eramizgacha III asrdan eramizning IV asrigacha) qabila ittifoqining kuchli birlashuvchi va rivojlanishi bilan xarakterlanadi, hamda Xunn Imperiyasi deb yuritiladi. Bu imperiyaning hududi Markaziy Osiyodan SHarqiy Evropagacha cho'zilgan edi va ko'p sonli turk mo'g'ul, tungus, manchjur, eng asosiysi, turkiy qabilalarni birlashtirgan edi. U SHarqiy Evropada eramizning birinchi asrigacha yashadi.

Eramizning birinchi asrining o'rtalariga kelib Xunn davlati o'zaro urushlar va siyanbiyliklarning hujumi ta'siri natijasida quladi hamda G'arbiy va SHarqiy Xunn davlatlariga bo'lindi. Keyinroq turklar boshchiligida sharq va g'arbda bir qancha qabila ittifoqlari vujudga keldi.

I-IV asrlardagi SHarqiy Osiyo xalqlarining tili hozirgacha fan olami uchun mavhum bo'lib qolmoqda. Bizgacha etib kelgan xitoylarning ayrim so'zlarning transilitiratsiyasi qadimgi turkiy xalqlarning tili haqida aniq ma'lumot bera olmaydi. P. Pellioning uqtirishicha, xitoy adabiyotlarida qayd qilinadiki, eramizning boshlarida xitoylar tomonidan boshqa xalqlar tiliga oid bir qancha lug'atlar tuzilgan. Kelib chiqishi turkiy bo'lgan siyanbiylar tilidagi lug'atlar ham shu fikrning isboti hisoblanadi. Mazkur fikrga asoslanadigan bo'lsak, bu lug'atlar turkiy tildagi eng qadimgi yozma yodgorlik hisoblanadi.

V. B. Bartol'dning fikriga qaraganda, turkiy tillar guruhidagi tillar orasida qat'iy chegara aniq bo'lmagan paytda xunn tili genetik jihatdan chuvash tiliga yaqin bo'lgan, bu fikrni venger tilida turkiy til elementlarining mavjudligi ham isbotlaydi.

Xunn davri turli qabila tillarining shakllanish va aralashuv protsessi bo'ldi. YA'ni, xitoy, sanskrit, slavyan, qadimgi Eron lahjalari yuzaga kelishi kabi turkiy, mo'g'ul, tungus-manchjur guruhi tillari Xunn davrini tashkil qiladi. Bu tilga SHarqiy Evropa, O'rta va Markaziy Osiyoda yashovchi ko'plab qabilalar gaplashgan. SHarqda joylashgan turkiy qabilalar tillariga xitoy va sanskrit tillarining ta'siri katta, g'arbda yashovchi turk qabilalarining tiliga eng qadimgi Eron va slavyan tillarining ta'siri kuchli.

Bu davrda turkiy tillarning grammatik qurilishida, lug'at boyligida qo'shni qabila ittifoqlarining tungus-manchjur va mo'g'ul tillarining ta'siri kuchli bo'lganidek, xitoy, sanskrit va qadimgi Eron tillarining ta'siri katta, g'arbda yashovchi turk qabilalarining tiliga esa qadimgi Eron va slavyan tillarining ta'siri kuchli bo'lgan.

Bu davrda turkiy tillarning grammatik qurilishida, qo'shni qabila ittifoqlarining: tungus-manchjur va mo'g'ul tillarining ta'siri kuchli bo'lganidek, Xitoy, sanskrit va qadimgi Eron tillarining ta'siri ham sezilarli edi. Bu ta'sir hozirgi turkiy tillarda yorqin saqlanib qolgan.

Barcha turk, mo'g'ul, tungus-manchjur lahjalari leksikasining eng qadimgi qatlamida maishiy, xo'jalik ishlari bilan aloqador bo'lgan so'zlar saqlanib qolgan. Masalan: a) Turk, manchjur tillaridagi leksik umumiyliklar: *olt.* *buga/buka* «buqa» *mo'g'.* *buxa*, *manch.* *buxa/buxu* «hayvon», «bug'u», *buka*, «qo'y», *olt.* *bol* «bo'lmoq» *mo'g'.* *bol* «bo'lmoq», «qilmoq», «solishtirmoq», *manch.* *bola* «qovurmoq», *olt.* *tala* «tomon», дьалаң «cho'l», *mo'g'.* *tala* «vodiy», *manch.* *tala* «cho'l», «vodiy».

Turk, mo'g'ul, tungus-manchjur tillarining grammatik qurilishida bunday umumiyliklar kam emas. Masalan, urxun bitiglaridagi tushum kelishigi qo'shimchasi *-yg'/-ig* g'arbiy mo'g'ul tillarida ham mavjud.

Bu tillar uchun umumiy bo'lgan quyidagi so'z yasovchi qo'shimchalar uchraydi:

a) narsa-jism nomini yasovchi qo'shimchalar *-g'ur/gyr*; *-ti* (<turk. *-ma/me*); *-g'* (turk. *-ыq/ik*); *-s* (turk. *-ыsh/-ish//is/ыs*, harakat nomi yasovchi); *-t* (turk. *-ым-im/-m*)

b) harakatdan belgi nomini yasovchi: *-p*, (turk. *-ын/-in*); *-gir* (turk. *-g'ыр/-gir*);

v) mavhum ot yasovchi: *-lig'/lig* (turk. *-ыq/-lik*).

g) kasb-hunar oti yasovchi: *-chi/chin* (turk. *-chi/чы/-shы/-shi*).

Bundan tashqari, bu tillar uchun umumiy bo'lgan sanskrit, xitoy va boshqa tillardagi leksik almashinuvlar turkiy tillar taraqqiyotining turli davrlarida yuzaga kelgan.

Xunn davrida turkiy tillar bir qancha qabila tillari sifatida mavjud edi. Bu tillarning farqlanishi a) *r~l* belgili tillar: bunga og'urlar (o'g'urlar), no'g'urlar, sarao'g'urlar (sarag'urlar/sarao'g'urlar) qo'turg'urlar tillari bo'lib, ular avar, sabir, bulg'or va hozirgi chuvashlarning ajdodlari edi. b) *z~sh* belgili tilar; bunga o'g'uzlar (uzlar) qadimgi qirg'izlar, uyg'ur

qabilalarining bir qismi kiradi. SHarqda yashaydigan bu qabilalardan o'g'uzlar qipchoqlar va qarluqlar yuzaga kelgan. Bu taraqqiyotning belgilari hozirgi oltoy tilida saqlanib qolgan. Oltoy tilining fonetik va leksik qatlamida saqlangan *r~s/z* va *l~sh/j* mosligi Xunn davrining xususiyati hisoblanadi. Masalan:

r~s/z

dbas «ochmoq», «yozmoq», «ajralmoq»; *dbazil* «ochilmoq», «yozilmoq», «ajratmoq» va *dbar* «nifoq solmoq», «birlashmoq», «yormoq», *dbarыл* nifoq «solinmoq», «birlashtirmoq», «yorilmoq», 1) *bas-* «bormoq», «yurmoq», «qadam qo'ymoq»; 2) «bosmoq», «og'irligini tashlamoq» va *bar-* «ketmoq», «jo'namoq», *kəz*, «ko'z» va *kər-* «ko'rmoq», *bos* «ranggi o'chgan», «kul rang», *bozor* «rangsizlanmoq», «kul rang qilmoq»; *boro* «oqish kulrang», «kul rang». Bunday holat boshqa turkiy tillarda ham uchraydi. Masalan qoraqalpoq tilida *tus* «ko'rinish» va *tur* «ko'rinish»;

l~sh/j

besh «besh», *belek* «bilak», (qiyoslang: chuvash. pilek «besh») *bısh-* «xalaqit bermoq», «dalda bermoq», «mahmadanalik qilmoq» va *bulga* «halaqit bermoq», «aralashtirmoq», «dalda bermoq»; *bısh* «pishmoq», «ulgurmoq», «qaynatmoq», «qovurmoq», «tayyorlamoq»; *byıyr* «pechka», «qaynatmoq», «qavurmoq», «pishirmoq» va *bol-* «bo'lmoq», «turmoq», (qiyoslang, mo'g'ul.: *bol-* «qaynatmoq», «qovurmoq», «pishirmoq», «bajartirmoq», «turmoq», «bo'lmoq»; manchjur. *bola* «qovurmoq».

Xunn davrida turkiy tillar farqlanishi va yaqinlashuvi yuz berib bordi; bu tillar *z~sh* belgili maydalashgan qabila tillari edi.

Ma'lumki, M. Koshg'ariy o'z «Devoni»da qipchoq va o'g'uz tillarining bir-biriga yaqin ekanligini, va aksincha, uyg'ur qabilalari tillarining farqlanishini ta'kidlaydi:

a) *y>ɣ* mosligi yoki *y* ning tushib qolishi. Masalan, o'g'uz, qipch. *sinsu* (uyg', tilidagi *yinsu* o'rnida) yoki o'g'uz, qipch. *yilig' suv* (uyg'. *ilig' sug'* o'rnida)

b) *m>b* mosligi, masalan, o'g'uz., qipchoq: *men berdim*, (uyg'. *ben berdim* o'rnida)

M. Koshg'ariyning, birinchidan, qipchoq va o'g'uz tillarini, ikkinchidan, o'g'uz tillarini solishtirishi, Xunn davrida bu tillar farqlanmaganligi, balki o'g'uz- qarluq-qipchoq umumiyligini tashkil qilganligini ko'rsatadi. Bu umumiylik, dastlab, qarluq (uyg'ur), keyinroq, o'g'uz — qipchoq, va nihoyat, o'g'uz va qipchoq tillariga ajraldi.

Demak, turkiy tillarning Xunn davridagi holatini taxminan shunday tasavvur qilish o'rinli, bu davrda barcha turkiy tillar bir-biriga yaqin guruhlariga bo'lingan, Xunn davlatining bo'linib ketishi bilan esa, turkiy tillar ham sharqiy va g'arbiy tarmoqlarga ajralgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Xunn imperiyasi haqida qanday ma'lumotlar saqlanib qolgan?

2. Jahon tarixiy manbalarida, xususan, xitoy yilnomalarida Xunn imperiyasi haqida qanday ma'lumot saqlanib qolgan?

3. Xunn davri tilining fonetik xususiyatlari qaysi tillarda yaqqolroq saqlangan?

4. Xunn davr tilining morfologik jihatlar hozirgi o'zbek tilida ham mavjudmi?

Zaruriy adabiyotlar:

1. Baskakov N.A. Vvedenie v izuchenie tyurkskix yazykov. M., "Vysshaya shkola", 1969, 24—36-betlar.

2. T. Jumaev. Turkiy tillarining tarixiy qiyosiy tahlili. Qarshi, "Nasaf", 2005, 4-10-betlar.

3. Проблемы монгольских языков. Novosibirsk, "Nauka", 1988.

4. Gadjieva N.Z., Serebrennikov B.A. Sravnitel'no-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazykov. M.; Nauka, 1986.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Voprosy opisatel'nykh pamyatnikov narodov SSSR. M., L. 1955.

2. Issledovanie po sravnitel'no grammatika tyurkskix yazykov. M., -L. 1955.

3. Malov S.E. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. M., 1951.

6. Borovkov A.K. Leksika Sredniazitskogo tefsira X1-X111 vv. M., 1963.

5--ma 'ruza. QADIMGI TURK DAVRI

1. Qadimgi turkiy adabiy til haqida.

2. Runiy yozuvi va uning yodgorliklari.

3. Uyg'ur yozuvi va uning yodgorliklari.

4. Qadimgi turkiy adabiy tilning xususiyatlari.

5. Qadimgi turkiy tilning o'zbek adabiy tili taraqqiyotidagi roli.

Tayanch tushunchalar: 1. Qadimgi turkiy tilning yuzaga kelishi va u tarqalgan hududlar xususida. 2. Runiy yozuvida bitilgan yodgorliklarning til xususiyatlari haqida. 3. Uyg'ur yozuvida bitilgan yodgorliklarning lisoniy xususiyatlari. 4. Qadimgi turkiy tilning fonetik va morfologik xususiyatlar haqida. 5. Qadimgi turkiy til va hozirgi o'zbek tili orasidagi umumiyliklar.

Qadimgi turk davri uchga bo'linadi: tukyu davri (V-VIII), qadimgi uyg'ur davri (VIII-IX) va qadimgi qirg'iz davri (IX-X). Bu davr turk va mo'g'ul tillarining to'la-to'kis ajralganligi bilan xarakterlanadi.

G'arbiy xunlar IV asrgacha asta-sekinlik bilan G'arbiy Evropa tomon siljigidilar, ular qarshilik qilgan turkiy va turkiy bo'lmagan o'zga qabilalarni bo'ysundirib bordilar. Xunlar davlati qulagach, bu xalqlar SHarqiy Evropaga qarashli bulg'orlar va hazarlar ittifoqiga qo'shilishdi. SHarqiy xunlar IV asrga kelib (552 yil) turkiy qabilalar bo'lmish tukyularni qulatishadi va xunnunlar davlati o'rnida ko'chmanchi Tukyuy imperiyasini o'rnatadilar. Bu davlatning hududi Amudaryo, Balx, Marv va Hindistongacha cho'zilgan edi. O'zaro urushlar va Xitoyning kuchayib ketishi natijasida 580-584 yillarda Tukyuy davlati ikkiga: markazi Ettisuvda bo'lgan G'arbiy Tukyuy va markazi Mo'g'ulistonda bo'lgan SHarqiy Tukyularga bo'linib ketadi. Ikkiga ajralib ketgan bu davlat uyg'ur qabilalari hamda Xitoy tomonidan berilgan zarba tufayli o'z mustaqilligini ham yo'qotdi.

SHarqiy Tukyuy VII asrda Xitoyga qo'shib olingan bo'lsa, G'arbiy Tukyuy ya'ni, hozirgi G'arbiy va SHarqiy Turkiston VII asrda daslab Xitoyga qo'shib olinadi, arablar bostirib kelgandan keyin esa, VIII asr o'rtalarida, arab xalifaligiga bo'ysundiriladi. G'arbiy Tukyuyning shimoliy qismi (Ettisuvdagi qismi) tirgeshlariga bo'yso'ndiriladi, VII asrda o'g'uzlar va qarluqlar bosqinidan so'ng qarluqlar qo'liga o'tdi. Bu davlatning markazi CHu daryosi bo'yidagi Suyobda edi. O'g'uzlar g'arbga siljiy borib, VIII asrda Sirdaryo, havzasidan Qoraqum cho'llarigacha cho'zilgan davlatlariga asos soldilar.

Tukyuy davlati VIII asrning o'rtalarigacha (628-745 yillar) yashadi, 745 yilda bu davlat uyg'urlar tomonidan butunlay mavh qilindi.

Tukyuy davlatining tili haqidagi ma'lumotlarni rus olimlari tomonidan topilib, ancha to'liq va to'g'ri o'rganilganini o'rxun-Enisey yodgorliklari tadqiqidan bilish mumkin. Ayniqsa, akademik N.YAdrintsev tomonidan Mo'g'ilistonning Urxun vodiysidan topilib, o'rganib chiqilgan dalillari fanimizga muhim hissa bo'lib qo'shildi. Toshga o'yib yozilgan O'rxun-Enisey yodgorliklari bir qancha vaqt olimlar orasida muammo bo'lib turdi. Biroq XIX asrning oxirida daniyalik olim V. Tomsonn va rus olimi, V. V. Radlov o'zaro hamkorlik qilishib, bu yozuvlarni o'qishga muvaffaq bo'lishdi. Bunday yodgorliklarning eng kattalari qo'yidagilar:

1) eng qadimgi (692-693) yodgorlik Guduluxon sharafiga qo'yilgan Ongin toshi; 2) Kul Tegin sharafiga qo'yilgan (yoki Bilgaxon) yodgorligi (732); 3) E. Klements 1897 yilda topgan Tunyuquq sharafiga qo'yilgan yodgorlik; 4) V. Kotvich tomonidan asoslangan bir oz kichik bo'lgan Kuli CHura yodgorligi.

2) Uyg'urlar ittifoqi 682-745 yillarda butun SHarqiy Tukyuy davlati qabilalarini birlashtirdi. G'arbiy uyg'ur davlati turkiy qabilalari esa uyg'ur davlatiga hujum qildilar va 840 yilda uni qulatdilar.

3) 840 yildan X asrgacha Mo'g'uliston qora xitoylar ixtiyorida bo'lgan va bu davr qirg'izlar davri deb ataladi. Uyg'ur davlatining katta qismi qirg'izlar tomonga — g'arbga siljishdi va Jung'oristonga yangi uyg'ur davlati bo'lmish davlatlarini barpo etdilar, bu davlat tug'uz o'g'urlar davlati

deb yuritilgan, u mo'g'ullar bosqinigacha yashab, o'z madaniy yutuqlarini yuzaga keltiradi.

Tukyularning bevosita avlodi bo'lgan uyg'urlar o'z tillarini aks ettiruvchi bir qancha yodgorliklar qoldirdilar. Bu yodgorliklar ikki davrga xos.

Birinchisi eng qadimgi yodgorliklar qabrtoshlariga o'yib yozilgan yozuvlar bo'lib, ular o'rxun yozuvlari bilan umumiyliklarga ega. Bu yodgorliklarni G. Ramsted ikkiga bo'lib o'rgangan: 1) Selenga toshi deb ataluvchi SHeneusu chegarasidan topilgan yodgorlik (VIII). Bu yozuv tukyular inqirozigacha bo'lgan yozuv. 2) Suji chegarasidagi yozuv bo'lib, u 840-862 yillar orasida bitilgan; uyg'urlar inqirozigacha bo'lgan yozuv hisoblanadi.

Ikkinchi davr yodgorliklari yozuvi bilan farqlanadi. Bu yodgorlik Selenga toshi nomi bilan atalib, so'g'dlar tomonidan qo'yilgan, ular esa uyg'urlar dini va diniy falsafiy mavzusidagi IX-X asrlarga oid manixey va budda yodgorliklaridir: o'sha davr adabiy tili haqida ma'lumot beradi. Bu davr yuridik hujjatlari esa abadiy til bilan xalq jonli tili orasidagi farqni belgilash uchun juda qimmatli ma'lumotlarni namoyon qiladi. Bu hujjatlar V asrdan VIII asrgacha va X asr hamda undan keyingi davrlarga tegishli yodgorliklardir.

Uyg'ur tili va yozuvi keyingi davr abadiy tillari haqida ham ma'lumot beradi: birinchi navbatda, qoraxoniylar davri tili (XI- XII), undan keyin, o'g'uz qipchoq adabiy tili (XII-XIII), chig'atoy tili (XIII-XIV), Oltin O'rda adabiy tili (XIII- XIV), eski o'zbek tili (XV- XIV), eski turkman tili (XVII-XIX) haqidagi ma'lumotlarni bizning davrimizgacha etkazib kelgan. Bu yozuvni hozirgi uyg'urlar o'zlashtirishgan va bugungi kunda ham undan foydalanadilar.

IX asr o'rtalarida ko'pgina turkiy qabilalar, ba'zi bir uyg'ur va qirg'iz qabilalaridan tashqari, g'arbga tomon siljidilar. Eng sharqdagi turkiy davlatlar — Mo'g'ulistondan qirg'izlar davlati, Jung'oristondagi tug'uz o'g'urlar davlati va qarluqlar davlatilari (chigil va jikil) Ettisuvdagi to'xsi, yag'mo va az qabilalarini birlashtirgan edi.

G'arb va janubda — Janubiy Turkistonda (Buxoro Samarqand, Xorazm, Farg'ona va Qashqadaryo) turkiy xalqlar (tukyu hamda tirgeshlarning avlodlari) eroniy xalqlar bilan aralash yashashar edi. Ular VIII asrda arablar tomonidan istilo qilinib, Abbosiylar xalifaligiga, IX asr oxirida esa Somoniylar tarkibiga kirdilar. VIII asr oxiriga kelib, Sirdaryoning quyi oqimidan Kaspiy dengizgacha bo'lgan hudud ko'chmanchi o'g'uzlarning (to'g'uz g'uzlar, g'uzlar, uzlar) davlati, mavjud edi. SHimolroqda YOyiq daryosining (Ural) sohillarida ko'chmanchi pecheneglar yashar edi. Ularning SHarq va SHimoliy sharqida — Irtishning o'rta oqimida qo'miqlar (qipchoq va yomiqlar qabilalardan iborat) ko'chib yurardi. Qirg'izlar esa YOniseyda yashardi.

Volganing g'arbida va rus cho'llarining shimolida bulg'orlar, janubida bulg'orlar va hazarlar hukmronlik qilishar edi. Bulg'orlar va hazarlarning tili bir-biriga yaqin ammo turkiylar hamda finlar uchun tushunarli emas edi.

IX asrda pecheneglar o'g'uzlar hamda qo'miqlar tazyiqi bilan qipchoqlar markazini tuzdilar va janubiy g'arbga siljib madyor hamda bulg'or qabilalarini oradan surib chiqarishdi. Buning ta'sirida X asrda eng kuchli hisoblangan Hazarlar davlati o'z kuchini yo'qota boshladi.

Bu davrdagi tukyu va uyg'ur xalqlarining ko'p yodgorliklari bizgacha etib kelgan, biroq qadimiy turkiy xalqlar bo'lgan hazarlar, bulg'orlar va pecheneglar tillarining IV-X asrlardagi holati haqida ma'lumotlar juda kam. Bu ma'lumotlar ham ayrim toponimik, onomastik nomlardagina saqlanib qolgan, shuningdek, vzantiya, evrey, arman, arab mualliflarining esdaliklarida, qabrtoshlarda, sopol idishlar devorlarida saqlanib qolgan. Hazar tilining xususiyatlari Itil, Semender, Belenjer, Sarkel kabi shahar nomlarida ham saqlangan. Bu urug' va qabilalarining nomlari evrey, arab manbalarida ham qayd qilingan.

Bu paytdagi bulg'or tilining xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar juda kam. Mavjud ma'lumotlar ham uning fonetik jihatdan hozirgi chuvash tiliga yaqin bo'lganligini ko'rsatadi. Bu til haqidagi eng so'nggi ma'lumotlar XIV asrga oid qabrtoshlarda, shuningdek, ancha keyingi davrlarda bitilgan yozuvlar slavyan-bulg'or nomlari tarkibidada saqlanib qolgan.

SHunday qilib, bu davrda eng kuchli qabila ittifoqlari g'arbda hazarlar, pecheneglar, sharqda esa tukyular, qadimgi uyg'urlar va qirg'izlarga tegishli edi.

Qadimgi turk davrining eng xarakterli fonetik xususiyati $r \sim t/d \sim s/z/z...$ > y ekanligi bilan xarakterlanadi. Mahmud Koshg'ariyning guvohlik berishicha, $y \sim s/z$ mosligi IX asrga kelib faqat chigil qabilasi tilida saqlangan. Masalan, chigil lahjasida *qarʻyn tozty* (boshqa qabila tillarida *qarʻyn toydy*); *azaq* (boshqa qabila tillarida *ayaq*). Xunn davrigacha mo'g'ul tillarida mavjud bo'lganidek, hozirgi chuvash tilida ham bu holat saqlangan, Xunn davriga kelib turkiy tillardagi $t/d \sim s/z$ belgisi qadimgi va o'rta turk davrlariga kelib y belgiga almashdi. Hozir esa t/d va s/z belgilari turkiy tillardan yoqut, tuva, karagas, xakas, shor tillarida saqlangan, ularning tillarida ham y qo'llanishi asta-sekin kuchaymoqda.

T/d va s/z ning y ga o'tishi hozirgi oltoy tilidagi so'z o'zaklarida ko'rinadi. Masalan, qiyoslang: qadimgi holat (*kuy* «kutmoq») oltoy tilida, boshqa turkiy tillar qadimdan boshlab (*kut* «kutmoq»); qoraqalpoq tilida *soz* «so'z» va *soyla-* «gapir-» (oltoy tilida *sos* «so'z», *sosto* «so'zla»).

Turkiy tillardan faqat oltoy, qirg'iz va o'g'uz tillari unlilarining qadimgi to'rttasini hozirgacha saqlab qolgan (*a-ə, o-ø, ɯ-i, u-ʏ*). O'g'uz tillari bilan oltoy hamda qirg'iz tili orasida farqlar shundaki, sharqiy turkiy tillar mo'g'ul tili bilan qo'shnichilikda yashar ekan, undagi unlilar cho'ziqligini saqlab qoldilar. Bu xususiyat oltoy, qirg'iz (shu jumladan xakas, tuva hamda yoqut tillaridaham) ko'rinadi.

Qadimgi o'g'uz (urxun), qadimgi uyg'ur va qadimgi qirg'iz (enisey) yodgorliklari guvohlik berishicha, turkiy tillar qadimgi turk davrida bir qancha umumiy o'xshashliklarga ega edi. Bunday yaqinliklar so'z o'rtasi va

oxirida *d/t* ning *y~r* o'rnida qo'llanishida ko'rinadi, shuningdek, ular orasidagi yaqinlashish hodisasi *n/ɳ ~ y* mosligida ham ko'zga tashlanadi.

Bunday holat hozirgi tillarda ham saqlangan, masalan, *qoɳ* «qo'y» ba'zi tillarda, *qoy* boshqa tillarda *qanda* ba'zi tillarda, *qayda* boshqa tillarda, shuningdek, ayrim tillarda *anig'*, boshqa tillarda *ayyg'* «yomon».

Qadimgi turk tili yodgorliklari fonetik hamda morfologik xususiyatlariga ko'ra ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga qadimgi uyg'ur, o'g'uz, ya'ni urxun-enisey yodgorliklari mansub bo'lib, ular quyidagi xususiyatlarga ega edi: a) *ɳ//n//y* undoshlarining so'z o'rtasi va oxirida kam farqlanishi; masalan, *aɳyg'//ayyg'//anyg'* «ahmoq», «yomon»; *qoɳ//qon//qoy* «qo'y»; b) so'z oxirida *g'* o'rnida *b* qo'llanganligi, masalan, *sub* (*sug'* o'rnida), *ab* (*av* o'rnida) v) so'z boshida *m//b* ning teng qo'llanishi, masalan, *ben//men* «men»; g) ravishdoshning *-pan* (*-ɳp/-ip* shakllari o'rnida) shaklining qo'llanishi: d) ikkinchi shaxs qo'plikdagi o'tgan zamon qo'shimcha *-tɳg'/-tɳg'ɳz*; III shaxs buyruq mayli *-sun/-chun*; j) istak mayli shakli *-sɳg'*; yuklamaning modal ma'nosi *erinch* orqali ifodalangan.

Ikkinchi guruhga qadimgi uyg'ur tili kiradi va u ham ikki lahjaga bo'linadi: a) birinchisi *n-* belgili bo'lib, qadimgi uyg'ur manixey (yoki budda yodgorliklari)ni o'z ichiga oladi; ikkinchisi *y-* belgili lahja hisoblanadi va unga manixeydan keyingi yoki budda yodgorliklarini deb ataluvchi braxma yozuvdagi xristian bitiklari kiradi.

N-lahjali yodgorliklar tili quyidagi xususiyatlarga ega: a) ayrim qo'shimchalarda *-ɳ/-i* qisqa unlilari o'rnida *a/ə* keng unlilarining qo'llanishi, masalan qurol-vosita kelishigi shakli *-an/-ən* ning *-ɳn/-in* o'rnida, tushum kelishigi *-ag'/-əg* ning *-ɳg'/-ig* o'rnida, mavhum egalik qo'shimchasi *-lag'/-ləg* ning *-lɳg'/-lig* o'rnida, ko'plikdagi II va III egalik qo'shimchalari *-amaz/-əməz* ning *-ɳmɳz/-imɳz* o'rnida va *-aɳaz/-əɳəz* ning *-ɳɳɳz/-iɳɳz* o'rnida, I shaxs o'tgan zamon shaxs-son qo'shimchasi *-tam/-təm* ning *-tɳm/-tim* o'rnida; II shaxs o'tgan zamon shaxs-son qo'shimchasi 2 ko'rinishda *-tɳg'/-tɳg'iz* bo'lishi; ravishdosh qo'shimchalari *-pan* va *-ɳp/-ip*; buyruq mayli shakli *-sig'* shaklida qo'llanishi.

Y lahja, ya'ni braxma hamda budda va xristian yozuvdagi manixeydan keyingi yodgorliklar quyidagi xususiyatlarga ega: a) qadimgi *b* va *g'>ɳ...* ga o'tishi, masalan *suv...* (*sub//sug'* o'rnida) «suv», *av...* (*ab* o'rnida) «ov»; ravishdoshning yangi qo'shimchasi *-ɳp/-ip* (qadimgi *-pan* o'rnida), istak mayli shakli *-g'ulug'* (*-sɳg'* o'rnida); d) III shaxs buyruq-istak mayli *-zun*; e) o'tgan zamon qo'shimchasi *-tɳɳ/-tɳɳɳz* (*-tɳg'/-tɳg'iz* o'rnida) qo'llangan.

Bundan tashqari, braxma yozuvdagi yozma yodgorliklar quyidagi xususiyatlarga ega: a) lab uyg'unligining ikkinchi va undan keyingi keng unlili bo'g'inlarda kelishi, masalan: *syzək* «toza»; *kəɳləmɳnəɳ* «ko'nglimning»; *olorop* «o'tirib», *tolo* «to'la»; b) so'z boshida va oxiridagi *q//g'* ning jarangsiz, sirg'aluvchi *x* ga o'tishi. Masalan, *xarɳ* «qari», *azɳx* «qoziq tish» v. b.

y~z~z... mosligining qoraxoniylar davridagi qo'llanilishini M. Koshg'ariy sinchkovlik bilan o'rganganligi haqida guvohlik beradi: *az...aq* «oyoq», qaz...ың «qayin» — chigillar tilida; *azaq* «oyoq» — bulg'orlar, suvarlar, yomiqlar tilida; *ayaq* «oyoq», *qayın* «qayin» — o'g'uzlar, yag'molar, to'xsilar, qipchoqlar, tatarlar, yabaqu qabilalari tillarida.

O'g'uz, uyg'ur, qirg'iz tillarining keyingi taraqqiyoti bu tillarning ancha kech shakllanganligini ko'rsatadi; mazkur tillar grammatik, lug'at fondi va fonetik tizimining qadimgi holatini saqlash bilan birga, ma'lum o'zgarishlarga ham yuz tutgan.

Qadimgi turk davrda tillar *d/t* belgili, *s/z* belgili va *y* belgili guruhlariga bo'lingan. Bu guruh tillari Xunn davrida *r* belgili bo'linganligi bilan ham farqlangan; bunday farqlanish hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

Qadimgi yozma yodgorliklar tillarining guvohlik berishicha, Qadimgi turk davrida *r* belgili tillar ko'p edi (bulg'orlar, hazarlar hamda qadimgi uyg'urlarning avlodlari tillari) va *d/t* ~ *s/z* belgili tillar (qadimgi qirg'izlar tili, qadimgi o'g'uzlar tili hamda qadimgi uyg'urlar tili) ham asosiy o'rinni egallari edi, *y* belgili tillar esa ancha kech, asosan, O'rta turk davrida, ya'ni X-XV asrlarda shakllandi.

SHunday qilib, O'rta turk davrida, ya'ni X asrgacha eng katta qabila ittifoqlari mavjud edi, ularning tillarini quyidagicha tartiblash mumkin: a) g'arbda — bulg'orlar (hazarlar bilan), qipchoqlar, o'g'uzlar hamda qarluqlar tili tarqalgan. Bu to'rt urug'-qabila ittifoqidan g'arbiy turk tarmog'iga kiruvchi hozirgi tillar yuzaga kelgan; b) sharqda — qadimgi uyg'ur, o'g'uz va qirg'izlar tillari mavjud edi, bu uch katta urug'-qabila ittifoqi tillaridan hozirgi g'arbiy turkiy tillar shakllandi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Qadimgi turkiy qaysi hududlarda tarqalgan edi?
2. Runiy yozuvi va uning yodgorliklarining eng asosiy belgilarini tushuntirib bering.
3. Uyg'ur yozuvi va uning yodgorliklari runiy yozuvi yodgorliklaridan qanday farqlanadi?
4. Qadimgi turkiy adabiy tilning fonetik tizimi hozirgi o'zbek tilidagidan qanday farq qiladi?
5. Qadimgi turkiy til hozirgi o'zbek adabiy tiliga meros qilib qoldirgan unsurlarni tahlil qilib ko'ring.

Zaruriy adabiyotlar:

1. U. Tursunov, B. O'rinboev, A. Aliev. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, "O'qituvchi", 1995.
2. A. Muxtorov, U. Sanakulov. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, "O'qituvchi", 1995.
3. G'. Abduraxmonov, A. Rustamov. Qadimgi turkiy til. Toshkent, "O'qituvchi" 1982.

4. N.Abdurahmonov. Qadimgi turkiy til. Toshkent, “O’qituvchi” 1989.

Qo’shimcha adabiyotlar:

1. Ш е р б а к А. М. Грамматический очерк языка тюркских текстов X—XIII вв. из Восточного Туркестана. М.—Л., 1961.

2. Radlov V. V. YArliki Temur-Kutluga i Toktamisha. ZVO. RAO. Tom III. Выр. 1—2. 1888, str. 2.

6-ma’ruza: O’RTA TURK YOKI TURKIY TILLARNING ASOSIY SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH DAVRI (X-XV)

Reja:

1. *O’rtaturk davrida tarixiy sharoit.*
2. *Bu davrning asosiy lisoniy xususiyatlari.*
3. *O’rtaturk davrida O’rta Osiyoda yaratilgan yozma yodgorliklar.*
4. *Bu davrda Sharqiy Evropada bitilgan yozma yodgorliklar.*
5. *Yozma yodgorliklarda shu davr lahjalarining saqlanishi.*

Tayanch tushunchalar: 1. O’rtaturk davri turkiy adabiy tilning shakllanish davri bo’lganligi. 2. Bu davrda O’rta Osiyoda ko’plab badiiy va ilmiy yozma yodgorliklar yaratilganligi. 3. Sharqiy Evropada qipchoq tili lahjasida bitilgan yozma obidalar. 4. O’rtaturk davri turkiy tillarning asosiy belgilari.

To’rtinchi davr o’rta turk davri bo’lib (X-XV), hozirgi turkiy tillarning shakllanib bo’lganligi bilan xarakterlanadi, ya’ni X-XV asrlarda hozirgi turkiy tillarning etnik chegarasi belgilandi. Bu davrni ikkiga ajratish mumkin: qoraxoniylar davri (X-XII) va mo’g’ullar davri (XIII-XV).

Tarixiy yodgorliklarning guvohlik berishicha, X asrga kelib Qoraxoniylar dinastiyasi yoki Ilikxon davlati himoyasida qarluq qabilalari ittifoqi kuchayib ketadi (Ettisuvda). Bu kuchli davlatning poytaxti oldin Balosog’unda keyin esa Qashqarda edi. Qoraxoniylarning ta’siri butun Sirdaryo havzasida, shuningdek, Somoniylar egalik qilgan Samarqand va Buxororing g’arbiga ham yoyildi. Qoraxoniylar davlati o’ziga mayda feodal uyg’ur knyazliklarini, Amudaryo-Sirdaryo oralig’ida yashovchi turkiy va eroniy xalqlarni birlashtirgan edi. U X asrdagi islom dinini qabul qilgan O’rta Osiyoda eng madaniylashgan turk xoqonligi edi. Qoraxoniylarning ikki markazi bor bo’lib, sharqda — Balosog’un va Qashqar, g’arbda — Sirdaryoning g’arbida edi. Bu davlat sharqda — uyg’ur qabilalarini va g’arbda — O’rta Osiyoda turkiy eroniy xalqlarni birlashtirgan edi. Bu

xalqlarning tillari o'sha davr turkiy adabiy tili xarakterini belgilar edi. Turkiy tilning rivoji qoraxoniylar davlatida fors adabiyotining ko'p tarqalishi uchun yordam berdi. SHarqiy adabiy tilning shakllanishi uchun omil bo'ldi, shuningdek, Xorazmda o'g'uz hamda qipchoq dialektining rivoji uchun ham muhim rol o'ynadi.

Bu davrning asosiy adabiy va lisoniy yozma yodgorligi buyuk filolog-olim M. Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turk»(1073-74) asari edi. M. Koshg'ariyning mazkur asari O'rta Osiyo turkiy xalqlarining lahjalaridagi til xususiyatlarini o'zida mujassam etgan. Asarda boy lisoniy materiallar mavjud bo'lishi bilan birga, etnografik ma'lumotlar ham ko'p. M. Koshg'ariyning shajarasiga ko'ra barcha turkiy xalqlar shimoliy va janubiy turkiy tillarga bo'linadi.

Shimoliy guruh tillari g'arbdan sharqqa tomon joylashish o'rniga qarab tartiblanadi: pecheneglar, qipchoqlar, o'g'uzlar, yomiqlar, boshqirdlar, basmillar, qaylar, yabaqlar, tatarlar, qirg'izlar; janubiy shaxobchaga kiruvchi tillar ham g'arbdan sharqqa qarab joylashish o'rniga ko'ra belgilanadi: chigillar, to'xsilar, yag'molar, ig'roqlar, charuqlar, jumullar, uyg'urlar, xitoylar va tabg'achlar. SHulardan saf turklari deb qirg'izlar, o'g'uzlar, qipchoqlar, to'xsilar, yag'molar, chigillar, ig'roqlar va charuqlar hisoblanadi. Jumul, bismil, qay, yabaqu, tatar, xitoy, tabg'achlar esa boshqa tilda gapiradilar deyiladi. O'g'uzlar va qipchoqlar tilida *y~j*, *m~b*, *t~d* almashinuvi so'z boshida, *q~x* alashinuvi esa boshqa holatlarda sodir bo'ladi, deb ko'rsatiladi. Qipchoq, to'xsi, yag'mo tillarida *ch* yo'q, uning o'rnida *sh* qo'llanadi. Bu holat hozirgi qozoq, qoraqalpoq, no'g'ay tillarida mavjud.

Ikkinchi katta yodgorlik qarluq-uyg'ur dialektida bitilgan YUusuf Xos Hojib Balosog'uniyning «Qutadg'u bilig» asari bo'lib, bu asar fors falsafiy axloqiy ruhidagi pandnomadir (1069/70); uning uch nusxasi bor: Vena, Qohira va Farg'ona yoki Namangan nusxalari, ularning biri qadimgi uyg'ur, ikkitasi arab alifbosida bitilgan nusxalar hisoblanadi.

Keyingi yozma yodgorlik XI asrda qoraxoniylar tasarrufiga o'tgan Sirdaryo hududidagi o'g'uz va qipchoqlar tiliga mansub bo'lgan Xo'ja Ahmad YAssaviyning «Devoni hikmat» (1166/67) asaridir. XII-XIII asrlarda Ahmad YUgnakiyning «Hibbatul haqoyiq» asari ham qipchoq-o'g'uz dialekti asosida bitilgan, unda uyg'ur tilining ham ta'siri sezildi. Temuriylar saltanati davriga turkiy tillar tarixida ikki traditsiya yashab keldi: birinchisi — sharqiy turkiy til (qarluq-uyg'ur), ikkinchisi — g'arbiy turkiy til (o'g'uz, qipchoq). SHarqiy turkiy tillar Rabg'uziyning «Qissasul anbiyo» asarida o'z aksini topdi (1310-1311). G'arbiy turkiy til traditsiyalari esa mo'g'ullar istilosidan keyin yaratilgan «Qissai YUusuf» (1232) asarida saqlanib qolgan.

Orolbo'yidagi Qoraxoniylar davlati tarkibini qarluqlar va uyg'urlar tashkil etgan edi, ular hozirgi Turkmaniston, O'zbekiston va Xorazmda yashovchi xalqlarning ajdodlari hisoblanadi.

XI asrga kelib Qoraxoniylar davlati o'zaro urushlar natijasida kuchsizlandi. Bu davrda o'g'uzlar va turkman qabilalari kuchayib ketib, qoraxoniylar davlatining Qashqar hududini o'zlariga bo'ysondiradilar.

SHu paytdan boshlab Saljuqiylar harakati ham asta-sekinlik bilan zo'raya bordi va XII asrdan boshlab o'z ta'sirini G'arbga hamda Janubga tomon o'tkaza boshladi. Natijada, ular Armaniston, Kichik Osiyoni bosib oldilar va keyinchalik yuzaga kelgan Usmoniylar davlatiga asos soldilar.

Qadimgi o'guz urug'larining hayoti va ularning tili haqida «Devonu lug'atit turk»dan tashqari «Kitobi dada Qo'rqud» hamda «O'g'uznoma» asarlari guvohlik beradi.

«Kitobi dada Qo'rqud» V. V. Bartol'dning fikricha, mo'g'ullar bosqinigacha Kavkazda yaratilgan.

O'g'uz tili yodgorliklariga qadimgi turk (usmonli turk) adabiyotining namunalaridan Sulton Valad (1226-1312) haqidagi saljuqiylar qo'shig'i, Oshiq Boshi (1271-1332) qo'shig'i, nasafiylar (1332) qo'shig'i, Burhoniddin Sivosiyning devoni (1345-1391), muallifi noma'lum to'plam (1451), Ibn Bibi yilnomasi (1421-1451) va boshqa keyingi davrlarda bitilgan yozma yodgorliklar kiradi. Bundan tashqari, Mahtumquli (1733-1782), SHabandi (1720-1799) larning yaratgan og'zaki asarlari ham o'g'uz tili yodgorliklari hisoblanishi bilan birga, hozirgi turman tili uchun haqiqiy zamin bo'lib xizmat qiladi.

XI asrda SHarqiy rus cho'llarida qipchoqlarning (kumanlar va poloveslar) harakati boshlandi. Pecheneglarning bir qismi qipchoqlar tomonidan tor-mor qilindi va g'arbga tomon siqib chiqarildi. Ikkinchi qismi o'z qabilasi nomini unutib, rus yodnomalarida bitilganidek, qorakulohlar deb ataldilar va shimolga siljishdi. Ular dastlab ruslar bilan birlashib qipchoqlarga qarshi kurashishishdi, keyin qipchoqlar tarafiga o'tib, ular bilan mustahkam ittifoq tuzishdi va qipchoqlar tarkibiga singib ketishdi.

Qipchoqlarning mo'g'ullar bosqinigacha bo'lgan tillari haqidagi ma'lumotlar juda kam. Bu haqdagi ma'lumtlarni ayrim toponimlardan, saqlanib qolgan ayrim so'z va iboralardan bilib olish mumkin.

Qipchoqlarning XI asrdagi tillarining holati haqida dastlab M. Koshg'ariy ma'lumot beradi. Rus yilnomalarida qayd etilgan antroponim va toponimlardan ham bu haqda bir qadar ma'lumotlar olish mumkin. SHuningdek, XIII asrda yaratilgan venger yilnomalari va afsonalarida ham qipchoqlarning X-XI asrlardagi holati haqidagi ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Qipchoqlarning mo'g'ullar bosqinigacha bo'lgan davrdagi tillari haqidagi ayrim dalillar qadimgi rus adabiyoti namunalarida, jumladan, «Igor' jangnomasi»da uchraydi.

Mo'g'ul qabilalarining harakati X asrdayoq boshlangan edi. Birinchi mo'g'ul qabilalari ittifoqini qoraxitoylar bilan gurxon qabilalari tuzdi. Qoraxitoylar, dastlab, SHimoliy Xitoyni o'zlariga bo'ysondirdilar, keyin, o'g'uzlarni g'arbga surib, Ettisuvga bostirib kirishdi. Bu davrda mo'g'ullar davlatining poytaxti CHu daryosining bo'yidagi Balosog'un edi. Ular O'rta

Osiyoga XII asr o'rtalaridan boshlab yurish qildilar. Mo'g'ullarga eng katta qarshilikni Xorazm xonligi ko'rsatdi. Xorazmshohlar qisqa vaqtga bo'lsa ham mo'g'ullarni o'z vatanlaridan surib chiqardilar. Keyinroq mo'g'ullar ularni ham mavh etishdi. Umuman, O'rta Osiyo va SHarqiy Evropa tarixida CHingizxon hukmronligi yangi davrni tashkil etadi.

Mo'g'ullar imperiyasining eng sharqida yashovchi xalq — bu qirg'izlar edi. Ular Tuluy ulusi tarkibiga kirib, XU-XU1 asrlarda Tyanь-SHanda istiqomat qilishar edilar. Qirg'izlar bu davrda kuchayib ketgan o'yrot (qalmiq) qabilalari bilan kurash olib bordilar. Keyinroq qirg'izlar Xitoy davlati tarkibiga kirdilar. Farg'onada yashovchi qirg'izlar, dastlab, Qo'qon xonligiga bo'ysunishdi, keyinroq esa Rossiya fuqaroligini qabul qilishdi.

XV asrda Uralda Sibir xonligi tuzildi. Uning tarkibiga Tobolь, Irtish va Eniseyda yashovchi o'yrot qabilalari kirishgan va dinastiyaning asosini tashkil etishgan.

XV-XVIII asrlar mo'g'ul feodallari bilan ayrim turk qabilalarining o'zaro urushlari davri bo'ldi. Bu davrda Jung'or xonligi eng kuchli davlat hisoblanar edi. Uning tarkibiga, N. A. Aristovning fikriga qaraganda, oltoy qabilalari, tukyu urug'larining avlodlari (hozirgi teleutlar), gao-gyuy yoki uyg'urlar, telengitlar, hozirgi kumanlar, chalkanlar, tuvalar kirgan. Bu xonlik tugagach, barcha qabilalar Rossiya davlatga bo'ysondilar.

SHarqiy turk qabilalari tillarining rivoji, bir tomondan, qirg'iz va oltoy tilining shimoliy lahjasiga, shor, xakas, tuva va yoqut tillarining leksik va morfologik jihatlarining shakllanishi uchun muhim rol o'ynaydi. Oltoy, turk va mo'g'ul qabilalarining o'zaro yaqin aloqalari mo'g'ul eposlarida hamda Oltoy turklarining qahramonlik dostonlarida kuylangan.

Oltoy va SHarqiy Sibir turkiy xalqlari tillarining arxaik belgilari, shuningdek qirg'iz tilini ham, ularning qahramonlik eposlarida ko'rinadi. Qirg'iz xalqining «Manas» asarida oltoy, xakas, tuva, yoqut xalqlarining qahramonlik afsonalarida, diniy, marosim qo'shiqlarida shu xalq tilining leksik, morfoligik, sintaktik xususiyatlari saqlanib qolgan.

Bu buyuk davlatning janubiy-g'arbiy va g'arbiy hududida mo'g'ullar bosqinidan keyin — XIII asrda CHig'atoy davlati, undan keyin XIV asrda markazi Samarqandda bo'lgan temuriylar davlati yuzaga keldi.

CHig'atoy davlati tarqoq feodal urug'-qabilalarni birlashtirib, eroniy va turkiy xalqlar hamkorligida O'rta Osiyoda markazlashgan davlat tuzdi. CHig'atoycha turkiyda Alisher Navoiy ijod qilgan.

Temuriylardan keyin (1370-1405) davlat tepasiga SHayboniyxon boshliq ko'chmanchi o'zbeklar kelishdi. O'zbeklar davlati keyinchalik ikkiga: markazi Samarqandda hamda ko'hna Urganchda bo'lgan davlatlarga bo'lindi. Undan keyin bu davlat uch xonlikka: Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklariga bo'linib ketdi. Bu xonliklar so'ng Rossiyaning vassaliga aylantirildi.

O'zbeklarning zaiflashuvi qozoqlar bilan doimiy dushmanlikni keltirib chiqardi, natijada XV asrda o'zbek xoni Abulxayrxonga qarshi qozoqlar o'z

xonligini tuzishdi. Keyinchalik bu xonlik uch o'rdaga: Katta O'rda, O'rta O'rda va Kichik O'rdaga bo'linib ketdi.

CHig'atoy va temuriylar davrida mashhur shoirlar etishib chiqishda va o'z asarlarini yaratishdi. XV asrda Durbek, Atoiy, Sakkokiy, Alisher Navoiy kabi allomalarning etishib chiqishi bu fikrning isbotidir. Durbek, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiylar she'riyati, Alisher Navoiyninshg «Muhokamatul lug'atayn», Boburning «Boburnoma», Muhammad Solihning «SHayboniynoma» (XVI), keyinroq Abulg'ozir Bahodirxonning «SHajarai turk», «SHajarai tarokima» (1603-1664) asarlari, Amir Umarxonning (1812-1821), SHermuhammad Munisning (1778-1829), Ogahiyning asarlari yaratildi.

Mo'g'ullar bosqinidan keyin turkiy tilli davlat bo'lmish quyi Volgada yoki Oltin O'rdada Jo'ji ulusi bunyod bo'ldi. Oltin O'rda XIII asrda Rossiya, bulg'orlar, Dashti Qipchoq, Qrim, SHimoliy Kavkaz, SHimoliy Xorazm davlatlari tarkibiga almashinib o'tib turdi. Feodal tuzim davrida ham adabiyot to'xtab qolmadi. Bu adabiyot dastlab ikki yozuvda — uyg'ur va arab yozuvida, XV asrning o'rtalaridan keyin faqat arab yozuvida bitildi.

XV asrda Oltin O'rda xonligi uch xonlikka: Qrim xonligi (1420), Qozon xonligi (1433) va Astraxan xonligi (1466)ga bo'linib ketdi. Bungacha bu hududda ko'chmanchi o'zbek, mang'it va no'g'ay urug'lari yashar edi. XVII asr boshlarida turli turkiy qabilalaridan iborat No'g'ay o'rdasi ham uch o'rdaga ajraldi. Ularning biri Orol dengizi yaqinidagi cho'llarda joylashgan edi. Keyinchalik bu erlarda yashaydigan xalqlarning (dastlab qorabo'rkilar deb nomlangan) avlodlari qoraqalpoqlar deb ataldi. No'g'aylar esa Qrim, SHimoliy Kavkaz cho'llariga ko'chib ketishdi. SHimoliy Kavkazda no'g'aylar bilan birga qo'miqlar, bolqorlar, qorachoylar va qipchoq qabilalarining bir qismi ham yashar edi.

Oltin O'rdada jonli til bilan adabiy til katta tafovutlarga ega edi. Xorazmda esa o'g'uz-qipchoq urug'lari yashar, ularning adabiy tili qarluq lahjasi asosida rivojlangan bo'lib, bu adabiy til o'zida o'g'uz unsurlarini, oz bo'lsa-da qipchoq unsurlarini mujassam etgan edi. G'arbda — Oltin O'rda xonligiga yaqin hududlarda esa qipchoq qabilalari hukmron edi. Bu erdagi adabiy tilga o'g'uz lahjasining kuchli ta'siri singgan bo'lsa-da, adabiy til uchun asos qipchoq lahjasi hisoblanar edi. Bundan tashqari, XVI asr G'arbiy Oltin O'rda adabiy tilining xususiyatlarini aniqlash uchun uyg'ur yozuvida bitilgan xonlar va ularning amaldorlari tomonidan yozilgan rasmiy hujjatlarning hamda yorliqlarning, shuningdek, ko'pgina muhrlardagi yozuvlarning ahamiyati salmoqlidir.

Oltin O'rda tarkibiga kiruvchi madaniy yodgorliklar ikkiga bo'linadi: birinchisi — SHarqiy yodgorliklar, ya'ni Xorazm va unga qo'shni bo'lgan viloyatlar yodgorliklari; ikkinchisi — g'arbiy yoki janubiy rus cho'llari, ya'ni Qrim va undan ham g'arbda joylashgan Misr yodgorliklari. Mo'g'ullar bosqinidan so'ng qipchoqlar janubiy rus cho'llaridan Misrga surgun qilingan edi. U erda — Misr sultonlari hududida mamluk gvardiyasi Mamluklar davlatini tuzishgan edi.

Oltin O'rda yozma yodgorliklarining birinchi guruhiga «Muhabbatnoma» (1353) asari mansub. Bu asar Xorazmda yozilgan va o'zida o'g'uz-qipchoq lahjalarining belgilarini mujassam etgan. Ibn Muhannaning «Lug'at»i esa P. M. Melioranskiyning fikricha, XIII asrda SHimoliy Eronda ozarbayjon tilida, S. E. Malovning ta'kidlashicha esa uyg'urlar tomonidan Turkistonda bitilgan.

Qutbning «Xusrav va SHirin» (XIII) asarining Misrda XIV-XVI asrlarda ko'chirilgan nusxasi Parijda saqlanadi. Oltin O'rda yodgorliklariga tegishli qipchoq (poloves) tilining yozma obidalariga arman yozuvida bitilgan yuridik hujjatlarni ham kiritish mumkin. Qipchoq tilining eng qadimgi yozma yodgorligi deb 1245 yilda T. Xoutsm tomonidan ko'chirilgan turkcha-arabcha lug'at hisoblanadi.

Qadimgi turkiy tilning mo'g'ullar davri xususiyatini o'zida aks ettirgan eng katta asar — lotin-fors-qipchoq tillari lug'ati hisoblanmish «Codex Cumanicuq» (XIII) bo'lib, V. Bangning fikriga qaraganda, bu asar janubiy rus cho'llarida Ioann monastrida , D. Rasovskiyning fikricha esa Qrim Italiyaning koloniyasi bo'lgan davrda Solxat shahrida Oltin O'rda xonining noibi tomonidan yozilgan.

1313 yilda bitilgan Abu Hayyon lug'atida o'g'uz tilining unsurlari kuchli singgan. Bu asar arab alifbosida XV asrda Jamoliddin at-Turkiy tomonidan qayta ko'chirilgan. Arabcha-qipchoqcha lug'at hisoblangan bu asar 1928 yilda Kilisli Rifat tomonidan Stambulda nashr qilingan.

Nihoyat, qipchoq tilining xususiyatlarini o'zida saqlab qolgan so'ngi asarlar, XIII-XVIII asrlarda rus yilnomalarida qayd etilgan, qipchoqcha(poloves)-tatarcha lug'atlar hisoblanadi.

X-XV asrlar turkiy xalqlarning mayda-mayda qabilalar guruhlariga bo'linishi, tillarining esa bir qadar o'zgarishlarga yuz tutishi bilan xarakterlanadi, ya'ni: a) g'arbda — qipchoqlarga (qipchoq-bulg'or, qipchoq-poloves , keyinroq shakllangan qipchoq-no'g'ay qabilalari ittifoqiga); o'g'uzlarga (o'guz-bulg'or, o'g'uz-saljuq, o'g'uz-turkman qabilalari ittifoqiga); sharqda — qirg'iz-qipchoq, xakas, yoqut, tuba (tuva-karagas) va oltoy qabilalariga bo'linganligi bilan xarakterlidir.

Turkiy tillar o'zining uzoq tarixi davomida turli-tuman o'zgarishlarni boshidan kechirgan holda rivojlanib bordi. Qadimgi turkiy tildagi *d/t* mosligi bu davrga kelib y ga o'z o'rnini berdi. *d/t* hozir G'arb va SHarqning chekka o'lkalarida saqlanib qolgan. Masalan, yoqut, tuva, karagas, chuvash tillari shular jumlasiga kiradi.

O'rta turk davri turkiy tillarning undoshlar birikuvining mosligi, diftonglarning hamda cho'ziq unlilarning paydo bo'lish belgisiga ko'ra ikki katta guruhga bo'linadi:

ag'>av>oo//uu;

og'>uv//uy>uu:

eg>ev//iy>eo;

og>yy//yy;

yg'>uv//uy:

ug'>uv>uu>u>ы;
ig>iy>ii>i;
yg>yuv//yy.

G'arbda, ayniqsa bulg'or va qipchoq tillarida, qadimgi *ag'*, *og'*, *og'*, *ug'*, *ig*, *yg* birikmalari unutildi, birikmalar *g'/g* ning unlilar orasida cho'ziq unlilarga aylanishiga o'tdi. SHarqda — qiriz-qipchoq guruhi tillarida (qirg'iz va oltoy tillarida) esa bu birikmalar qisman o'zgarishga yuz tutdi.

O'rta turk davrida hozirgi turkiy tillar har tomonlama shakllangan bo'lsa ham, yangiturk davrida bu tillar meъyorlashdi; ularning fonetik, leksik, va grammatik xususiyatlari mustahkamlandi. Biroq turkiy tillar orasidagi farqlanish boshqa yo'nalishlarda davom etdi. G'arbda quyidagi katta o'rug'-qabila tillari: bulg'orlar, hazarlar, qipchoqlar, o'g'uzlar, o'g'uzlar, qarluqlar; SHarqda esa: uyg'urlar, yoqutlar, xakaslar, qirg'izlar tillari shakllandi. X-XV asrlarda qipchoqlar tili ikkiga bo'lindi: 1) qipchoq-bulg'or tili: bu tildan XV asrdan keyin tatar va boshqird tillari kelib chiqdi; 2) qipchoq-poloves tili: bu tildan mo'g'ullar bosqinidan keyin ikki guruh tillari paydo bo'ldi: a) qipchoq-poloves tillari (bu tildan keyinchalik qaraim, qo'miq, va qorachoy-balqar tillari kelib chiqdi); b) qipchoq-no'g'ay tillari (bu tildan no'g'ay, qozoq, qoraqalpoq tillari va o'zbek tilining qipchoq lahjasi shakllandi).

O'g'uz guruhi tillari XV asrda uch tarmoqqa bo'lindi: 1) o'g'uz-bulg'or kichik guruhi (bu tildan gagauz va bolqon turklari tillari kelib chiqdi); 2) o'g'uz-turkman kichik guruhi va 3) o'g'uz-saljuq kichik guruhi tillari.

Qarluq guruhi tillar X-XIV asrlarda qarluq-xorazm va qarluq-uyg'ur singari ikki katta tilga bo'lindi.

Bu davrda sharqiy turkiy tillar va ularning tillari orasida juda murakkab jarayon yuzaga keldi. Agar uyg'ur-tukyu va yoqut kichik guruhi tillari o'zining qadimgi holatini saqlab qolganligi bilan xarakterlansa, xakas guruhi tillari genetik jihatdan uyg'ur-o'g'uz va qirg'iz-qipchoq guruhi tillari bilan aloqadorlikda rivojlanganligi bilan diqqatga sazovorlik kasb etadi. Hozirgi qirg'iz va oltoy tillari (janubiy lahjalari) genetik jihatdan qadimgi qirg'iz tilidan kelib chiqqan, ular o'zlarining shakllanish jarayonida qipchoq tillari bilan ham bevosita aloqada bo'lgan.

O'rta turk davrida turli tarixiy voqealar ta'sirida turkiy tillar boshqa tillar bilan ham aralashib, qorishib bordi. G'arbda, bu davrning ibtidosi bo'lgan qoraxoniylar davrida, islom dini qabul qilindi, buning oqibatida, birinchidan, g'arbiy turkiy tillar bilan, ikkinchidan, arab, fors va so'g'd tillari bilan aralashish jarayoni yuz berdi. Turkiy tillar o'z asosini saqlagan holda arab va fors tillaridan ko'pgina so'zlarni o'zlashtirishi bilan birga, bu tillardan bir qancha fonetik, morfologik birliklarni ham qabul qildi. Ikkinchi bosqich (XIII-XV) mo'g'ullar bosqini bilan bog'liq bo'lib, g'arbiy turkiy tillarga mo'g'ul tilining ta'siri kam bo'lgan bir paytda, sharqiy turkiy qabilalar mo'g'ul qabilalari bilan aralashib ketishdi.

SHarqiy turkiy tillarga arab va fors tillarining ta'siri etib bormadi, biroq mo'g'ul tilining kuchli ta'siri hukmron bo'lib qoldi. Bu ta'sir XIII-XV asrlargacha davom etdi. G'arbiy turkiy tillarda mavjud bo'lmagan bu aloqadorlik hozirgi tuva, karagas, xakas, shor, olty va bir oz qirg'iz tilining leksikasida o'z aksini topgan. G'arbiy turkiy tillarda bor bo'lgan bunday unsurlar oltoy davridan meros hisoblanadi. CHunki u paytda turkiy tillar bilan tungus-manchjur va mo'g'ul tillarining leksik qatlamlari hali ajralmagan edi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

- 1.O'rtaturk darida O'rta Osiyo, Sibir va SHarqiy Uvropa turklari yashaydigan hududlarda tarixiy sharoit qanday edi?
- 2.Bu davrning asosiy lisoniy xususiyatlari haqida tushuncha bering.
- 3.O'rtaturk davrida O'rta Osiyoda qanday yozma yodgorliklar yaratilgan?
- 4.Bu davrda SHarqiy Evropada bitilgan yozma yodgorliklardan "Codekuq cumanikuq" ning yaratilish tarixi haqida nimalar deya olasiz?.
- 5.YOzma yodgorliklarda shu davr lahjalarining saqlanganligini qanaday dalillar bilan isbotlash mumkin?

Zaruriy adabiyotlar:

1. Baskakov N.A. Vvedenie v izuchenie tyurkskix yazykov. M., "Vysshaya shkola", 1969, 24—36-betlar.
- 2.T.Jumayev. Turkiy tillarining tarixiy qiyosiy tahlili. Qarshi, "Nasaf", 2005, 4-10-betlar.
- 3.Проблемы монгольских языков. Новосибирск, "Наука", 1988.
- 4.Gadjieva N.Z., Serebrennikov B.A. Sravnitel'no-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazykov. M.; Nauka, 1986.

Qo'shimcha adabiyotlar:

- 1.Voprosy opisatel'nykh pamyatnikov narodov SSSR. M., L. 1955.
- 2.Issledovanie po sravnitel'no grammatika tyurkskix yazykov. M., -L. 1955.
- 3.Malov S.E. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. M., 1951.
- 6.Borovkov A.K. Leksika Sredniazitskogo tefsira X1-X111 vv. M., 1963.

7-ma'ruza: YANGI TURK DAVRI YOKI XALQ TILLARINING RIVOJLANISHI VA SHAKLLANISHI (XV-XX)

Reja:

- 1.Bulg'or guruhi tillarining rivojlanishi va shakllanishi.
- 2.O'g'uz guruhi tillarining tarkib topishi.
- 3.Qipchoq guruhi tillarining tarmoqlarga bo'linishi.
- 4.Qarlur guruhi tillarining boshqa guruh tillaridan ayricha rivoj topishi.

Tayanch tushunchalar: 1.Bulg'or guruhi tillarining qadimgi bulg'or, qadimgi hazar va hozirgi chuvash tillariga bo'linishi. 2.O'g'uz guruhi tillarining o'g'uz-turkman, o'g'uz-bulg'or va o'g'uz-saljuq kichik guruhi tillari tarzida rivoj topishi. 3.Qipchoq guruhi tilarining qipchoq-poloves ,

qipchoq-bulg'or hamda qipchoq-no'g'ay tillariga ajralgan holda rivojlanishi.
4. Qarluq guruhi tillaridan o'zbek va yangi uyg'ur tillarining kelib chiqishi.

YAngiturk davri hozirgi turkiy xalqlarning hamda turkiy tillarning to'liq shakllanishi va ular orasidagi lisoniy tafovutlarning davom etishi, ba'zi hollarda urug'-qabila ittifoqi tillarining yaqinlashuvi mavjud bo'lganligi bilan xarakterlanadi.

G'arbda bu davrda chuvash urug'-qabilalari ittifoqi bitta chuvash tiliga birlashdi. Qipchoq-bulg'or qabilalari ikki katta xalqqa — tatar va boshqirdlarga bo'lindi. Qipchoq-poloves ittifoqidan, bir tomondan, qipchoq-no'g'ay tillari: qozoq, no'g'ay, qoraqalp (XV) xalqlariga, ikkinchi tomondan, qaraim, qo'miq, qorachoy-balqar, qrim-tatarlari xalqlariga ajraldi. YAngi turk davrida xalq tillari yuzaga keldi. Gagauzlar va ularga qardosh bo'lgan mayda guruh hisoblangan bolqon turklari o'g'uz-bulg'or elatidan, shuningdek, o'g'uz elatidan turkmanlar xalq sifatida shu davrda birlashishdi. Undan keyinroq ozarbayjon va turk millatlari xalq sifatida shakllandilar. Qarluq urug'laridan XV-XX asrlarda ikki xalq — o'zbek va yangi uyg'ur xalqlari asta-sekinlik bilan tashkil topishdi.

Bu paytda SHarqda sharqiy turkiy qabilalar va ularning tili yuzaga keldi. Qadimgi uyg'urlarning avlodlari o'g'uzlar, uyg'urlar va qirg'izlar xalq sifatida uch til birligi sifatida paydo bo'ldi: 1) uyg'ur-tukyular (qadimgi uyg'ur va qadimgi o'g'uz tillari asosidan tashqari tuva hamda karagas tillariga bo'linadi); 2) yoqut tilidan faqat hozirgi yoqut tili; 3) xakas tilidan hozirgi xakas tilining lahjalari: shor tili, oltoy tilining shimoliy dialekti, ba'zi mayda tillar — qamasi, kyuerik, sariq uyg'ur tillari yuzaga keldi. Bu tillar boshqa katta qabila ittifoqlarining ajralishidan yoki boshqa tilda gapiruvchi xalqlar o'zga tilni o'zlashtirib olishi natijasida (masalan, qamasi tili) paydo bo'ldi. Nihoyat, qirg'iz-qipchoq tillari qadimgi qirg'iz tilidan, keyinroq esa qirg'iz, oltoy (oltoy tilining janubiy dialekti) kelib chiqdi.

YAngi turk davrida turkiy tillar bilan rus tilining aloqadorligi kuchaydi. Rus tilining ta'siri natijasida turkiy tillarning grammatik qurilishi, lug'at boyligi va fonetik qurilishida bir qancha o'zgarishlar yuz berdi.

G'arbiy turkiy tillarga rus tilining ta'siri O'rta turk davridayoq boshlangan edi. SHarqiy turkiy tillarga esa bu ta'sir ancha kech, taxminan XVII asrdan boshlandi.

YAngiturk davri hozirgi turkiy xalqlarning hamda turkiy tillarning to'liq shakllanishi va ular orasidagi lisoniy tafovutlarning davom etishi, ba'zi hollarda urug'-qabila ittifoqi tillarining yaqinlashuvi mavjud bo'lganligi bilan xarakterlanadi.

G'arbda bu davrda chuvash urug'-qabilalari ittifoqi bitta chuvash tiliga birlashdi. Qipchoq-bulg'or qabilalari ikki katta xalqqa — tatar va boshqirdlarga bo'lindi. Qipchoq-poloves ittifoqidan, bir tomondan, qipchoq-no'g'ay tillari: qozoq, no'g'ay, qoraqalp (XV) xalqlariga, ikkinchi tomondan, qaraim, qo'miq, qorachoy-balqar, qrim-tatarlari xalqlariga ajraldi. YAngi turk davrida xalq tillari yuzaga keldi. Gagauzlar va ularga

qardosh bo'lgan mayda guruh hisoblangan bolqon turklari o'g'uz-bulg'or elatidan, shuningdek, o'g'uz elatidan turkmanlar xalq sifatida shu davrda birlashishdi. Undan keyinroq ozarbayjon va turk millatlari xalq sifatida shakllandilar. Qarluq urug'laridan XV-XX asrlarda ikki xalq — o'zbek va yangi uyg'ur xalqlari asta-sekinlik bilan tashkil topishdi.

Bu paytda SHarqda sharqiy turkiy qabilalar va ularning tilari yuzaga keldi. Qadimgi uyg'urlarning avlodlari o'g'uzlar, uyg'urlar va qirg'izlar xalq sifatida uch til birligi sifatida paydo bo'ldi: 1) uyg'ur-tukyular (qadimgi uyg'ur va qadimgi o'g'uz tillari asosidan tashqari tuva hamda karagas tillariga bo'linadi); 2) yoqut tilidan faqat hozirgi yoqut tili; 3) xakas tilidan hozirgi xakas tilining lahjalari: shor tili, oltoy tilining shimoliy dialekti, ba'zi mayda tillar — qamasi, kyuerik, sariq uyg'ur tillari yuzaga keldi. Bu tillar boshqa katta qabila ittifoqlarining ajralishidan yoki boshqa tilda gapiruvchi xalqlar o'zga tilni o'zlashtirib olishi natijasida (masalan, qamasi tili) paydo bo'ldi. Nihoyat, qirg'iz-qipchoq tillari qadimgi qirg'iz tilidan, keyinroq esa qirg'iz, oltoy (oltoy tilining janubiy dialekti) kelib chiqdi.

YAngi turk davrida turkiy tillar bilan rus tilining aloqadorligi kuchaydi. Rus tilining ta'siri natijasida turkiy tillarning grammatik qurilishi, lug'at boyligi va fonetik qurilishida bir qancha o'zgarishlar yuz berdi.

G'arbiy turkiy tillarga rus tilining ta'siri O'rta turk davridayoq boshlangan edi. SHarqiy turkiy tillarga esa bu ta'sir ancha kech, taxminan XVII asrdan boshlandi

Mavzuni mustahkamlash savol va topshiriqlar:

1. Bulor guruhidan qaysi tillar kelib chiqdi?
2. O'g'uz guruhi tillarining tarkib topishi nima uchun uchun uch kichik guruh asosida sodir bo'ldi?
3. Qipchoq guruhi tillarining tarmoqlarga bo'linishi uchun qanday ob'ektiv va so'b'ektiv sabablar ta'sir qildi?
4. Qarluq guruhi tillari nima uchun boshqa turkiy tillardan (uyg'unlikning unutishi bilan) farli tarzda taraqqiy topdi?

Zaruriy adabiyotlar:

1. Baskakov N.A. Vvedenie v izuchenie tyurkskix yazykov. M., "Vysshaya shkola", 1969, 24—36-betlar.
2. T.Jumayev. Turkiy tillarining tarixiy qiyosiy tahlili. Qarshi, "Nasaf", 2005, 4-10-betlar.
3. Voprosy grammatiki tyurkskix yazykov. Alma-ata, 1955.
4. Gadjeva N.Z., Serebrennikov B.A. Sravnitel'no-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazykov. M.; Nauka, 1986.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Malov S.E. *Yazyk jyoltix uygurov. (Teksty i perevody)*. M., Izd, "Nauka", 1967.
2. *Issledovanie po sravnitel'no grammatika tyurkskix yazykov*. M., -L. 1955.
3. Malov S.E. *Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti*. M., 1951.
6. Щербак А.М. *Ocherki po sravnitel'noy morfologii tyurkskix yazykov* (Imya), L., 1977.

8--ma'ruza: **TURKIY TILLARNING G'ARBIY XUNN TARMOG'I**

Reja:

1. Turkiy tillarning G'arbiy Xunn tillarning umumiy xususiyatlari.
2. Bulg'or guruhi tillarining kelib chiqish tarixi.
3. Bulqor guruhi tillarining kelib chiqishi.
4. Qadimgi bulg'or tilining turixi va umumiy xususiyatlari.
5. Qadimgi hazar tilining kelib chiqishi hamda uning lisoniy xususiyatlari.
6. Hozirgi chuvash tili.

Tayanch tushunchalar: 1. Turkiy tillarning G'arbiy Xunn tarmog'ining SHarqiy tarmog'idan farqli tomonlari. 2. Bulg'or tillarining boshqa turkiy tillardan hudud jihatidan va urug'-qabilalar tarkibi jihatidan farqlanishi. 3. Bulg'or guruhi tillarining qadimgi bulg'or va qadimgi hazar tillaridan shakllanganligi. 4. Hozirgi chuvash tilining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari.

G'arbiy Xunn tarmog'i tillari qadimda sharqdan g'arbga siljigan urug'-qabila tillaridan tarkib topgan bo'lib, bu urug'-qabila ittifoqi tillarini to'rtga bo'lish mumkin: 1) bulg'orlar va bulg'or guruh tillari; 2) o'g'uzlar va o'g'uz tillari guruhi; 3) qipchoqlar va qipchoq guruhi tillari; 4) qarluqlar va qarluq guruhi tillari. G'arbiy Xunn tarmog'i tillari SHarqiy Xunn tarmog'i tillaridan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:

fonetik jihatdan:

a) qadimda qo'llangan *z, d, t* o'rnida *y* qo'llanishi bilan: *ayaq* (*adoq//azaq//atax* o'rnida) *ayaq*; b) *b-p, d-t, k-g, s-z* unli va undoshlar o'rni almashinuvi; v) *x, v, h* undoshlarining farqlanishi;

l e k s i k a s o h a s i d a — arab va forsha so'zlarning ko'p va aksincha, mo'g'ulcha so'zlarining kamligi;

grammatika sohasida:

a) qo'shma gap qoliplarining taraqqiy qilganligi, bog'lovchilarning ko'pligi va o'zlashma so'zlarning mavjudligi;

b) soʻz birikmalari aniqrogʻi, otli birikmalarning hamda feʼl shakllarining kamligi.

Bu erda SHarqiy va Gʻarbiy Xunn tillarining umumiy farqli tomonlari keltirildi. Bundan tashqari, Gʻarbiy Xunn tarmogʻiga kiruvchi har bir guruh tillari oʻziga xos, alohida xususiyatlarga ham ega.

BULGʻOR GURUHI TILLARI

Bulgʻorlar oʻz tillari bilan bizning zamonamizga faqat chuvash xalqi va ularning tilinigina meros qilib qoldirmasdan, balki boshqa oilaga mansub tillar va qabilalar: slavyan, fin-ugor tillari, shuningdek, bir qancha turkiy qabilalari (oʻgʻuzlar, oʻzlar, qipchoqlar yoki poloves lar) tillarining shakllanishida oʻz taʼsirini oʻtkazganliklari bilan ham eʼtiborga loyiq hisoblanadilar.

Hozirgi chuvash tilining lugʻat tarkibi va grammatik qurilishi oʻzida turkiy, slavyan fin-ugor tillarining xususiyatlarini jamlagan. Bu umumiylikning belgilari genetik jihatdan yaqin boʻlgan venger tilida, tatar, boshqird tillarida saqlanib qolgan.

Bulgʻor guruhiga mansub qadimgi bulgʻor va hazar tillari va hozirgi chuvash tili V-XIV asrlarda Volgaboʻyida qadimgi boʻlgʻor qabilalarining tillari asosida shakllandi. Qadimgi tillar boʻlmish bulgʻor va hazar tillari haqidagi maʼlumotlar juda kam. Saqlanib qolgan maʼlumotlar ham ayrim toponim, antraponim va oykonimlarda, shuningdek, Vzantiya, Evropa, Arab, Arman yilnomalarida koʻrinadi. Bulgʻor tilining xususiyatlari hozirgi chuvash tiliga yaqin keladi. Bu yaqinlik qabrtoshlaridagi yozuvlarni, venger yilnomalaridagi hamda slavyan, bulgʻor nomlaridagi ayrim soʻzlarini solishtirish orqali aniqlangan. Hazar tili haqida maʼlumot beruvchi manbalar bundan ham kam. Bu til haqidagi eng aniq maʼlumotlar hazar tilida nomlangan shaharlar otlarida aks etadi. CHunonchi: Itil, Semader, Belenjer, Sarkel. Bu haqda qadimgi arab va Evropa yozma yodgorliklari maʼlumot beradi.

Bu tilning koʻpgina xususiyatlari hozirgi chuvash tilida yorqin saqlangan. Qipchoq tiliga majbur boʻlgan qaraim, tatar va boshqird tillarida, shuningdek, oʻgʻuz tiliga mansub boʻlgan gagauz tillarida hazar tilining ayrim belgilari saqlanib qolgan.

Bulgʻor guruhiga kiruvchi tillar boshqa tillardan quyidagi asosiy belgilari bilan farqlanadi:

f o n e t i k a d a:

- a) ikki lablangan va ikki lablanmagan unlining toʻliq shakllanmaganligi;
- b) soʻz boshida jarangli undoshlarning orttirilishi: *yert* (ert oʻrnida «hayda»), *yekev* (egev oʻrnida «egov»), *yer* (iz oʻrnida); *vut* (ot oʻrnida «olov»), *vyran* (oryn oʻrnida «oʻrin»);
- v) soʻz oxiridagi *z* boshqa tillardagi *r* bilan almashinadi (rotatsizm) *çävar* (ogʻiz), *pär* (buz) *xër* (qiz), *kër* (kuz);

g) *s* undoshining mavjudligi, bu undosh boshiga turkiy tillardagi *y~j~ж~db~ch* o'rnida, qo'llanadi. Boshqa turkiy tillaridagi *r* ning almashinib qo'llanishi: M: *ura* (adaq~azaq~ ayaq);

e) boshqa turkiy tillardagi *sh~s* o'rnida *l* qo'llanishi M: *xēl* («qish» *qyls* o'rnida, *alēk* («eshik» (*esik* o'rnida);

l e k s i k a d a :

Boshqa tillarda mavjud bo'lmagan so'zlarning borligi: Masalan: *çын* «odam», *sāmsa* «burun», *kaçan* «bel», *arām* (ayol), *çěčě* (pichoq), *tulā* (bug'doy).

Grammatika, morfologik, sintaktik sathlarning boshqa turkiy tillardan tubdan farq qilishi.

QADIM TILLAR

BULG'OR TILI

Bulg'or tili Volga va Kama daryolari bo'yida VI-VIII asrlarda mavjud bo'lgan Bulg'or davlatining tilidir. Bu davlat o'z tarkibiga uyg'ur va boshqa urug'-qabilalarni birlashtirgan. Xususan, uturg'uzlar, quturg'urlar, ug'urlar, saraug'urlar, onoo'g'urlar. SHuningdek, sabirlar (suvarlar), avarlar kabi Xunn davlati tarkibida bo'lgan urug'larni birlashtirgan edi.

Bulg'or tili haqidagi ma'lumotlar ayrim so'z shaklida, aniqrog'i, ba'zi nomlarda saqlanib qolgan. Bulg'or urug'lari haqidagi ma'lumotlar juda kam. Hozirgi chuvash tilining bir tarmog'i bo'lgan sabirlar (suvorlar) tilidan bir necha so'z saqlanib qolgan. Masalan, Sabir (qabila nomi), Iliger (*ilig* «xon»+ *er* «odam») Blax yoki Balax = turkcha *malak* «bo'yvol» va xonlar nomi Bolmax, Konulsiz. Avarlar tilida qabila nomidan boshqa oxiri bir xil tugaydigan qabila nomlari ham mavjud: suvar, hazar, tatar. Bu haqda hech qanday ma'lumot saqlanmagan. Ko'pgina so'zlar turkiy tillar guruhiga xos xususiyatdan tashqari Volga va Dunay bulg'orlari tiliga xos jihatlarga ham ega, ular esa hozirgi chuvash tiliga yaqin turadi.

Quyida bulg'or tilining eng yorqin namunilari keltiriladi. Bu Volga bulg'orlari tiliga xos so'zlar qabrtoshlarida va boshqa yodgorliklarda saqlanib qolgan.

Originalda	Transkripsiya	CHuvash tilidagi muqobili	O'zbek tilida
جال	<i>ḡal</i>	<i>çul</i>	« <i>yil</i> »
جور	<i>ḡyŕ</i>	<i>çr</i> (<i>çr</i>)	« <i>yuz</i> »
جيرم	<i>ḡûr(û)m</i>	<i>çirûm</i> (<i>çirm</i>)	« <i>yigirma</i> »
جيات	<i>(û)yet</i>	<i>çichchû</i> (<i>çichch</i>)	« <i>etti</i> »
جيارمنش	<i>(û)yerm(û)nsh</i>	<i>çirûmmûsh</i>	« <i>yigirmanchi</i> »
ى	<i>t(û)m(û)rech</i>	<i>timûrçû</i> (<i>timrç</i>)	« <i>temirchi</i> »
تمراج			

Bundan tashqari, turli manbalarda quyidagi bulg'or so'zlari ham saqlanib qolgan¹.

1. Unvon, mansab, tabaqa nomlari: *qag'an, xan, bag'atur, erar, malatır, era, tari, kav'xan, tarqan, tudun*.

2. Urug' nomlari: *CHaqar, Kuyvar, Yupan, Oxsun, Kurigiz, Bulg'or*.

3. SHaxs ismlari (xonlar nomi): *YAbg'uxon, Isbul, Ichirgu bo'yla, Kormishos, Kubrat (583-642), Isperix// Asperux (679-701), Krum// Kurum (803-814), Omurtag (814-831), Tektem, Sever, Svinex, Teles, Tervel, Umor, Bayan*.

4. Muchal nomlari: *dvansh (<tavıshqan) «sichqon yili», dilom (<dylan, chuv. çülen (çēlen) «ilon yili», mor (<mo'g'. morin) «ot yili», tox (<toox) «tovuq yili», quchi (qo'y yili), daxs (<toħuz) «to'ng'iz yili».*

5. Oy nomlari:

- 1) *alem (<ilki em), «birinchi oy»;*
- 2) *shegor alem, «ikkinchi oy»;*
- 3) *vechem (qiyos. chuv. viççû (viçç) «uchinchi oy»;*
- 4) *tutom (qiyos. chuv. tvatım (tvatm) «to'rtinchi oy»;*
- 5) *bexti (<besht) «beshinchi oy»;*
- 6) *altom (qiyos. chuv. ulttı) «oltinchi oy»;*
- 7) *shextem (qiyos. chuv. sakkır) «sakkizin oy»;*
- 9) *tvirem (qiyos. chuv. txxr (txxr) «to'qqizinchi oy»;*
- 10) *eni alem (qiyos. chuv. vunı (vun) «o'ninchi oy»;*
- 11) *ver eni alem (qiyos. vunpūr (vunpr) «o'n birinchi oy»;*

Bulg'or tilining fonetik dalillari bu tilining nafaqat *z~sh*, balki *r~l* jihatidan farq qilganligini ko'rsatadi. Qiyoslang: *هير hir* «qiz» (boshqa tillarda *qız//qıs*), bu jihatdan qadimgi bo'lg'or tili hozirgi chuvash tiliga yaqin turishini isbot etadi. Hozirgi chuvash tili tartib sonlarning ikki shaklining borligi bilan ham farqlanadi, masalan, *جيارمنشی j(û)yirm(û)nsh* «yigirmanchi» va *بيالم b(û)yel(û)m* «beshinchi»

HAZAR TILI

Hazar tili Volga va Don daryolari oralig'ida yashagan hazar xalqining tilidir. Hazarlar eramizdan oldingi III asrgacha mavjud bo'lib, hududi Tinch okeanidan SHarqiy Evropagacha cho'zilgan Xunnlar ittifoqiga kiruvchi turkiy va noturkiy urug' qabilalardan iborat edi.

Hazarlar ittifoqi tarkibiga (qadimgi vzantiya, arab, evrey yozuvlarida qayd etilishicha, X asrgacha quyidagi urug' qabilalar kirgan. *Hazar, /kozor. Avar, /avor/, Avaz/ /Abaz, Bulg'or, Savir// Sabir, O'g'uz (<Og'uz), Tarna, Tilmats/ Tilmas, Tavris, Yanur, Bizal, Patsinak, Akatsir, Altitsiagir*.

Urug' nomlarini analiz qilinsa, hazarlar tuzilishi aralash urug'lardan iborat bo'lganiga aniq bo'ladi. Hazar urug'lari tarkibiga, bir tomondan, Xunn ittifoqiga kirgan urug'lar ham mavjud bo'lgan; ya'ni *Hazar// Kozar, Avır// Avar, Avaz// Abaz, Bulg'ar, Savir//Sabir ~ Suvar*, boshqa tomondan - *Akatsir, Altitsiagir* nomi bilan bog'liq qadimgi urug'lar pecheneglar (Patsinak), uzlar (O'g'uz), shuningdek, noturkiy xalq va urug'lar ham ular tarkibiga kirganligini ko'rish mumkin.

Urug' va qabila nomlaridan tashqari, quyidagi hazar so'zlari ham saqlanib qolgan. Bu so'zlar yo toponimlar yo xoqonlar nomi, yo mansab-unvon nomlarini bildirgan.

1. SHaxs nomlari: *Bulon//Bulgan* (xon nomi), *Ildugan*, *Buyuk* (<buyuk), *Tekin-hazar*, *CHO'l//CHulı*, *CHorban-tarxan*.

2. Toponimik nomlar: *Itıl* (poytaxt nomi) *Sarkel* (<*sarı kel* «oq /sariq uy»), *Semender* (shahar nomi), *Balanljär* (shahar nomi), *Bek-Tarlöv* (joy nomi).

3. Mansab va unvon nomlari: *qag'an* (xon), *kender-qag'an* (mansab nomi), *bex//bek*, *ılık* («birinchi, boshliq»), *tudun* (mansabdor shaxs) *chauishgir//javishgır* (mansabdor shaxs), *shad/ishad* (unvon).

4. Boshqa so'zlar: *qara* «qora» *qara-xazar*, *sar(ı)* «sariq» («*sar(ı)kel*»), *tsitsakion* (qad. turk. *chechek*) «qit'a nomi»,

YUqorida keltirilgan kamgina ma'lumotlar hazar tilining, birinchidan, turkiy tillar guruhiga kirishini, ikkinchidan unda *ch* hamda *ts* dialektlari borligini, va uchinchidan, unda noturkiy tillarning, xususan, fin-ugor tillarining belgilari bo'lganligini ko'rsatadi.

Arab jug'roflari hamda tarixchilari (al-Istahriy, al-Bekri) va Mahmud Koshg'ariyning ma'lumot berishicha, hazar tili boshqa tillardan farqlanishini (M. Koshg'ariy) va bulg'or tiliga yaqinligini (al-Istahriy) ko'rsatib o'tishgan. Mashhur tarixchi filologlar V. V. Grigor'ev, V. V. Bartold, A. Kunik, G. Vamberi bu tilning genetik jihatdan hozirgi chuvash tiliga bog'lanishini ta'kidlashgan.

Hazar tilining yuqoridagi ma'lumotlari quyidagi xulosalarga kelishga imkon beradi. Birinchidan, u turkiy tillar sirasiga kiradi, ikkinchidan, unda ikki dialekt *ch* va *ts* dialektlari mavjud bo'lgan, uchinchidan, bu tilda boshqa noturkiy tillarning, xususan, fin-ugor tilining belgilari ham mujassamlashgan.

Hazar tili IX-X asrlargacha iste'molda bo'lib, u boshqa turkiy urug' tillari, xususan, pecheneg va uzlar tili bilan aralashib ketdi. Eng qadimgi hazar so'zlari ayrim toponimlarda saqlanib qolgan: *Itıl*, *Sarkel*, *Semender*, *Balanjar*, *Bek Torlov*, ko'pgina so'zlar esa tarixiy taraqqiyot natijasida ayrim fonetik o'zgarishlarga yuz tutgan.

Tarixiy manbalarda qayd etilganidek, ya'ni arab, turk filologlari, tarixchilari, geograflari al-Istahriy, al-Bekri hamda M. Koshg'ariylarning qayd etishlaricha, hazar tili qadimgi bulg'or tiliga yaqin turadi. V. V. Grigor'evning guvohlik berishicha, bu til hozirgi chuvash tiliga o'xshaydi.

HOZIRGI TIL **CHUVASH TILI**

CHuvash tili Rossiya Federatsiyasi tarkibiga kiruvchi CHuvashiston respublikasining milliy tili hisoblanadi, bu tilda 2,5 mln kishi gaplashadi. Hozirgi chuvash tili jonli xalq tili va yozma adabiy tillarga ega.

CHuvash xalq tili ikkiga bo'linadi: a) quyi (*anatri*) yoki *u* lovchi dialekt (masalan, *puç* (*poç* o'rnida), «bosh») bo'lib, bu lahjada Kama va Volga daryolarining qo'shilishidagi Ulyanov va Kuybishev rayonlari aholisi gaplashadi; b) yuqori (*vıryal*) yoki *o* lovchi lahjada (*poç* (*puç* o'rnida), «bosh»), Volganing tog'li qirg'oqlaridan Kama daryosining qo'shilishigacha bo'lgan hududda qo'llanadi. Bu lahja unlilarning bir oz lablanishga moyillashganligi bilan xarakterlanadi: *vorom* (quyi lahjada *varam*; boshqa turkiy tillarda *uzın/uzun*, tatar tilida *ozın*) «uzun»; *kəmöl* (quyi lahjada *kēmäl*; boshqa turkiy tillarda

kymysh//kymish, tatar tilida *kəmesh*) «kumush». Bu dalillar chuvash tilidagi ayrim shevalarning *a>o* va *ě>ə* singari lablashishga moyilligini ko'rsatadi.

SHuningdek, bu lahjalar o'z navbatida, juda ko'p shevalardan tashkil topgan. Tilshunos olimlarning guvohlik berishicha, chuvash tili eng qadimgi til hisoblanadi, hozirgi chuvash tili ham bu haqda guvohlik berib turibdi.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, chuvashlar ularning ajdodlari bo'lmish bulg'orlar VI-XIV asrlarda Volga va Kama daryolari orasida mavjud bo'lgan Bulg'orlar davlati tarkibida yashashgan. CHuvashlar va bulg'orlar tili qo'shni tillar bilan hamkorlikda ravoj topdi: dastlabki davrlarda skif-sarmat tili bilan, keyin slavyan va fin ugor tillari bilan, undan keyin esa turkiy tillar bo'lmish tatar va boshqird tillari bilan hamkorlikda taraqqiy qildi. Tillararo bunday aloqadorlik chuvash tili lug'at boyligining taraqqiyoti uchun yordam bergan bo'lsa, chuvash so'zlari, o'z navbatida, qo'shni tillarga ham singib ketdi. Masalan, slavyan tillaridan rus, ukrain, qadimgi davrlarda venger tiliga, hozirgi mardov va mariy tillariga, turkiy tillardan tatar va boshqarid tillariga o'tgan so'zlar bu fikrning isboti bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, chuvash tili boshqa bulg'or tillaridan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:

fonetika sohasida:

a) to'qqiz unli fonemaning mavjudligi: *a*, *ы* (yuqori lahjada *ŷ* — yozilishi *ă*), *e*, *û* (yuqori lahjada *ŷ* — yozuvda *ě*), *и*, *i*, *u*, *γ* (yozuvda *ŷ*), *o* (o'zlashgan so'zlarda) va 16 undosh fonemali: *p* (*p... b, b...*), *f* (*f...*), *v* (*v...*), *m* (*m...*), *t* (*t... d, d...*), *s* (*z, z...*), *ç*, *sh*, (*sh..., j, j...*), *y*, *ts*, *ch...*, (*j...*), *n* (*n..., ң, ң...*), *l* (*l...*) *r* (*r...*), *k* (*k..., g, g...*), *x* (*x..., g', g'...*);

b) ayrim so'zlarning kengaygan shaklda qo'llanishi: *kvak* (>kk, kk) «ko'k», «qora»; *tvar* (>*t, d, duz, toz*) «tuz» (qiyos. mo'g'. *dabusun*;

v) boshqa turkiy tillardan o'zlashgan so'zlardagi *a* o'rnida *ы* yoki *u* ning qo'llanishi: *ыltan* (~*altın*), *пыл* (~*bal*) «mis», *suxal* (~*saqal*), *ulma* (~*alma*);

g) yumshoq juftli undoshlarning borligi, biroq *ç*, *y*, *ch...* doim yumshoq, *ts* va *s* doim qattiq;

e) boshqa turkiy tillardagi *s* o'rnida *sh* undoshining qo'llanishi: *shыv*, *shu* (*suv□*, *su*), *shavar* (*sug'or*) «sug'or»;

d) *g'* ning boshqa turkiy tillardagi *v°* bilan almashinuvi, masalan: *ыv°l* (og'ul) «o'g'il».

leksika sohasida:

a) qadimgi tillar substratida chuvash so'zlari ustunlik qilgan;

b) fin-ugor tillari so'zlari orasida chuvash tili oraliq til bo'lgan;

v) chuvash tiliga singgan slavyan so'zlarning aksariati rus tili orqa o'tgan;

grammatika sohasida:

a) ko'plik qo'shimchasi *-sem* (variantlari bilan) *lar//ler* o'rnida;

b) buyruq-istak maylining bo'lishsiz shakli *-an* yordamida hosil o'ladi (boshqa turkiy tillarda *-ma//me*);

v) dona sonlarning to'liq va qisqa shakllari mavjud;

g) taqlid so'zlarning morfologik ko'rinishi turli-tuman;

d) birgalik kelishigining qo'shimchasi mavjud.

CHuvash yozuviga XVIII asrning ikkinchi yarmida asos solindi, XIX asrning oxiriga kelib bu yozuv takomillashtirildi. 70-yillarga kelib chuvash olimi va yozuvchisi I. F. YAkovlev tomonidan qayta ishlandi.

Nihoyat, bulg'or, hazar tillari, hazarga chuvash tili bilan birgalikda, qadimgi holatini tuliq saqlagan. Bu tillar r~l belgili til bo'lib, ular genetik jihatidan oltoy tillar oilasiga mansub. Bulg'or, hazar va chuvash tillari turkiy tillar guruhiga kiradi, biroq ular mo'g'ul, to'ngus-manchjur tillarga bilan ham bog'angan.

Fonetik mos kelish qonuniyatlaridan *sh~l* va *z~r* turk, mo'g'ul, to'ngus-manchjur tillariga yaqinligini isbotlaydi. CHuvash tili *sh~l* mosligi bilan bu tillarga yaqin, masalan: umumturkiy — *tash, dash, tas* ~ chuvash tilida *chul*, mo'g'ul tilida *chilag'un*, o'yrot tilida *chilan*, tungus-manchjur tilida *jolo* «tosh», mo'g'ul tillari bilan *z~r* mosligi: umumturkiy *buzau, buzag'u, buzag'i, puzav', puzoo* ~ chuvash tilida, *pyru (pāru)*, mug'ul tilida *birag'u*, o'yrot tilida *biroo* «buzoq».

Bu dalillar tungus-manchjur va mo'g'ul tillari qadimgi bulg'or, hazar va hozirgi chuvash tili bilan ancha yaqinligini ko'rsatadi. Bu esa bu uch guruh tillari bir bobo til — oltoy tilining ajdodlari bo'lganligidan guvohlik beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Turkiy tillarning G'arbiy Xunn tarmog'i tillari SHarqiy Xunn tarmog'i tillaridan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?

2. Bulg'or guruhi tillari qachon shakllandi?

3. Bulqor guruhi tillari haqidagi yozma yodgorliklar bizning davrimizgacha etib kelganmi?

4. Qadimgi bulg'or tilining yodgorliklari bizgacha qanday manbalar orqali etib kelgan?

5. Qadimgi hazar tili qanday yozma yodgorliklar orqali bizga ma'lumot beradi?

6. Qadimgi bulg'or va qadimgi hazar tillarining umumiy belgilarini misollar bilan tushuntirib bering.

6. Hozirgi chuvash tili qaysi qadimgi tillardan shakllangan?

7. CHuvash necha lahjali til, bu lahjalar bir-biridan qanday farq qiladi?

Zaruriy adabiyotlar:

1. Baskakov N.A. Vvedenie v izuchenie tyurkskix yazykov. M., "Vysshaya shkola", 1969, 24—36-betlar.

2. T.Jumayev. Turkiy tillarining tarixiy qiyosiy tahlili. Qarshi, "Nasaf", 2005, 4-10-betlar.

3. Levitskaya L.S. Istoricheskaya morfologiya chuvashskogo yazyka. M.: Nauka, 1976.

4. Gadjeva N.Z., Serebrennikov B.A. Sravnitel'no-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazykov. M.; Nauka, 1986.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Voprosy grammatiki tyurkskix yazykov. Alma-ata. 1958.

2. Issledovanie po sravnitel'no grammatika tyurkskix yazykov. M., -L. 1955.

3.Malov S.E. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. M., 1951.

4.Щербак А.М. Очерки по сравнительной морфологии тюркских языков (Имья), L., 1977.

9-ma'ruza: O'G'UZ GURUHI TILLARI

- 1.O'g'uz guruhi tillarining o'ziga xos xususiyatlari.
- 2.Qadimgi o'g'uz tili haqida qisqacha ma'lumot.
- 3.Hozirgi turkman tilining asosiy belgilari.
- 4.Hozirgi truxman tilining turkman tili va boshqa turkiy tillardan farqlari.

Tayanch tushunchalar: 1.O'g'uz guruhi tillarining qadimgi ko'k turk (tukyu) tillaridan shakllanganligi. 2.Qadimgi o'g'uz tilining boshqa garah tillaridan morfologik shakllarning qisqa ko'rinishlarining mavjudligi bilan farqlanishi. 3.Hozirgi turkman tili fonetikasining o'ztga xosligi. 4. Hozirgi truxman tilining o'g'uz tilidan farqli hamda ularga o'xshash tomonlari.

SHarqiy Evropani bosib olgan ko'chmanchi turkiy urug'-qabilalar — o'g'uzlar yoki uzlar va qipchoqlar edi. Ma'lumki, o'g'uzlar O'rta Osiyoga VIII asrdan boshlab, X asrdan boshlab esa shimoldagi o'g'uz, qipchoqlar (pecheneglar) Ural, Volga orqali SHarqiy Evropaga, yurish qilishdi. XI asrda o'g'uzlarning bir qismi bo'lgan o'g'uz-saljuqlar g'arb ga — Evropaga, janub tomondan esa Eron orqali Kichik Osiyoga yurish qilishdi. Bu ko'p sonli turk qabilalari va urug'lari ittifoqi X-XII asrlarda uch qismga bo'linib ketdi. Ularning bir qismi Orol bo'ylarida joylashib qoldilar va ular hozirgi Xorazm o'zbeklari hamda Qoraqalpoqlar va turkmanlarning avlodlari bo'lib hisoblanishadi. Ikkinchi qism o'g'uz-saljuqlar Eron va Kichik Osiyo orqali Evropaga o'tishdi, ular hozirgi turklarning tashkil topishida sezilarli o'rinni egallashadi. O'g'uz-saljuqlarning bir qismi SHimoliy va Janubiy Eron, Ozarbayjon turklarining avlodlaridir. Nihoyat, uchinchi guruh o'g'uz qabilalari Ural va Volga orqali Evropaga kelishdi, bu qabilalar uzlar va pecheneglar edi. O'g'uzlarning bu qismi bo'lg'orlar bilan aloqa o'rnatishda va o'g'uz-bulg'or qabila ittifoqini tuzishdi. Ularning tilida bulg'orlar tilining ta'siri kuchli edi. Mahmud Koshg'ariyning e'tirofiga ko'ra bu guruh g'arbiy qipchoqlar (pecheneglar) dir. Rus yozma yodgorliklarining xabar berishcha, ular uzlar, torklar, berendelar, kovuyalar va boshqa nomlar bilan atalgan. Bu turklar keyinchalik poloves (qipchoqlar) ittifoqini tashkil qilgan. Hozirgi o'g'uz tillarida bo'lg'or tili unsurlari ancha sezilarli saqlangan (masalan, gagauz tilida). O'g'uzlarning bir qismi keyinroq sharqiy pecheneglar (qipchoq)lar bilan aralashib ketishdi. Bu qabilalardan aralash qabilalar — o'g'uz-qipchoq yoki uz-poloves lar vujudga keldi. Mazkur qabilalar hozirgi qaraim, qumiqlik, qorachoy, balqar xalqlarining avlodlarini tashkil etadi. Ularning tilida bulg'or, o'g'uz va qipchoq tillarining namunalari bor.

O'g'uzlar, ya'ni bulg'orlar nug'aylar, qoraqalpoqlarning etnik tarkibiga va tiliga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Bu ta'sir Oltin O'rda xonligining qulashidan keyin vujudga kelgan.

O'g'uz tili elementlari qipchoq (poloves) tilida bitilgan «Sodex Sumanisuq» da ham uchraydi. Masalan, *tag'//tao'* (88), «tog'», *tog'- //tuo'-* «tug'moq» *tog'armen|tuarmen* va b, 40).

O'g'uzlarning eng yaqin qardoshlari Ural va Volgadan o'tib kelgan gagauzlardir. Gagauz tilining shakllanishida roman tillarining, xususan, grek tilining ta'siri katta. O'g'uz-saljuq xususiyatining kuchayishi turkiy xalqlar Bolqonda hukmronlik qilgan davrda yuz berdi.

O'g'uz guruhini bir necha kichik guruhlariga bo'lish mumkin: 1) o'g'uz-turkman kichik guruhi: qadimgi o'g'uz tillarini o'z ichiga oladigan til, bu til haqda M. Koshg'ariy ham ma'lumot bergan. Hozirgi turkman va SHimoliy Kavkazdagi truxman tili; 2) o'g'uz-bulg'or kichik guruhi, bunga qadimgi pecheneg, o'z (tork, berende, kovuy) tillari; hozirgi gagauz va bolqon turklari tillari kiradi; 3) o'g'uz-saljuq kichik guruhi, bunga qadimgi saljuq, qadimgi ozarbayjon, qadimgi usmon tillari, hozirgi ozarbayjon, turk, qrimtatar tilining janubiy dialekti, urumlar va maripul greklari tillari kiradi.

O'guz guruhi tillari o'g'uzlar (VIII-XIII) va saljuqlar (XI-XII) davrida shakllandi. Ularning kelib chiqishi sharqiy tukyu qabilalariga borib taqaladi. Qadimgi o'g'uz tilidan turkman tili shakllandi, aralash qabilalardan, bir tomondan, hozirgi ozarbayjon va turk tillari, ikkinchi tomondan, gagauz tili yuzaga keldi. Bu xalqlarning barchasi o'zida turli etnik elementlarni, shuningdek, turli xil lisoniy qatlamlarni mujassam etdi. Masalan, turkman tili o'g'uz elementlaridan tashqari qipchoq va qadimgi xorazm tillari unsurlarini ham o'zida singdirib yuborgan. Ozarbayjon tili esa o'g'uz elementlaridan tashqari qipchoq tillari unsurlarini o'zida mujassam etgan.

O'g'uz guruhi tillarining umumiy xususiyatlari:

fonetika sohasida:

a) 8 qisqa unlining borligi, boshqa tillarda 6 tadan 9 tagacha bo'lishi bilan farqlanadi (qarluq va qipchoq tillarida);

b) qo'shimchalarda lablangan tor unlilarning mavjudligi: *yaruq* (yariq o'rnida) «yorug'»;

v) so'z oxiridagi *g*, *g'* ning tushib qolishi: *gelen* (gelgen), *alan* (alg'an), *beg*, *dag'* kabi so'z oxirida bu undoshlar saqlanadi.

g) *t* va *q-k* undoshlarining jaranglashuvi: *gor—kor*, *dil—til*;

d) so'z boshida *b/p* ning tushib qolishi: *ol* (*bol*);

e) so'z boshida va tor unlilardan keyin *y* ning tushib qolishi: *ir* (*yır* o'rnida) «qo'shiq», *it* (*iyt* o'rnida) «it»;

grammatika sohasida:

a) qaratqich kelishigi: *-in/-ын -иң/-ың*, tushum kelishigi *-i* (to'liq shakllari *esa – niң/ның, - ni/-ны*);

b) jo'nalish kelishigida undoshning tushib qolishi: *adama*;

v) I shaxs ko'plikda shaxs-son qo'shimchasida unlining tushib qolishi: *bereris* (*borarmiz* o'rnida);

g) istak mayli qo'shimchasi *-asi*: *kelesi* (*kelgu* o'rnida);

d) maqsad mayli qo'shimchasi - *mali/-malı*;

e) sifatdosh *-mish/-мыш (-gan /-g'an* o'rnida);

lug'at qurilishi sohasida:

qipchoq tili bilan solishtirganda o'g'uz tili orasida quyidagicha farq borligini ko'rish mumkin.

O'g'uz Qipchoq O'zbek

ilgeri burun «oldin»

qurt bori «bo'ri»

el qol «qo'l»

alyn manlay «peshana «

kopek iyt «it»

ezge boshqa/basqa «boshqa»

qapu esik/eshik «eshik»

iygi/eyi jaqsy / yaxshi «yaxshi»

O'G'UZ-TURKMAN KICHIK GURUHI. O'g'uz -turkman kichik guruhi tillari VIII asrda Urxun daryosi bo'ylarida mavjud bo'lgan tukyular davlati qulagandan keyin yuzaga keldi.

O'g'uz-turkman kichik guruhiga kiruvchi tillarning qadimiyligini M. Koshg'ariy ham qayd qilgan. Bu kichik guruhga kiruvchi turkman va truxman tillari quyidagi belgilari bilan o'g'uz-saljuq kichik guruhi tillaridan farq qiladi.

fonetika sohasida:

a) turkman tilining ayrim lahjalarida til-tish undoshlari *s.../z...* undoshlari, turk tilida esa tish-tish undoshlari *s/z* mavjud. Masalan, *s...oz...* (turkm.), *soz* (turk.) «so'z»;

b) turkman tilidagi *b* turk tilidagi *v* ga o'tishi: *ber* (turkm) *ver* (turk) «ber»;

v) turkman tilida birinchi fonologik cho'ziqlikning mavjudligi (bunday holat sharqiy turkiy tillar tarmog'iga kiruvchi tuva va yoqut tillarida ham bor) turk tilida esa bunday holat yo'q;

g) keng unlilar uyg'unligi turkman tilida qonuniyat sifatida mavjud (*bolon~bolg'on*), bu dalil turkman tilini sharqiy turkiy tillarga ancha yaqinligini ko'rsatadi), turk tilida bunday holat xarakterli emas.

d) parallel vazifali o'zaklarning borligi : *bol-* va *ol-* «bo'lmoq», turk tilida faqat bir ko'rinish *ol-* mavjud.

g) I shaxs birlikdagi kishilik olmoshining birinchi jarangli sonor undoshi turkman tilida *m*, o'g'uz-saljuq tillarida jarangli, portlovchi *b* qo'llanadi, masalan, *men* (turkm.), *ben* (turk.);

j) so'z boshida til orqa, jarangli, portlovchi *g* o'g'uz-turkman tillarida, o'g'uz-saljuq tillarida esa til orqa, jarangsiz *q* o'rnida qo'llanishi *giyz* (turkm.), *qыз* (turk).

grammatika sohasida:

a) o'g'uz-turman kichik guruhi tilarida o'tgan zamon sifatdosh qo'shimchasi - *an//en*, (-*g'an//gan*) , o'g'uz-saljuq kichik guruhi tillarida -*dyq//dik*, -*мыш/mish*;

b) sifatdoshning bo'lishsiz shakli (kelasi zamon) -*mar//mer*, -*maz//mez* tarzida qo'llanadi: (o'g'uz-saljuq kichik guruhi tillarida -*mar//mer*) shakllari qo'llanmaydi;

v) hozirgi zamon shakli o'g'uz-turkman kichik guruhi tillarida -*yar*, o'g'uz-saljuq kichik guruhi tillarida -*yor* shaklida qo'llanadi;

g) kelasi zamon sifatdoshi o'g'uz-turkman kichik guruhi tillarida *a* orttirilib qo'llanadi (-*a*çaq/-eçek), o'g'uz-saljuq kichik guruhi tillarida esa *a* tushib qoladi (-*a*çaq//*a*çek);

d) ravishdosh shakllari oxirida keladaigan *y* o'g'uz-turkman kichik guruhi tillarida tushib qoladi (*oqup* «o'qib», *bermep* «bermab»), o'g'uz-saljuq kichik guruhi tillarida saqlanadi. (*oquyup*, *vermeyip*).

QADIMGI TILLAR. O'g'uzlarning X-XI asrlardagi tillari.

O'g'uz tilining X-XI asrlardagi holati haqida daslab M. Koshg'ariy ma'lumot beradi. Bu ma'lumotlar xoqon turklari ya'ni uyg'ur tili bilan qiyosiy solishtirish natijasida amalga oshirilgan. Bu davrda qirg'iz, qipchoq, o'g'uz, to'xsi, yag'mo, chigil, ig'roq, charuqlar tillari bir-biriga yaqin bo'lgan, yomiq va boshqirdlar tillari bir-biriga qorishgan edi. SHuningdek, qipchoq va o'g'uz tillari fonetik, leksik va grammatik jihatdan bir o'zak tildan kelib chiqqan. M. Koshg'ariyning guvohlik berishicha, o'g'uz va qipchoqlar tillari X-XI asrlarda uyg'ur tilidan quyidagi xususiyatlar bilan farqlangan:

1) so'z boshida uyg'ur tilidagi *y* qipchoq tilidagi *я* ga o'tgan yoki umuman tushib qolgan (masalan o'yg'. *yinju* > o'g'uz. qipch. *jinju-inju*; *yilig' sug'* > *ылыг' сув*, «iliq suv»);

2) so'z boshida *t* o'g'uz, qipchoq tillarida *d*, uyg'ur tilida *t* shaklida qo'llanadi: mas. *teva* (uyg'ur) > *deva* (qipch. o'g'uz.);

3) so'z boshida uyg'ur tilida *m*, o'g'uz, qipchoq tillarida *b* ga o'tadi, mas., *men* (uyg'ur), *ben* (o'g'uz-qipchoq);

4) sifatdoshning kelasi zamon shakli uyg'ur tilida *-g'u* (*barg'u yir* «boradigan er»), qipch. o'g'uz tillarida *-si* (*barasy yir*) shaklida;

5) o'tgan zamon sifatdoshi uyg'ur tilida *-g'an* (*barg'an*), o'g'uz tilida *-an* (*baran*);

6) so'z yasalishi uyg'ur tilida *-g'aq/-gek* (*tamg'aq*), qipchoq tilida *-aq* (*tamaq*) «tomoq»;

X-XI asrlarda mavjud bo'lgan o'g'uzlar tili keyinchalik paydo bo'lgan quyidagi uch tarmoq o'g'uz tillariga asos bo'ldi: a) sharqiy yoki asosiy o'g'uz tillari, ya'ni, so'nggi davrlarda paydo bo'lgan turkman va truxman tillari; b) qadimgi uzlar va pecheneg tillaridan kelib chiqqan shimoliy o'g'uz tillari, ya'ni, hozirgi gagauzlar hamda bolqon turklari tillari; v) janubiy o'g'uz tillari, avval, saljuq, keyinroq, eski ozarbayjon hamda eski usmonli turk tillari va hozirgi ozarboyjon, turk, qrim tatar tilining janubiy lahjasi tarzida yuzaga keldi. SHunday qilib, hozirgi o'g'uz tillari genetik jihatdan X-XI asrlar o'g'uz tillariga bog'liq, bu esa ularning urxun-enisey yodgorliklari tillarining biridan kelib chiqqanligini ko'rsatadi.

HOZIRGI TILLAR. Turkman tili.

Turkman tili Turkmaniston respublikasining milliy va davlat tili hisoblanib, turkmanlarning soni 3 mln. atrofida (2 mln. k. Turkmanistonda, 1 mln. k. Iroq, Afg'oniston, Eron, Turkiya, Suriya, Iordaniya kabi mamlakatlarda yashaydi). Hozirgi turkman tili XX asr boshlarida ko'p sonli turkman dialektlaridan va jonli xalq tili asosida shakllangan. Uning shakllanishining ikki asosi mavjud.

Birinchi guruhga yomud dialekti (Toshovuz viloyati), taka dialekti (Qizil Arvatdan Bayramali rayonigacha bo'lgan hudud), goklan dialekti (Qora Qalin

rayoni), salir dialekti (CHorjuy viloyatining shimoliy qismi), sariq dialekti (Yolatan va Taxta Bozor rayonlari), ersari dialekti (CHorjuy va Kerki rayonlari) kiradi.

Ikkinchi guruhga Eron va O'zbekiston bilan chegaradosh hududlarda yashovchi turkman dialektlari, xususan, noxurli, anauli, hasarli, nerizm dialektlari xosdir.

Birinchi guruhga kiruvchi dialektlarning asosiy xususiyatlari:

a) so'z oxirida keluvchi portlovchilarning $k/q > x$ ga o'tilishi;

b) til-tish $z.../s...$ ning tish-tish z/s ga o'tishi;

v) uyg'unlanish qonuniyatining buzilishi va h. k.

SHunisi xarakterliki, har bir dialektdagi shevalar ham, o'z navbatida, ham fonetik, ham leksik, ham grammatik jihatdan farqlarga ega.

Misol qilib hozirgi zamon shaklidagi *ol-* va *gel-* fe'llarining tuslanishini turli shevalarda qo'llanishini olib ko'raylik.

gayar//alyaar,

elyer//gelyeer yomud shevasida

alya//alyaa,

gelye//gelyee taka shevasida

alya//alyaa,

gelye//gelyee goklan shevasida

alyor///alyoor,

gelyor//gelyoor ersari shevasida

alyer//alyeer

gelyer//gelyeer

alor//aloor

gelor//geloor sariq shevasida

Hozirgi zamon shaklidagi fe'lning qo'llanishi ikkinchi guruh dialektlarida ham farqlanadi. Masalan:

A' lemen (Hasar ovulida)

A'lamen (Manish ovulida)

A'lam an (Noxur ovulida)

Turkman jonli tilining dialektlari g'arbiy o'g'uz qabilalari tili bag'rida vujudga keldi. SHuning uchun ham turkman tilida qadimgi X-XII asrlarda O'rta Osiyo va Orol bo'ylarida, Xorazm hududida o'g'uz-saljuq dialekti paydo bo'ldi. Bu tilda Qoraxoniylar davlati tilida uyg'ur, tirgesh, qarluq dialektlari asosida shakllangan eski o'zbek tilining belgilari ham saqlanib qolgan.

Ancha keyinroq (XII-XV asrlar) turkman tili qipchoq tili unsurlarini o'zida mujassamlashtirdi. Bu qabila dialektlari X-XV asrlarda, ya'ni mo'g'ullar bosqinigacha bir qadar rivojlandi. SHu davrda yashab ijod etgan Xo'ja Ahmad YAssaviy asarlari tilida ham shu davrdagi o'g'uz, qipchoq unsurlari saqlangan. XI-XV asrlardagi turkman tiliga eski o'zbek tilining ta'siri kuchli bo'ldi. Bu davr turkman tilining taraqqiyotiga Abulg'oz Bahodirxonning «SHajarai turk» asari ham o'z hissasini qo'shgan (XVIII). SHuningdek, turkman shoirlari Ozodiy, Maxtumquli, Saidiy va XVIII-XIX asrlarda yashab ijod etgan Zaliliy, G'oyibiy, va nihoyat, XIX asrda ijod etgan Abusattor Qozining «Taka urug'lari janglari haqida kitob» asari ham muhim hissa bo'lib qo'shildi.

Turkman tili o'g'uz-turkman kichik guruhiga mansub bo'lib, u o'g'uz-saljuq va o'g'uz-bulg'or kichik guruhi tillari bilan tarixan chambarchas bog'liq. Biroq turkman tili o'g'uz guruhiga kiruvchi boshqa tillardan o'ziga xos farqlanuvchi belgilarga ham ega. Bu farqlar quyidagilar:

a) birini cho'ziqlikka egaligi, bu belgi turkman tilining qadimiy va sharq tillari sirasiga kirishini muayyanlashtiradi;

b) keng unlilar uyg'unligining mavjudligi (*bolon~bolgon*) ham turkman tilining sharqiy tillariga xosligini ko'rsatadi;

v) til-tish undoshlari *z.../s...* ning mavjudligi (bu xususiyati bilan boshqird tiliga o'xshaydi);

g) *bol-* va *ol-* o'zaklarining teng ishlatilishi;

d) yumshoq, portlovchi orqa qator *g* jaranglisining mavjudligi (masalan: *giyz* «qiz»)

e) sifatdoshning *-mas/-maz* shaklidan tashqari *-mar/-mer* shakllarining borligi;

j) sifatdoshning boshqa turkiy tillardagi *-dyq/ -dik, -mysh/-mish* shakllari o'rnida *-g'an/-gen>-an/-en* shakllarining qo'llanishi.

Turkman yozma adabiy tili 1917 yildan boshlab arab alifbosida, 1928 yil lotin alifbosida, 1940 yildan boshlab esa rus alifbosida ish olib boradi. 1995 yildan boshlab yana lotin alifbosida ish yuritiladi.

TRUXMAN TILI. Truxman tili stavropol turkmanlarining tilidir; truxmanlar Turkmanistondan ko'chib kelishgan va Stavropol' o'lkasining turli joylarida o'rnamishgan. Bu SHimoliy Kavkaz turkmanlari CHavdur, Sonchxoji va Ikdir kabi kichik urug'lar bilan bog'liq xalqlardir.

Truxman tili turkman tilining asosiy belgilarini saqlab qolgan, biroq unga qo'shni no'g'ay tili sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan.

No'g'ay tilining truxman tilidagi ta'sirini, qo'yidagicha belgilash mumkin:

fonetika sohasida:

a) cho'ziq unlilar sifatining o'zgarganligi, mas, *ach/ash* (*aach* o'rnida), *yol* (*yool* o'rnida) tashla (*daashla* o'rnida).

b) *a* va *e* unlilari ishtirokidagi lab uyg'unligining yo'qolganligi: *oturon// oturan* «o'tirgan», *kopok// kopek* «it».

v) til-til undosh *z.../s...* ning unutilganligi, masalan; *soz* (*soz...* o'rnida) «so'z».

g) so'z boshida va unlilar orasida kelgan jaranglining jarangsizlashuvi (*t>d*). Masalan: *tash* (*dash* o'rnida), *etib//edip* «etib».

d) *p* va *q* portlovchi undoshlarining unlilar orasida sirg'aluvchi undoshlarga o'tishi: *tev̈a* (*depe* o'rnida) «tepa», *cḧyxar-* (*cḧyqar-* o'rnida);

grammatika sohasida:

a) ko'plik shaklining *h, n, m* sonor undoshlaridan keyin *-nar// -ner* ko'rinishlari borligi;

b) sifatdoshning bo'lishsiz shakli faqat bir *-mas/-mes* ning turkman tilidagi *-mas/-mes* va *-mar/-mer* shakllari o'rnida qo'llanishi;

v) *baradurin* shaklida fe'l shaklining borligi (turkman tilida *barar* va *barodýran*) «boradigan».

g) fe'l shaklining farqlanishi, mas: *baryatýryn* (turkm. *baryarýn*)

Turkman va truxman tillarining leksika sohasidagi farqlanishlari ham uchraydi. Truxman tilining bir qancha shevalari bor, bu shevalar no'g'ay va boshqa tillar bilan qo'shni bo'lib yashash sharoitida yuzaga kelgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1.O'g'uz guruhi tillarining bulg'or guruhi tillardan qanday farqli tomonlari mavjud?

2.Qadimgi o'g'uz tili hozirgi o'g'uz tillariga qaysi jihatdan o'xshaydi.

3.Hozirgi turkman tilining fonetikasi o'zbek tilidan qaysi jihatdan farq qiladi?

4.Turkman tilining morfologiyasi qadimgi turkiy tildan qaysi ko'rsatkichlarni o'zlashtirgan?

5.Hozirgi truxman tilining turkman tili va boshqa turkiy tillardan qanday farqlari bor?

6.Truxman tili qaysi jihatdan turkman tiliga o'xshaydi?

Zaruriy adabiyotlar:

1. Baskakov N.A. Vvedenie v izuchenie tyurkskix yazыkov. M., "Vysshaya shkola", 1969, 24—36-betlar.

2.T.Jumaev. Turkiy tillarining tarixiy qiyosiy tahlili. Qarshi, "Nasaf", 2005, 4-10-betlar.

3.Kononov A.N. Rodoslovnaya turkmen: Sochinenie Abul-gazi-xana Xivinskogo. M., -L. 1958.

4.Grammatiga turkmenskogo yazыka. Ashgabad, 1970.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1.Potsluevskiy G.I. Tyurkskiy tryoxchlen. M. 1967.

2.Issledovanie po sravnitel'no grammatika tyurkskix yazыkov. M., -L. 1955.

3.Malov S.E. Pamyatniki drevnetyurkskoy pis'mennosti. M., 1951.

6.Щербак A.M. Ocherki po sravnitel'noy morfologii tyurkskix yazыkov (Imya), L., 1977.

10-ma'ruza: O'G'UZ-BULG'OR KICHIK GURUHI

Reja:

1.O'g'uz-bulg'or kichik guruhining asosiy xususiyatlari.

2.Qadimgi pecheneg va uz tillarining umumiy belgilari.

3.Hozirgi gagauz tilining umumiy lisoniyati.

4. Bolqon turklarining etnik tarkibi va tillari haqida qisqacha ma'lumot.

Tayanch tushunchalar: 1. O'g'uz-bulg'or guruhiga kiruvchi tillarning ug'uz-turkman tillaridan farq qiluvchi tomonlari. 2. Qadimgi pecheneg hamda qadimgi uzlarning etnik tarkibi va ularning tillari haqida qisqacha tushuncha. 3. Hozirgi gagauz tili va uning lahjalar haqida ma'lumot. 4. Bolqon turklarining etnik tarkibi turkiy bo'lmagan xalqlardan shakllanganligi va ularning tillari haqida tushuncha.

O'g'uz-bulg'or kichik guruhiga, bir tomondan, qadimgi pecheneg (qipchoq)lar va uzlar (torklar, berendelar, kovuylar)ning tillari, ikkinchi tomondan, hozirgi gagauz tili va bolqon turklarning tillari kiradi. Bu guruh tillarida o'g'uz tilining belgilari asosiy bo'lishi bilan birga, unda qadimgi pecheneg va uzlarning, hozirgi gagauz tilining, shuningdek, bulg'or tillarining, keyinroq esa qipchoq tilining leksik va grammatik ta'sirlari ham singgan. Pecheneglar tilining urug', mansab, qal'a nomlarini YU. Nemet o'zining grekcha translitiratsiyasida keltiriladi; bu analizda bulg'or tiliga oid so'zlar boshqa turkiy tillar bilan leksik jihatdan solishtiriladi. Pecheneg so'zlari venger yodnomalari va yilnomalarida ham ko'plab uchraydi. Pecheneg tilidagi bulg'or elementlari M. Koshg'ariy tomonidan ham ta'kidlangan edi. Bunday xususiyat bir qancha oltin ko'zachalardagi yozuvlarda, u yoki bu xalqqa tegishli bo'lgan buyumlardagi yozuvlarda saqlanib qolgan. Bu yozuvlar shu paytgacha munozarali bo'lib keldi. Bir guruh olimlar (V. Tomson boshchiligida) ularni bulg'or yozuvlari deb belgilagan bo'lsalar, boshqa guruh olimlar, (YU. Nemet boshchiligida) bular pecheneg tiliga oid yozuvlar deb ataydilar. Bulg'or tilining belgilari hozirgi qaraim va gagauz tillarida ham saqlanib qolgan. CHuvash tilidagi old qator unlilaridan oldin keladigan undoshlarning yumshalishi bu tilning o'g'uz tillariga emas, balki bulg'or tillariga xosligini ko'rsatadi. Old qator unlilaridan oldin keladigan undoshlarning yumshalishi qaraim va gagauz tillarida unlilarning old qator va orqa qator sifatida farqlanishini yuzaga keltirgan, natijada undoshlar yumshalishi ham shakllangan. Masalan, *ev'a* (eve o'rnida) «uyga», *kes'm'a* (*kesme* o'rnida).

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. O'g'uz-bulg'or kichik guruhi tillari o'g'uz-turkman tillaridan qaysi jihatdan farq qiladi?
2. Qadimgi pecheneg va uzlarning tillari qaysi guruh tillariga mansub edi?
3. Hozirgi gagauz tilining umumiy belgilarini misollar bilan tushuntiring.
4. Gagauz tilida qanday lahjalar mavjud, ularning eng asosiy belgilari qanday?
5. Bolqon turklarining etnik tarkibi va tillari qaysi guruh tillariga o'xshaydi?
6. Bolqon turklarining qaysilari ozarbayjon tiliga, qaysilari turk tiliga va qaysilari turkman tiliga qanday jihatlari bilan o'xshash?

QADIMGI TILLAR. *Pecheneg va uzlar tili*

Rus yilnomalarida pecheneglar, uzlar, torklar, berendelar va boshqa qabilalar «qora kulohlar» deb nomlangan; ular IX-X asrlarda SHarqiy Evropada paydo bo'lishgan. YA'ni, VIII asrda qipchoqlar kelgungacha bo'lgan davrda ular o'g'uzlarning shimoliy va g'arbiy qanotini tashkil qilgan bo'lib, Sirdaryo havzasida yashashgan.

SHimoliy va G'arbiy o'g'uz urug' qabilalari G'arbga — SHarqiy Evropaga siljishar ekan, bulg'or va hazar qabilalari bilan aralashib ketdilar, natijada bu o'g'uz qabilalari tilida fonetik, leksik hamda grammatik qurilishda bulg'or tili elementlari o'z aksini topib bordi.

M. Koshg'ariy devonida ta'kidlashicha, pecheneglar eng g'arbda — Vizantiya davlati chegarasiga yaqin hududlarda yashashgan, ularning tili O'rta Osiyo o'g'uzlari tilidan ancha farq qilgan.

SHarqdan SHarqiy Evropaga ko'chmanchi qabilalar harakatlanar ekan, ular o'troqlashib borishdi. Birinchi turkiy qabilalar qatlamini xunlar tashkil etishgan, ularning inqirozidan keyin slavyan va finlar bu turkiy qabilalarga o'z ta'sirini o'tkazishdi, undan keyin esa bulg'or va hazar qabilalari birlashuvi yuzaga keldi, va nihoyat, hozirgi chuvash xalqi kelib chiqdi. Ikkinchi oqim shimoliy va g'arbiy o'g'uz urug'lari bo'lib, ular SHarqiy Evropaga tomon siljishar ekan, bulg'or, suvar, hazar hamda boshqa turkiy qabilalar bilan to'qnash keldilar va hazarlar tarkibiga kirishdi.

Uchinchi va eng katta oqim Osiyodan SHarqiy Evropaga kelgan qipchoqlar (poloves lar) bo'lib, ular dastlab, bulg'or va hazarlar hududlarini zabt etishdi, keyin pecheneglar, torklar, berendelar yashaydigan joylarni bosib olib, yangi qabilalar guruhini tuzishdi. Mo'g'ullar bosqinidan keyin qipchqlarning avlodlari sifatida, bir tomondan, tatarlar va boshqirdlar, ikkinchi tomondan, etnik tarkibida qipchoq-o'g'uz-bulg'or urug'-qabilalari belgilari qorishmasidan iborat qaraimlar, qo'miqlar, qorachoylar, balqarlar paydo bo'lishdi.

Nihoyat, eng so'nggi oqim mo'g'ullar bosqini bilan SHarqiy Evropaga kelib qoldi. Bu oqim qipchoq qabilalari edi. Qipchoqlarning bunday kuchli oqim bilan kelib qolishi tatarlar va boshqirdlar tilini shakllanishini tezlashtirdi.

SHunday qilib, pecheneglar va uzlar genetik jihatdan o'g'uzlardan shakllangan, ular g'arbga siljish jarayonida o'zlarining qabila tuzilishini o'zgartirib bordilar va bulg'or tilining ayrim xususitlarini o'z tillariga mujassam qilib oldilar. IX asrning oxiriga kelib pecheneglar Qora dengiz cho'llaridan Dongacha cho'zilgan katta hududga egalik qilishdi. Ularga qo'shni bo'lib X asrda eng katta kuchga ega bo'lgan Hazar xonligi yashardi, uning hududi Dondan quyi Volgaga qadar cho'zilgan edi. Hazarlar davlati kuchsizlangach, bulg'orlar, pecheneglar, volga bulg'orlari hamda dunay bulg'orlariga bo'linib ketishdi.

M. Koshg'ariyning yozishiga qaraganda, pecheneglar, o'zlar, torklar, berendelar va boshqa o'g'uz urug'-qabilalari X-XI asrlarda bulg'orlar tili

ta'siriga uchradi, bir oz keyinroq esa unga qipchoq tili elementlari singa boshladi.

SHarqiy Evropadagi pecheneglar, o'zlar, torklar berendelar va boshqa o'g'uz qabilalarining IX-X asrlardagi tillari haqidagi ma'lumotlar ayrim atamalarda urug', qabila nomlarida, unvonlar tarkibida, ayrim tarixchi olimlar yozuvlarida, xususan, Vizantiya yozuvlarida saqlanib qolgan. YU. Nemet va P. Goluboskiylarning vizantiya va boshqa yozuvlar asosida amalga oshirgan transkripsion yozuvlari ayniqsa qimmatli.

1. Urug' nomlari 2. Qal'a nomlari

Yabdi Erdim To'ғ -qatay

Kyerchi CHur Qaraq -qatay

Kbuqshyn Ila Salma-qatay

Suru Kylbey Saqa-qatay

Boro Tolmach Yayu-qatay

Bulo CHopon (CHaban)

Yazy Qopon

Kara Bay

3. Xonlar nomi

Maychan Qotan

Kyel Yazy//Yazay

Qorqut (an) Bota(n)(uul)(900-920)

Y(a)pan

Kaydum

YU. Nemet Nadъ-sen-Miklosh qishlog'idan topilgan oltin idishlarda yozilgan pecheneg tilidagi matnlarning transkripsiyasi va tarjimasini amalga oshirgan. YU. Nemet va boshqa olimlar sa'y-harakati bilan yuzaga kelgan ishlardan SHarqiy Evropada yashagan o'g'uz qabilalarining tillari qonuniyatlari haqida ayrim xususiyatlarni aniqlash mumkin. Bu fikrlar pecheneglar tili qipchoq tilining bir ko'rinishi bo'lganligini quyidagi dalillar tasdiqlaydi:

fonetika sohasida:

a) so'z oxiridagi $g, g' > y$ ga o'tadi, masalan, *beg > bey* (*Suru Kulbey*) «bek»; *qatag' > qatay* «qattiq»;

b) $k/g > v$ o'tishi, masalan: *kökel*, *kökerchi > kyvöel*, ku v^o erchi «ko'kroq», «yashilroq»;

v) so'z boshida $d < t$ o'tishiningning mavjudligi, masalan: *dygetugi*;

g) unlilardagi lab uyg'unligining borligi, maslan: *Yazy Qopon*, *Bula CHopon* va h. k.;

leksika sohasida:

Pecheneg so'zlari orasida o'g'uz-qipchoq so'zlarining mavjudligi; masalan: *qara* «qora», *saqa* «o'ziniki», *salma* «irmoq»;

grammatika sohasida:

Qipchoq va o'g'uz tillari uchun so'z yasalishining umumiyligi: *-ma/-me* (masalan, *salma* «irmoq»); *-an/-en* (masalan: *Qorqutan*, *Yapan*, *Qotan* va h. k.); *-chy/-chi* (masalan: *Kuerchi CHur* va h. k.).

HOZIRGI TILLAR. *Gagauz tili*

Gagauzlar Ukraina va Moldaviyaning Bendera hamda Izmail (200 m. k.) rayonlarida, SHimoliy Bolgariya va Ruminiya (5 m. k.) yashashadi. Gagauzlar bessarabiya gagauzlari, dunay orti gaguzlariga, bular ham o'z navbatida, shimoliy yoki bolgar hamda g'arbiy va gretsiya gaguzlariga bo'linadilar.

Hudud jihatidan turli-tuman joylarda gagauzlarning joylashuvi turli sheva va dialektlarni keltirib chiqargan. Biroq bu elementlarning barchasida o'g'uz tili belgilari ustun. Lahjalar, asosan, leksik mohiyat kasb etadi.

Gagauz tiliga bolqon turklari, gajal, tozluq, gerlovliklar, qizilboshlar, yuruq, qaramanli, surg'uch qabilalarining tillari yaqin. Gagauzlar va bolqon turklari bulg'or, o'g'uz, qipchoq urug'larining avlodlari hisoblanadi.

SHuningdek, gagauz tili o'g'uz tili guruhiga kirishi bilan birga, bulg'or tili bilan aloqador, xususan, qipchoq-poloves va qaraim tillari bilan hamkorlikda yashab kelgan.

Bundan tashqari, gaguz tilining shakllanishida roman (rumin va moldaviya), va ayniqsa, slavyan (rus va bolgar) tillarining ham ta'siri sezilarlidir. Bu ta'sir nafaqat leksika sohasida, balki sintaksisda ham mavjud. Gagauz tilida gap qurilishi, gapda so'zlar tartibi rus tilidagi kabidir.

Gagauz tili boshqa o'g'uz tillari singari quyidagi xususiyatlarga ega:

a) bulg'or guruhiga kiruvchi qaraim va chuvash tillari kabi til oldi unlilaridan oldin kelgan undoshlarining yumshalishi, ya'ni: *e>a b...an*, (*ben* o'rnida), *ev...a* (*eve* o'rnida) «uyga», *d...armish* (*dermish* o'rnida) «degan», *kes...m...a* (*kesme* o'rnida) «kesma»; *γ>...u*, masalan: *aach* *γst...un...a* (*agach* *γstyne* o'rnida).

b) ikkinchi cho'ziqli unlilarning *g'* yoki *g* o'rnida qo'llanishi: ya'ni, *ag'>aa*, *ug'>uu*.

aa<ag'a, *yg'a*, *ag'ı*, masalan, *aach<ag'ach* «yog'och»;

ee<ege, *ige*, *egi*, masalan; *eshee<eshege* «eshakka»;

oo<og'o, *og'u*, *ug'a*, *og'a*, masalan: *booday<bog'uday* «bug'doy»;

YY<Ygy, *Ygi*, *YYı*, masalan: *byyk<byyyk*, «buyuk»;

ııı<ıg'ı, *ıg'u*, masalan: *sıyır<sıg'ır* «sigir»;

ii<igi, *igy*, *egi*, masalan: *diil<degil* «ema»;

v) *nl*, *nd>nn* o'tishining borligi, masalan: *onnar < onlar* «ular», *altınnarı<altınlari* «oltinlari»;

g) jenskiy rod ko'rsatkichining *-ka/-yka* shaklida mavjudligi, masalan: *komshu-yka* (*komshu* so'zidan) «qo'shni ayol», *buldıys-ka* (*baldıs* so'zidan) «qayin singil»;

d) *-maq//-mek* harakat nomi yasovchi qo'shimchalaridan *k/q* ning tushishi: *gitma<gitmak* «ketmoq»;

e) jo'nalish kelishigi o'rniga bosh kelishik qo'shimchasining qo'llanishi: *g...itmish orayı* (*araya* o'rnida).

Revolutsiyaga qadar gagauz xalqining milliy tili mavjud emas edi: faqat XIX asrning oxirida rus grafikasidan foydalanila boshlangan. Lekin rumin

burjuaziyasi bunga yo'l qo'ymadi. Gagauzlar Moldaviya tasarrufiga o'tgach, ular bu grafikadan keng foydalana boshlashdi.

BOLQON TURKLARI TILI

Bolqonda turk qabilalarining paydo bo'lishi ikki davrga ajratiladi: birinchidan, qadimgi davrlarda Qora va Kasbiy dengizlaridan yuqoriroqdagi hududlar orqali SHarqiy Evropaga siljigan pecheneg, uz, tork qabilalarining kelib qolishi bilan, ikkinchidan, ancha keyingi davrlarda — saljuqlar va usmoniylarning janubdan kirib kelishi jarayonida yuz berdi. Turkiy tilning Bolqonda turklarning hukmronlik qilishi ikkala guruh tillarining mavqeini ancha baravarlashtirdi. Bunday holat hamma dialektlarda bir xil kechmadi. Bolqon turklarning tili turk tilidan ancha farq qiladi. Unda gagauz tiliga ham o'xshash jihatlar mavjud.

V. A. Moshkov (1904 y.)ning tasnifiga ko'ra Bolqon turklari ikki toifaga bo'linadi: birinchisi, musulmon turklari bo'lib, bu guruhga usmoniylar, gajallar, tozluqlar, gerlovlilar, qizilboshlar, yuruqlar kiradi; ikkinchisi, xristian turklari hisoblanib, ular karamanlilar, gagauzlar va surg'uchlardir. Biroq bu tasnif faqat diniy nuqtai nazardangina bo'lib, unda tilga bo'lgan aloqadorlik aks etmagan.

Bolqon turklarining tili kelib chiqish jihatidan turli-tumandir.

Birinchi guruh turklariga pecheneglar, uzlar, turklar kiradi; qadim zamonlarda Bolqonga shimoldan ko'chib kelishgan, ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

1) makedoniya gagauzlari, SHimoliy Makedoniyada yashashadi, soni 6000 kishi;

2) surg'uchlar (soni 9000 kishi) ham o'zlarini gagauzlar deb hisoblashadi. (V. A. Moshkovning izohlashicha, ularning kelib chiqishi pecheneglarga borib taqaladi (pecheneg urug'ining nomi *sur+guts* < *g'uz* < *o'g'uz*) Adrionopol rayonida yashashadi;

3) gajallar pecheneg, o'z va torklarini avlodlari bo'lib, Deliorman tumanida istiqomat qilishadi. Bu rayon Rushuk, Silistri, Varna qal'alari o'rtasida joylashgan.

Ikkinchi guruh turklari turli yo'llar bilan kelib qolgan, ular Kichik Osiyoda yashagan paytlarida bolgar va greklar bilan chatishgan turklardir. Bu guruhga: 1) yuruqlar Boyazid davrida (1398-1402) Kichik Osiyodan kelib qolishgan, hozir Makedoniyada yashaydilar; 2) karamanlikar (ko'p qismi greklar bilan chatishgan) ham Kichik Osiyodan kelib qolishgan. Ularning asosiy qismi Kessarida yashaydi; 3) qizilboshlarning soni ancha kam bo'lib, Gerlovo va Deliormanda yashaydigan musulmon sektantlaridir; 4) tozluq turklari va gerlovliklar turklar bilan bolgarlarning chatishib ketishidan yuzaga kelishgan, Gerlovo va Osmon bozorda yashashadi.

Birinchi guruh bolqon turklarini tili gagauz tiliga o'xshash. Masalan, gajal tilida *e* > *ə* farqlanish mavjud: *sen* > *s'an*, *gitmak* > *gitm'a* kabi.

Ikkinchi guruhning bir qismi turk tiliga (karamanli, tuzluq turklari) hamda ozarbayjon tiliga (yuruqlar) o'xshaydi. Karamanlilar grek alifbosida ish olib borishadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

- 1.O'g'uz-bulg'or kichik guruhi tillari o'g'uz-turkman tillaridan qaysi jihatdan farq qiladi?
- 2.Qadimgi pecheneg va uzlarning tillariqaysi guruh tillariga mansub edi?
- 3.Hozirgi gagauz tilining umumiy belgilarini misollar bilan tushuntiring.
- 4.Gagauz tilida qanday lahjalar mavjud, ularning eng asosiy belgilari qanday?
- 5.Bolqon turklarining etnik tarkibi va tillari qaysi guruh tillariga o'xshaydi?
- 6.Bolqon turklarining qaysilari ozarbayjon tiliga, qaysilari turk tiliga va qaysilari turkman tiliga qanday jihatlari bilan o'xshash?

Zaruriy adabiyotlar:

1. Baskakov N.A. Vvedenie v izuchenie tyurkskix yazыkov. M., "Vysshaya shkola", 1969, 24—36-betlar.
- 2.T.Jumayev. Turkiy tillarining tarixiy qiyosiy tahlili. Qarshi, "Nasaf", 2005, 4-10-betlar.
- 3.Pokrovskaya L.A. Grammatika gagauzskogo yazыka. M. 1964.
- 4.Gadjieva N.Z., Serebrennikov B.A. Sravnitel'no-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazыkov. M.: Nauka, 1986.

Qo'shimcha adabiyotlar:

- 1.Issledovanie po sravnitel'no grammatika tyurkskix yazыkov. M., -L. 1955.
- 2.Malov S.E. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. M., 1951.
- 3.Щербак A.M. Oчерки po sravnitel'noy morfologii tyurkskix yazыkov (Imya), L., 1977.

1-ma'ruza: O'G'UZ-SALJUQKICHIK GURUHI

- 1.Qadimgi usmoniylar tili va qadimgi saljuq tillarining umumiy belgilari.
- 2.Hozirgi ozarbayjon tilining lisoniy xususiyatlari.
- 3.Ozarbayjon tilining lahjalari orasidagi o'xshashlik va farqlar.
- 4.Hozirgi turk tilining asosiy xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: 1. Qadimgi usmoniylar tilining qadimgi tukyu tilining davomi sifatida rivojlanishi. 2.Qadimgi saljuq tilining o'g'uz tillarining eng umumiy belgilarini o'zida singdirganligi. 3. Hozirgi ozarbayjon tilining asosiy xususiyatlari. 4.Ozarbayjon tilining boshqa o'g'uz tillaridan farqli tomonlari. 5.Turk tilining ozarbayjon tilidan farqli tomonlari

O'g'uz-saljuq kichik guruhiga kiruvchi tillar, bir tomondan, o'lik til bo'lgan saljuq tili va bu tilda bitilgan asarlar sirasiga "Qissai Yusuf" dostoni (1233) «Rababnoma» — Jaloliddin Rumiyning she'rlariga Sulton Valadning «Saljuqcha qo'shig'i», «G'aribnoma» (1329-30), «Nasafiylar qo'shig'i» (1332), «Tazkiratul avliyo» (1340), Burhoniddin Sivosiyning «Devon»i (1345-1397) lar kiradi. Ikkinchi guruhga qadimgi usmoniylar tili mansub va bu tilda «Iskandarnoma» (1390), «G'amdan keyingi shodlik», (1415), H. Vamberi tomonidan nashr qilingan. «Ibn Bibi yilnomasi» (1421-25) «Qur'onga sharhlar» (1499) va boshqa asarlar bitilgan. Bu guruhga ozarbayjon va turk tillari mansubdir.

QALDIMGI TILLAR. *Saljuq va qadimgi usmoniylar tili*

Saljuq tili qadimgi tildir, qadimgi usmoniylar tili bir oz keyinroq shakllangan, o'g'uz tilining janubiy tarmog'iga mansub, ular dastlab O'rta Osiyoda — Sirdaryoning quyi havzasida yashashgan, X-XI asrlarda Xorazm, Kichik Osiyo, Eron va Kavkazga ko'chib o'tishgan va bu nomlarni ayni shu davrda olishgan. Umumiy o'g'uzlik xususiyatini, dastlab, saljuqlar, so'ng, usmoniylar olishgan; keyin ular ikki alohida tilga bo'linishdi (XI-XIII va XIV-XIX asrlarda). Bu tillar o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik qurilishga ega. Bu xususiyatlari bilan O'rta Osiyo o'g'uzlari tilidan ham, ancha kech shakllangan hozirgi turk tilidan ham farqlanadi.

Asosiy farqlar quyidagilar:

f o n e t i k a s o h a s i d a:

a) *z* o'rinda *s* qo'llanishining mavjudligi aqling va aksincha, masalan: كندزنگا باقماقل «o'zingga boqmagin»;

b) *q* o'rinida *x* qullanishi, masalan بندخ «topdik»;

v) so'z boshi *d* o'rnida *t* qo'llanishi, masalan: تورتنجى «to'rtinchi» (دورتنجى do'rtinchi o'rnida);

e) *x* va *g'* qo'llanishidan beqarorlik: دخدن «g'amdan»;

d) so'z boshida *b* o'rnida *m* qo'llashini: منگ «тың», بىڭ «бың» o'rnida va h.k.

grammatik qurilishda:

a) *-lyq/-lik* ot yasovchi qo'shimchalarning لى -li o'rnida qo'llanishi;

b) *-ban* بن ravishdosh qo'shimchasining borligi: قويوبان «qo'yuban»;

v) *-gil/-g'il* گل/غل buyruq-istak mayli qo'shimchalarning mavjudligi; قويغل «qo'yg'il», كلگل «kəlgil»;

g) qadimgi olmoshlar: kandaz كندز (kandaz) «o'z» اولرى (ulri) «o'sha» ning borligi;

d) دگن (-gacha) qo'shimchaning mavjudligi;

e) sonlarda ko'plik qo'shimchasining borligi; وئىچوا اغلى خلغلر «uch yuz oliy xilqatlar»;

j) ravishdoshlar *-bi, -u* bilan kelganda maqsad ma'nosini anglatishi;

l u g' a t b o y l i g i d a: يالغذ «bir»; جغر (may), (hamma) so'zlarining ishlatilishi.

Saljuq tilidagi saqlangan yozma yodgorliklar ancha kech bitilgan hamda transkripsiyada yozilgan yodgorliklar hisoblanadi. Ular eski usmonlilar

tilini asosiy xususiyatlarini saqlagan, chunki saljuq tili eski usmonlilar tilining boshlang'ich davri edi.

HOZIRGI TILLAR **OZARBAYJON TILI**

Ozərbayjon tili — Azərbaycan Respublikasının milli və davlat tilidir (og'zaki nutqda *aderbidjan, azerbeyjan*) yoki ərəzbayjon turklari (og'zaki nutqda *ozərbayjon* yoki *kavkaz erti tatarlari*). Azərbaycanlarning umumiy soni 10 mln. kishidan ko'proq, shundan 5 milliondan ko'prog'i Erondada yashaydi. Azərbaycanlar ko'p urug'li xalq hisoblanadi, ya'ni ular Eronda yashovchi *shahsuvanlar* (250 ming), *kojarlar* (35 ming) *qashqaylar* (500 ming), *nafarlu, bahorlu, inonlu, teymurtash, qaral, xurosoni, pichoqchi, garagozli* (turkman va ərəzbayjon qabilalari qorshimasadan kelib chiqqan (350 ming kishi); *avsharlar* Eron va Avg'onistonda (500 ming kishi) istiqomat qilishadadi; *qorapapaxlar* yoki *terekemlar* Turkiya va Eronda yashashadi (100 ming kishi) kabi etnik guruhlarini o'z ichiga oladi. Azərbaycan tili o'g'uz tillari guruhining o'g'uz-saljuq kichik guruhiga kiradi.

Azərbayjon tili kelib chiqishi jihatidan VIII-XV asrlardagi O'rta Osiyo o'g'uz qabilalariga borib taqaladi, bu qabilalardan hozirgi ko'pgina turkiy tillar kelib chiqqan. Azərbaycan tiliga eng yaqin bo'lgan til — bu turk tilidir. Biroq o'z taraqqiyoti davrida bu tillar sezilarli farqlarni ham yuzaga keltirishgan:

fonetikada:

- a) turk tilida mavjud bo'lmagan to'qqizinchi **ə** unlisining borligi;
- b) ba'zi sheva va lahjalarda tilarga **g** hamda orqaqator burun tovushi **ı** ning mavjudligi;
- v) jarangli undoshlarning jarangsizlashuvi.

grammatika sohasida:

- a) **-ır** va **-ar** grammatik kurilishda qo'shimchalarini turli ma'no kasb etish: **alıır** «olayapti», **olar** «olar».
- b) o'tgan zamon shakllarining uyg'unlashmasligi: *gəldox//gəldux* «keldik»;

lug'at boyligida — forsha va ruscha so'zlarning ko'pligi.

Azərbayjon jonli tili bir necha sheva va lahjalardan iborat, ularni quyidagi **resh guruhga** bo'lish o'rinli hisoblanadi:

1. **Sharqiy shevalar guruhi** (Kaspiy dengizi qirg'oqlari shevalari). Bunga kuban, darbant, boku, shamaxin, salyan, lenkaran shevalari kiradi. Asosiy belgilari:

- a) burun tovushlarining hamda velyar **r** ning yo'qligi;
- b) so'z oxiridagi jaranglashuvning qat'iyligi: *kitab, agağ* «yog'och»;
- v) keng unlilarning tor unliga o'tishi.

2. **G'arbiy guruh shevalari** (Azərbayjonning shimoliy-g'arbiy qismi shevalari). Bunga qozox, borchalin, ayrum shevalari kiradi. Asosiy belgilari:

- a) so'z boshidagi **y** ni tushib qolishi: *murta* < *yumurta* «tuxum»;
- b) so'z o'rtasida **b**>**v** o'tishi: *bava*<*baba* «bobo»;

v) soʻz oxirida portlovchi undoshning sirgʻaluvchiga oʻtishi: *alɨf* < *alɨp* «olib»;

g) velyar burun tovushi *ɣ* ning saqlanishi: *aldɨɣɨz* «oldingiz» va h. k.

3. **Shimoliy guruh shevalari** (Ozarbayjonning shimoliy qismi shevalari). Bunga nuxin, zaqatal, qutqash shevalari kiradi. Asosiy belgilari:

a) burun tovushlarining borligi;

b) *p>t* almashinuvi: *kəlɨtɨdi* < *kəlɨptɨ* «kelibdi».

4. **Janubiy guruh shevalari** (Ozarbayjonning janubiy qismi) Bunga erevan, naxichevan, urdubod shevalari kiradi.

5. **Markaziy guruh shevalari** (Markaziy Ozarbayjon). Bunga Kirovobod, Qarabogʻ shevalari kiradi. Belgilari:

a) soʻz oʻrtasida *ɣç>j* va soʻz oxirida *ɣç>sh* oʻtishi: *haji* «hoji», *agash* «yogʻoch»

b) soʻz oxirida unlidan keyin *b>v* oʻtishining borligi: *div* < *dib* «dev»; *Gurvan* < *Gurban* «Qurbon»

Ozarbayjon shevalari tizimini qoʻyidagi etnik guruhlar ham kiradi: qashqaylar (Eron Ozarbayjoni), terekemlar va qizilboshlar shevasi gʻarbiy guruh shevalariga, asosan, qazax dialektiga oʻxshaydi, qorapapaxlar (ularning tili Ozarbayjon hamda turk shevalarining qorishmasidan iborat); mugʻallar shevasi shimoliy guruh shevalariga jumladan, zaqatal shevasiga mos.

Ozarbayjon adabiy tili bir qancha bosqichlarni bosib oʻtgan. Birinchi bosqich XIV asrdan XVI asrgacha boʻlgan davr. Bu paytda adabiy til fors tili boʻlgan holda, arabcha, forsha soʻzlar bilan toʻliq boʻlgan eski ozarbayjon tili ham rivoj topa boshladi. Ikkinchi bosqich XIX asrning ikkinchi yarimidan XX asr boshlarigacha boʻlgan davr. Bu paytda ozarbayjon adabiy tilining milliy chegarasi belgilandi. Ozarbayjon adabiy tilining mazkur davr taraqqiyoti uchun Mirza Fatali Oxundovning xizmatlari katta boʻldi. Adabiy til arabcha forsha soʻzlardan, uning fonetik, leksik va grammatik normalarida tozalanib, xalq jonli tiliga yaqinlashtirildi.

Uchinchi bosqichga 1917 yildan keyingi davr kiradi. Hozirgi ozarbayjon adabiy tili uchun baku-shamaxin lahjasi asos qilib olingan.

Ozarbayjon adabiy tilidagi yozuv 1923 yilgacha arab alifbosida, 1923-1939 yillar lotin alifbosida, 1939 yildan boshlab rus alifbosida ish olib boradi.

TURK TILI

Turk tili Turkiya Respublikasidagi turk xalqining (700 mln. k.) milliy va davlat tili. Turk millati Bolgariya, Sloveniya, Kipr, Gretsiya, Eron, Suriya kabi Osiyo va Evropa mamlakatlarida (400 ming), Amerikada (60 ming k.), Afrika va Avstraliyada (5 ming k. atrofida) tarzida jahon boʻylab tarqalgan. Turk tili oʻgʻuz guruhining oʻgʻuz-saljuq kichik guruhiga mansub. Anatoliy turklari usmoniylar yoki usmonli turklar nomi bilan mashhur. Adabiyotlarda ularning qabila nomlari «ottoman turklari» yoki «ottomonlilar» Gʻarbga Osiyodan kelib qolishgan deb taʼkidlanadi. Saljuqiylar va boshqa oʻgʻuz

qabilalari X-XI asrlarda ko'chib kelishgan bo'lsa ham, turklar xalq sifatida XIII asr oxirida shakllangan.

Hozirgi turk tili yozma adabiy til sifatida faqat XIX asr o'rtalarida yuzaga keldi, hozirgi shaklga esa 1919-1923 yillarda bo'lgan revolyutsiyadan keyin erishdi. Turk jonli tili ikki shevalar guruhidan iborat (a) dunay-turk — adrianopol, makedoniya, adakal, bosniya shevalari guruhi; a) sharqiy anatoliy — kastamun, oydin, koni, karaman, sivas, anqara, smirin shevalari guruhi.

Turk adabiy tili arab va fors tillarining kuchli ta'siri ostida rivojlandi. Shuning uchun eski turkiy yozma adabiy tili va xalq jonli tili uslub jihatidan uchga bo'linadi. Birinchi uslub — so'zlashuv tili bo'lib, u haqiqiy tabiiylik xususiyatini saqlagan. Turk sultonlari fikricha u *kaba* turkcha, ya'ni «qo'pol» turk tili deb ataladi. Ikkinchi uslub — burjuaziya tili: bunga savdogarlar, hunarmandlar va shaharliklar tili kiradi (u *orta tyrkche* «o'rta turk tili» deb ataladi) va uchinchi uslub - Turkiya feodallarining oliy uslubdagi adabiy tili (u *fasih tyrkche* «toza turk tili» deb ataladi) va u arabcha-forscha lug'aviy birliklar bilan to'lib-toshgan til hisoblanadi.

Hozirgi turkiy adabiy tilning asosini Istambul va Anqara shaharlari tashkil qiladi. Adabiy tilning rivojlanishi uchun boshqa shahar shevalari ham o'z hissalarini qo'shmoqda, biroq qishloq rayonlari shevalari eski xususiyatlarini saqlab qolmoqda.

Turk tili o'g'uz tillarining biri sifatida bu tillar bilan fonetik, grammatik va leksik umumiyliklarga ega, shuningdek, o'ziga xos farqli xususiyatlari ham mavjud.

Turk tilining lug'at boyligi arab, fors tillari hisobiga boyishi bilan birga, bu tilga g'arbiy evropa tillaridan (grekcha, italyancha, frantsuzcha, gollandcha, nemischa) ko'plab so'zlarini o'zlashtirgan.

Turk yozuvi 1929 yilgacha arab alifbosida olib borilar edi, undan keyin esa alifbo lotin yozuviga ko'chdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Qadimgi usmoniylar tili qaysi til guruhiga kiradi?
2. Qadimgi saljuq tilining umumiy xususiyatlarinimadan iborat edi?
3. Hozirgi ozarbayjon tili boshqa o'g'uz tillaridan qanday farq qiladi?
4. Ozarbayjon tilida nechta lahja bor?
5. Ozarbayjon tilining lahjalari biri-biridan qanday farq qiladi?
6. Hozirgi turk tili ozarbayjon tilidan qaysi jihatlar bilan farqlanadi?
7. Turk tili uslubiy jihatdan necha guruhga bo'linadi?

Zaruriy adabiyotlar:

1. Baskakov N.A. Vvedenie v izuchenie tyurkskix yazыkov. M., "Vysshaya shkola", 1969, 24—36-betlar.
2. T. Jumaev. Turkiy tillarining tarixiy qiyosiy tahlili. Qarshi, "Nasaf", 2005, 4-10-betlar.
3. Dmitriev N.K. Grammatika sovremennogo turetskogo yazыka. M., 1957.

4.Kononov A.N. Grammatika sovremennogo turetskogo yazyka. M., CH. 1. 1956.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1.Gadjieva N.Z., Serebrennikov B.A. Sravnitel'no-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazykov. M.: Nauka, 1986.

2.Issledovanie po sravnitel'no grammatika tyurkskix yazykov. M., -L. 1955.

3.Malov S.E. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. M., 1951.

4.Щербак A.M. Ocherki po sravnitel'noy morfologii tyurkskix yazykov (Imya), L., 1977.

12-ma 'ruza: QIPCHOQ GURUHI TILLARI

Reja:

1) Qadimgi qipchoq tilining umumiy xususiyatlari haqida.

2) Hozirgi qipchoq-poloves tillari:

a) qarayim;

b) qo'miq;

v) qorachoy-balqar;

g) qrimtatar tillari haqida ma'lumot.

Tayanch tushunchalar:1.Qadimgi qipchoq tilining asosy xususiyatlari. 2.Hozirgi qipchoq –poloves tillarining bir-biriga yaqin jihatlari.3.SHimoliy kavkaz turkiy tillarining asosiy xususiyatlari haqida tushuncha.

Qipchoq guruhi tillari bir necha kichik guruhlariga bo'linadi: 1) qipchoq-bulg'or kichik guruhi, bu o'z navbatida: a) qadimgi tillar — oltin o'rda adabiy tili (sharqiy xorazm tilidan farq qiladi va qipchoq-bulg'or tillaridan ko'ra o'g'uz-qipchoq tiliga yaqin); b) hozirgi tatar va boshqird tillarini birlashtiradi; 2) qipchoq-poloves kichik guruhi, bunga: a) qadimgi tillar — poloves yoki qo'miq, b) hozirgi tillar — qaraim, qo'miq, qorachoy-balqar va qrimtatar tillari kiradi; 3) qipchoq-no'g'ay kichik guruhi, bu esa hozirgi tillar bo'lmish no'g'ay, qoraqalpoq, qozoq va o'zbek tilining qipchoq lahjasini birlashtiradi. Qipchoq guruhi tillarining shakllanishi uchun uch davr asos bo'lgan. Qipchoq urug'lari G'arbiy Osiyoga pecheneglar bilan birgalikda IX-XI asrlarda paydo bo'lishdi, XI-XIII asrlarda esa ular poloves yoki kumanlar hamkorlikda yashashardi, undan keyin esa Oltin O'rda xonligining aholisi sifatida (XIII-XV) mavjud bo'ldilar. O'rta asrlardan keyin esa qipchoqlar Astraxan va Qozon xonliklari tarkibidagi asosiy aholi bo'lib hisoblanadilar; ular o'zbeklar davlatining, Katta No'g'ay o'rdasining eng yirik urug'i edilar. SHuning uchun ham qipchoqlarning bir tarmog'i qaraqalpoq va qozoq tillarining, shuningdek, o'zbek tilining bir lahjasining yuzaga kelishi uchun ham xizmat qilganlar. Qipchoqlarning bir qismi bulg'orlar bilan qorishgan holda, avval, Oltin O'rda, keyin, Qozon va Astraxan xonliklari tarkibiga kiruvchi xalqlarning avlodi bo'lmish hozirgi

tatar va boshqirdlarning yuzaga kelishi uchun ta'sir ko'rsatishgan va natijada bulg'or hamda qipchoq elementlarini o'zida mujassam etgan qipchoq-bulg'or kichik guruhi tillarini yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Qipchoq-poloves kichik guruhi, bir tomondan — qadimgi poloves yoki kuman tiliga, ikkinchi tomondan — hozirgi jonli tillar: qaraim, qo'miq, qorachoy-balqar va qrimtatar tillariga bog'lanadi, bu tillarning sohiblari bevosita poloves larning avlodlari hisoblanadilar. Nihoyat, qipchoq tillari orasida eng keyin shakllangan tillar qipchoq-no'g'ay tillari bo'lib, ular XIV-XVI asrlarda yuzaga kelishgan; qipchoq-no'g'ay tillarining keyingi avlodlari esa no'g'ay, qoraqalpoq, qozoq va o'zbek tilining qipchoq lahjasi hisoblanadi.

G'arbiy Osiyo va SHarqiy Evropada qipchoq tilining rivojlanishi mo'gullar bosqiniga bo'lgan davrda mavjud edi, bu paytdagi qipchoq tili nafaqat turkiy tillar (bulg'or va o'g'uz), balki slavyan, eron, fin-ugor va boshqa urug'-qabila tillari bilan hamkorlikda taraqqiy qildi. Bu davr shunisi bilan xarakterliki, turkiy tillarga slavyan, fin-ugor va fors tillaridan leksik birliklar ko'plab o'tdi, o'z navbatida, qipchoq tillaridan ham yuqorida qayd etilgan tillar bir talay so'zlarni o'zlashtirib oldi. SHu davrga kelib G'arbiy Evropa va SHarqiy Osiyoda yashayotgan qipchoqlar islom dinining ta'siri ostida arab tilidan ham bir talay so'zlarni o'z tillari tarkibiga kiritdilar.

Qipchoq tili taraqqiyotining ikkinchi davri mo'g'ullar bosqinidan keyingi vaqtga to'g'ri keladi. Qipchoqlarning ta'siri natijasida Oltin O'rda xonligi qulagandan so'ng qipchoqlar Qozon, Astraxan, Qrim xonliklari tarkibiga o'tishdi, shuningdek, Sibir xonligining muayyan qismini, o'zbeklar davlatining hamda No'g'ay o'rdasining asosiy qismini tashkil etishdi.

QIPCHOQ-POLOVES KICHIK GURUHI TILLARI.

Bu guruh o'zida qipchoq (poloves yoki qo'miq qadimgi tilini, qaraim, qo'miq, qorachoy balqar va qirm-tatar kabi hozirgi tillarni biriktiradi. Qipchoq-poloves tili kechroq shakllangan, u qadimgi hazar, bulg'or tillari zahirida Oltin O'rda hududida yuzaga kelgan.

Qipchoq-poloves tillarining umumiy xususiyatlari:

- a) -s, o'rnida -sh qo'llanishi *tas* o'rnida *tash*, (*sh* o'rnida *ch* qo'llanishi: *qash* emas *qach*;
- b) *j/ж* o'rnida *y* qo'llanilishi: *jol*, o'rnida *yol*;
- v) unlilar tizimi qipchoq-no'g'ay tillarida to'liq, qipchoq-bo'lg'or tillariga qisman to'g'ri keladi;
- d) *n/d~t* ning assimilyatsiyalashmasligi;
- e) qaratg'ich va tushum kelishigini qo'shimchalari qo'llanishining qat'iyligi.

Shuningdek, bu kichik guruhga kiruvchi tillarining o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud.

QADIMGI QIPCHOQ (KUMAN YOKI POLOVES) TILI

Qipchoq (kuman yoki poloves) tili XI asrda Sharqiy Evropada paydo bo'lib, hududi Dashti Qipchoqdan Qora dengiz bo'ylarigacha (Qrim va Bolqon yarim orolini ham o'z ichiga olgan) cho'zilgan edi. Uning tarkibida o'z (<og'uzlar), pecheneg, tork, kavuy kabi o'g'uz qabilalari kirgan. Saqlangan yodgorliklar tilida qipchoq tilining elementlari ham (*tav^o*, *tuv^o*-, *buv^oun*) o'g'uz tilining elementlari ham (*tag*'-, *tug*'- // *tog*'-, *bog'un*) uchraydi.

Qipchoq (kuman yoki poloves) tili haqidagi ma'lumotlar M. Koshg'ariy lug'atida (toponimlar va antroponimlar), XIII asr o'rtalarigacha bo'lgan yilnomalarda, venger xronika va afsonalarida ham qayd qilingan. Shuningdek, «Igor jangnomasi»da ham ayrim dalillar bor.

Qipchoq tiliga oid asarlarning aksariyati mo'g'ullar bosqinidan so'ng yuzaga kelgan: turkcha arabcha lug'at (1245, G. Xoutsin 1889 yil Londonda chop qildirgan), poloves va rus tillaridagi lug'at qoldiqlari (M. N. Obolonskiy 1850 yilda, V. Bang 1911 yilda nashr qildirgan) shular shumlasiga kiradi.

Qipchoq tili haqidagi eng katta asar lotincha-forscha-qipchoqcha lug'at «Kodex Kumanicus» (XIII) hisoblanadi.

Bundan tashqari, qipchoq tiliga oid arab tilida yaratilgan Abu Hayyonning «Kitobi bulg'ot» (1313), XV asrda yaratilgan muallifi noma'lum bo'lgan grammatikani (1928 yil Stambulda nashr qilingan) ham ko'rsatib o'tish mumkin.

Qipchoq tili haqidagi eng so'nggi ma'lumotlarni Padolskiy armanlaridan biri Kiyevda saqlagan (saqlagan kishining o'zi esa Vatan urushi yillarida vafot etgan) yozuvlardan bilib olish mumkin.

Bu til qipchoq tili elementlari bilan birga o'g'uz va bo'lg'or tillari unsurlarini ham o'zida mujassam etgan.

Qipchoq-poloves tili boshqa qipchoq tillaridan quyidagi belgilari bilan farqlanadi:

f o n e t i k a d a - *s/-sh* ning almashinib qo'llanishi: *-tash/-tas*; so'z boshida *j/ж* o'rnida *y* qo'llanishi.

g r a m m a t i k a d a - sifatdash qo'shimchalari *-ur²* va *-ar²* ning teng qo'llanishi, harakat nomi qo'shimchasi *-maq²* ning *-uv²* ga nisbatan faol qo'llanishi.

Qipchoq tilini o'rganishda eng katta asos bo'ladigan asar «Codex Cumanicus» bo'lib, uni o'rganish juda ko'p olimlarni qiziqtirgan: birinchi bo'lib 1928 yilda Klopnot nashr qildirgan, asarning ikkinchi nashrini ancha to'ldirilgan, tarjimai va sharhi bilan T. Kun tayyorlagan, V. V. Radlov, S. E. Malov, P. M. Melioranskiy, V. A. Gordlevskiy (S. E. Malov «Igor jangnomasi» asosida) mazkur asar ustida ilmiy izlanishlar olib borishgan.

T. I. Grushin ham podolskiy armanlari ma'lumotlari asosida bir talay ishlarni amalga oshirgan. Shuningdek, V. Bang, Sh. Deni, daniyalik olim K. Gryonbeklar asarning faksimali va lug'ati ustida ishlashgan.

HOZIRGI TILLAR. *Qaraim tili*

Qaraim tili (*qaray*), Litvaning Vilnyus shahrida, Troki va Ponevejis, Ukrainaning Lutsk va Galich shaharlari kesishmasida, shuningdek, Qrim yaqinidagi Evpatoriya shahrida yashovchi qaraim xalqining tilidir, umumiy soni 10 ming kishi.

Hozirgi qaraim jonli tili uch lahjaga bo'linadi: 1) shimoliy lahja, bu lahjada Litva qaraimlari, xususan, Vilnyus va Troki qaraimlari so'zlashadi; b) janubiy lahja, bu lahjada Lutsk va Galich qaraimlari gaplashadi; 3) qrim lahjasi.

Shimoliy qaraim lahjasining asosiy xususiyatlari:

a) birinchi old qator unlining keyingi bo'g'indagi unlining orqa qator unlilariga aylanishi, hamda keyingi undoshlarning ham yumshalishi.

Xususan, $e > a$, masalan: *sandan* (janubiy lahjada *senden*), «sendan»; $o > o$, masalan: kolaga (janubiy lahjada kolege<kolenke «soya»);

b) $\eta > n$ undoshlarining y ga o'tishi, masalan, *may*a (janubiy lahjada *maḥa*<*mana*) «menga» (janubiy lahjada *ataḥ*<*atan*) «otang».

Janubiy lahjaning shimoliy lahjadan asosiy farqlari:

a) lab undoshlarining lablanmagan undoshlarga o'tishi masalan: *elg...en* (shimoliy lahjada *ol...g...an*) «o'lgan»; $y > i$ o'tishining borligi, masalan: *its* (janubiy lahjada *uch*; «uch»; s ning *sh* ga o'tishi: *ilis* (janubiy lahjada *ulush*) «ulush».

b) sirg'aluvchi *sh* undoshning s ga ($sh > s$) o'tishi, bu holat bilan balqar tili hamda tatar tilining barabin shevasiga o'xshaydi, masalan: *yasırin* (shimoliy lahjada *yashırın* «yashirin», $ch > ts$ almashinuvi, masalan: *baltsiq* (shimoliy lahjada *balchıx*) «balchiq»; $\mathfrak{c} > z$ almashinuvi, masalan: *atsı zanlı* (shimoliy lahjada *achi ḫanli*) «g'amgin».

v) birikmalardagi o'tish $t...i \sim d...i > k...i < g...i$, masalan: *k...is* (tish o'rnida) «tish; *k...iyermen* (*t...iyirmen* o'rnida) «tegirmon»;

g) $e > o$ oldidan $l... > l$ ga o'tishi: *elg...en* (*e...lg...an* o'rnida) «o'lgan».

Qaraim lahjasi o'zining qrimtatar tiliga yaqinligi bilan xarakterlanadi.

Qaraim tili turkiy tillarning mo'g'ullar bosqinigacha bo'lgan xususiyatlarini saqlagan. V. V. Radrov va T. Kavalovlarning fikricha, qaraim tili poloves tiliga yaqin, qaraimlar esa poloves (kuman)larning avlodlaridir. Hozirgi qaraimlarning tillari eng qadimgi turkiy qabilalardan hisoblanadi, dalillarning ko'rsatishicha, ular, dastlab, bulg'or, hazar, o'g'uz yoki o'z, pecheneglar qabila ittifoqiga, keyin, qipchoq-poloves lar ittifoqiga kirishgan. Qipchoq-poloves lar ittifoqi mo'g'ul-tatarlar ta'siri turkiy xalqlar tiliga singib borayotgan bir davrda shakllandi va shundan keyin poloves lar qaraimlar tarkibiga o'tishdi. Chunki SHarqiy Evropada qaraimlar hazarlar va boshqa turkiy xalqlar bilan ham diniy, ham etnik umumiylikka ega edi. Qaraim xalqi tarkibining ko'p urug'li bo'lganligini bu tilda mavjud bo'lgan ko'plab lahjalar, shevalar ko'rsatadi. T. Kovalovning fikriga ko'ra, poloves tilining xususiyatlari qaraim tiliga mo'g'ullar bosqinidan so'ng o'tgan. SHuning uchun ham bu o'zlashmalar o'zida poloves lik xususiyatini hozirgacha saqlab qolgan.

YUqoridagi dalillar qaraim tilining G'arbiy Xunn tarmog'ining qipchoq tillari guruhidagi qipchoq-poloves tillari kichik guruhiga kirishini ko'rsatadi. Qaraim tili qipchoq-poloves tillari kichik guruhining umumiy xususiyatlarini o'zida jam qilish bilan birga o'ziga xos asosiy belgilariga ham ega.

YA'ni: *a* (old qator unlilardan oldin va keyin keladigan undoshlarning yumshalishi natijasida unlilar almashinuvi: *e<...a, o>...o, y>...u*, masalan, *k...ozumd...a* (*kəzumde* o'rnida), «ko'zimda», *öz...n...* (*özen o'rnida*) «o'zan»;

b) so'z o'rtasi va oxirida *h>y* o'tilishi: masalan: *maya<maḥa<mana* «menga», *bardıy>bardıḥ* «bording», shuningdek *a>e* o'tishi, masalan: *barsey* (*barsay<barsaḥ*) «borsang».

v) *ll>hl* birikmasining o'tishi, masalan: *uḥlu<ullu* «ulug'»;

g) birikmadagi *y* reduksiyasi, *yı>yi>i*, shu kabi *yü>yü*, masalan: *iḥlar<yıllar*, «yillar»; *igit<yigit* «yigit» va *ur...ak<yurak* «yurak».

d) qaratqich kelishigining *-n*, bilan tugashi, ya'ni *-nyḥ /-nin* (boshqa tillarda *-nyḥ/-niḥ*);

e) gapda so'z tartibining o'ziga xosligi, bu xususiyat rus tilidagi so'z tartibiga o'xshaydi, masalan (aniqlovchi+aniqlanmish) *chachy bашыныts* «boshining sochi» (*volosy golovy*).

SHunday qilib, qaraim jonli tili qator belgilariga ko'ra mustaqil til, biroq, u bir tomondan, qadimgi qipchoq (poloves) tillariga guruhiga kirsa, ikkinchi tomondan, shu guruhga xos bo'lgan hozirgi tillarning xususiyatlarini o'zida mujassam etgan.

Qaraim yozuvi dastlab iudaistlar yozuvida shakllangan bo'lib, tor doirada — faqat diniy ishlarda ishlatilgan, ya'ni, cherkov kitoblarini yozishdagina qo'llangan. Faqat XX asr boshlarida qadimgi evrey alifbosi asosidagi qaraim yozuvida vaqtli matbuot — gazeta va jurnallar nashr qilina boshlandi, bu madaniyat yo'nalishlari faqat tarjima xarakteriga ega edi; qaraim tilida nashr qilingan poeziya, folʼklor namunalari va boshqa yozuvlar faqat tajrimachilik xarakteriga ega, tarqalish doirasi ham juda tor edi. Hozirgi qaraimlar esa Litva tarkibiga kirishgan, ular rus tilidan hamda kirill yozuvidagi qaraim adabiy tiliidan to'liq foydalanishmoqda.

QO'MIQ TILI

Qo'miq tili Dog'istonda yashovchi qo'miqlar tili bo'lib, ularniing (umumiy soni 200 m. k.) tillari qipchoq tili guruhining qipchoq-poloves kichik guruhiga kiradi. Bu til mo'g'ullar bosqiniga qadar qipchoq va o'g'uz qabilalarining birlashuvidan yuzaga kelgan. Qo'miq tili boshqa qipchoq hamda qipchoq-poloves tillaridan (leksik xususiyatlaridan tashqari) quyidagi belgilari bilan farqlanadi:

a) so'z boshida jarangsiz *k* o'rnida *g* jaranglisining qo'llanilishi: masalan: *gishi* (*kishi* o'rnida);

b) portlovchi-cho'ziq *x*, *h* undoshlarining borligi;

v) qo'miq tili uchun quyidagi grammatik shakllarning mavjudligi xarakterli: ravishdosh shakllari *-ag'an/-egen*, qaratich kelishigining qisqa shakllari *-ni/-ny*, sifatdosh qo'shimchalari *-ar/-er* va *-ır/-ir* ning qo'llanilishi.

Qo'miq tilining fonetik jihatdan uch asosiy lahjasi bor (leksik va morfologik xususiyatlardan tashqari):

a) xaydaq lahjasi o'zining portlovchi burun undoshlariga egaligi bilan farqlanadi, ya'ni k^k , t^x , g^x, n^x va h. k., shuningdek boshqa dissimiliyatsiyalar, masalan, *getmax* (*getmak* o'rnida) «ketmoq»;

2) bo'ynoq lahjasi, cho'ziq undoshlarga egaligi bilan hamda so'z boshidagi undoshlarning jaranglashuvi bilan o'ziga xos;

3) xasavyurt lahjasi, bu lahjada undoshlarning orqa qator artikulyatsiyasi ustun.

Qo'miq adabiy tilining asosini xasavyurt va bo'ynoq lahjalari tashkil etadi. Bu til 1917 yildan keyin tashkil topdi. Qo'miq tili dastlab arab yozuvida, keyin lotin yozuvida, 1939 yildan keyin rus alifbosi asosida ish olib boradi. Hozir qo'miq tilida gazetalar, jurnallar, badiiy va siyosiy hamda badiiy adabiyotlar, shuningdek, boshlang'ich va o'rta maktab darsliklari nashr qilinadi.

QORACHOY-BALQAR TILI

Qorachoy-balqar tili unchalik katta bo'lmagan etnik guruhlar bo'lmish qorachoylilar (*qorachaylar* 120 ming kishi) va balqarlilar (*balqar //malqarlar* 60 ming kishi)ning tili bo'lib, ular Kavkazda va Qirg'izistonda yashovchi qipchoq-poloves kichik guruhga kiruvchi turkiy xalqlardir.

Qorachoy-balqar tili kelib chiqishi jihatidan qipchoq tili bilan mustahkam bog'liq, ya'ni qipchoq qabilalari tili bo'lib, qo'miq hamda no'g'ay jonli tillariga va poloves o'lik tili bilan ham aloqador. Bu til qipchoq-poloves kichik guruhiga kiruvchi boshqa tillardan quyidagi belgilari bilan farq qiladi:

f o n e t i k q u r i l i s h d a :

a) qorachoy-balqar shevalarida *ch>ts* o'tishining borligi: masalan: *qats-* (boshqa tillarda *qach*) «qoch», *axtsits* (boshqa tillarda *axchyich<achxyich>achqych*) «ochqich»;

b) ba'zi so'zlar boshidagi *y* ning tushib qolishi, masalan: *axshi* (*yaxshi* o'rnida), *Axya* (*Yaxya* o'rnida) «YAhyo»;

v) ba'zi shaxs-son qo'shimchalaridagi *-n* tushib qolishi, masalan: *-ma/-me* (*-man/-men* o'rnida — I shaxs, birlik), *-sa/-se* (*-san/-sen* o'rnida — II shaxs birlik).

g) qorachoylar tilida *p,t,q,k,g* singari burun undoshlarning va balqarlar tilida esa *s...>z...* singari til-tish undoshlarining mavjudligi;

g r a m m a t i k q u r i l i s h d a :

a) qaratqich kelishigining qisqargan shakli bilan tushum kelishigi (*-ny/-ni*) ning shaklan bir xil ekanligi;

b) dona sonlarning yigirmalik hisobining borligi.

L u g' a t b o y l i g i s o h a s i d a o'ziga xos qo'shni Kavkaz tillaridagi so'zlarning mavjudligi.

Qorachoy-balqar tilida bir qancha shevalar mavjud: ularni ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchisi, balqar (*malqar*) dialekti *ts* belgili bo'lib, unda balqarlarning asosiy qismi gaplashadi, ikkinchisi, qorachoy (*qarachay*) guruhini tashkil qiluvchi shevalar, bu guruh *ch* belgili va unda asosan qorachoylar gaplashadi.

ts belgisi balqar dialektining asosiy xususiyatlari;

f o n e t i k t u z i l i s h d a:

a) *ch* > *ts* o'tishi, masalan: *kutsuk* (*kuchuk* o'rnida) «kuchuk», *bytsaq* (*bychaq* o'rnida) «pichoq»;

b) *жç(j)* > *z* o'tishi, masalan: *жuz* (*juz* o'rnida) «yuz»; *zyl* (*jyl* o'rnida) «yl».

v) *b/p* > *f* sprintizatsiyasi borligi, *uruf* (*urup* o'rnida) «urib»; *tsaf-* (*chap-* o'rnida) «chopmoq»; *ch/k* > *x*: *ax tsefxen* (*aq chepken* o'rnida) «oq mavut».

g r a m m a t i k q u r i l i s h d a:

a) shaxs-son qo'shimchalari oxirida *n* tovushining orttirilishi: *kelemen* (*keleme* o'rnida) «kelaman»;

b) istak mayli qo'shimchasi *-ayin* (*-ayim* o'rnida), masalan: *men buzдыrayын* (*men buzдыrayым* o'rnida) «men buzdirayin».

L u g' a t b o y l i g i d a - balqarlar tilidagi ruscha so'zlarning aksariyati Oktyabr revolyutsiyasigacha qabul qilingan.

ch belgili qorachoy dialekti yuqoridagi belgilarga qarama-qarshi turadi. Bundan tashqari, aralash shevalar ham mavjud. Hozirgi qorachoylar va balqarlar rus grafikasidagi yagona alifboga hamda adabiy tilga ega.

QRIMTATAR TILI

Qrimtatar tili uncha katta bo'lmagan etnik guruh tilidir. U qipchoq til guruhining qipchoq-poloves kichik guruhiga taalluqli.

Qrim (tavriya) tatarlari tillariga ko'ra ikkiga bo'linadi: a) qrimliklar, shimolliklar yoki cho'llik tatarlar (*no'g'ay*); b) janubiy qirg'oq tatarlari. Birinchi guruh tatarlarining tili o'zining eng asosiy belgilari bilan qipchoq-poloves kichik guruhiga mansub.

Ikkinchi guruhdagilari esa xuddi shu xususiyatlari bilan o'g'uz-saljuq kichik guruhiga kiradi. SHimoliy yoki cho'l tatarlari quyidagi xususiyatlari bilan qipchoq-poloves kichik guruhiga kirishishini namoyon qiladi:

f o n e t i k t u z i l i s h i d a:

a) so'z boshida va oxiridagi *h* ning tushib qolishi: *ava* (*hava* o'rnida) «havo»; *saba* (*sabah* o'rnida) «sabo»;

b) qipchoq-no'g'ay tilidagi boshqa turkiy tillardagidan bir oz orqa qator (ammo chuqur orqa qator emas) *k* ning mavjudligi, maslan: *kun* «kun» (*k...un* emas);

v) old qator, keng unlilardan keyin keladigan undoshlarning yumshalishi, masalan; *soz...* (*söz* o'rnida) «so'z»;

g) y undoshidan keyin keluvchi undoshlarning yumshalishi, masalan: *sayl...amaq* < saylamoq, *bayl...amaq* < baylamaq.

g r a m m a t i k q u r i l i s h d a:

a) I va II shaxs kishilik olmoshidan keyin keladigan qaratqich kelishigi qo'shimchasi –*im* shaklida qo'llanadi, masalan: *menim, bizim* (*meniň, bizniň* o'rnida);

b) sifatdoshning birinchi shaxs birlikdagi, bo'lishsiz shakli –*maz/-mez* tarzida qo'llanishi, masalan: *men yazmam* (<*men yazmazım*), «men yozmayman», *men kelmen* (<*men kelmezim*) «men kelmayman».

L u g' a t b o y l i g i jihatidan faqat qrimtatar tili leksikasida qo'llanadigan so'zlarning mavjudligi. Masalan: *balaban* «katta», *qaranta* «oila».

Qirimtatar tili yuqorida ta'kidlanganidek, ikki guruhga — shimoliy va janubiy lahjalardan iborat. Biroq bu til genetik jihatdan belorus va litva tatarlari bilan ham bog'liq; qrimchoqlar, qrim juhudlari ham qrimtatar tilida gapirishgan.

Qrimtatar tili Oltin O'rda adabiy tilida bitilgan ko'p sonli yozma yodgorliklar Qrim xoni yorliqlari hamda boshqa hujjatlarda ham o'z aksini topgan. Undan keyin bu adabiy til bir necha bor isloh qilindi: dastlab, yozuv arab alifbosida, so'ng lotin va keyin rus alifbosiga ko'chdi.

QIPCHOQ-BULG'OR KICHIK GURUHI

Qipchoq-bulg'or kichik guruhi o'rta asrlarda mavjud bo'lgan Oltin O'rda adabiy tili zamirida paydo bo'lgan va hozirga tatar hamda boshqird tillarini o'z ichiga oladi.

Tatar va boshqird tillari Oltin O'rda hududida yashagan bulg'or hamda qipchoq qabilalari tillarining o'zaro aloqalari jarayonida yuzaga kelgan.

XIX asrgacha ruslar hamma turkiy xalqlarni tatarlar deb atashgan, hozirgi tatarlar esa Volganing o'rta oqimi hududida yashaganlar, ularning tili haqida Misrda yaratilgan qipchoq tili haqidagi grammatika va lug'atlar xabar beradi.

Oltin O'rda xonligi qulagandan so'ng uning o'rnida Qozon, Astraxan, Sibir xonliklari yuzaga keldi, tatar tili ham ayni shu paytda shakllandi.

Tatar tili ham, boshqird tili ham shakllanishda murakkab jarayonni boshidan kechirgan; ular juda ko'p qabila tillari zamirida yuzaga kelgan. Ayniqsa, boshqird tili o'zgacha xarakterga ega, chunki boshqirdlar boshqa turkiy xalqlardan ajralgan holda tog'lar bilan o'ralgan vodiya yashagan, shuning uchun ham ular tilida qadimgi boshqird tilining belgilari saqlanib qolgan. Bu hol uni SHarqiy Xunn tarmog'i tillari bo'lmish xakas, tuva, yoqut tillariga yaqinlashtiradi, mazkur tillar esa qadimgi uyg'ur tili asosida yuzaga kelgan. Ikkinchi tomondan, huddudiy chegaralanganlik, boshqird tilining o'ziga xosligini belgilagan.

SHunday qilib, tatar va boshqird tillari tarixi va genialogik jihatdan qipchoq guruhining qipchoq-bulg'or kichik guruhiga taalluqli. Bu guruh

tillari quyidagi xususiyatlari bilan qipchoq va bulg'or qabila tiliga o'xshaydi:

1. Unlilar tizimda 9 unling mavjudligi bilan chuvash tiliga o'xshaydi, undan o'ziga (ya'ni, faqat tatar va boshqird) tegishli so'zlardagi unlilar bilan farqlanadi, *e* unlisi rus va o'zbek tiliga mos keladi, *e* va *a* tatar va boshqird tillarida o'z artikulyatsiyasi bilan farqlanadi. *ы, û, ý, ʏ* unlilari o'z artikulyatsiyasi bilan chuvash tilidagi lablangan *ɯ, ʏ* (grafikada *ä*) va *û, ʏ* ga o'xshaydi.

SHu bilan birga, boshqird va tatar tillari boshqa qipchoq tillaridan unlilar tizimi bilan farq qiladi: birinchidan *i, u, ʏ* unlilari qipchoq bulg'or tillaridagi *e, o, ø* ga mos keladi. Masalan, tatar va boshqird tillarida *kil-* (no'g'ay tilida *kel-*) tatar va boshqird tillarida *qîl* (no'g'ay tilida *qol*) «qo'l», tatar va boshqird tillarida *kîl* (no'g'ay tilida *kyl*) «ko'l», ikkinchidan, qipchoq-bulg'or tillarida ancha keng unlilar *ɯ, ʏ, o', u* boshqa qipchoq tillarida tor *ɯ, ʏ, o', u* boshqa qipchoq tillarida tor *ɯ, ʏ, o', ʏ* dan farqlandi. Misollar: tat., *qɯz* (no'g'., *qɯz*), tat., *til* (no'g', *til*), tat., *to'r* (no'g'., *to'r-*) «turmoq», *kyl* (no'g'., *kyl*) «kul»; uchinchidan, qipchoq-bulg'or tillarida lablangan *a^o* ning borligi bilan barcha qipchoq tillaridan farq qiladi: *qa^oldi* «qoldi».

2. Undoshlar tizimida (chuvash tilidagi singari) bulg'or tillarida mavjud bo'lganidek, undoshlarning yumshalishi hodisasi (*p, p..., b, b..., t, t..., d, d...*) mavjud emas; *ʏ, j, ж*, undoshlari o'rnida qo'llanuvchi *ç* ham qo'llanmaydi. SHuningdek boshqa qipchoq tilaridan farqli tomonlarga ham ega: birinchidan: boshqird tilidagi *s* va tatar tilidagi *sh...* (yozuvda *ch*) boshqa qipchoq tillaridagidek *ch/sh* kabi almashinib turmaydi, ikkinchidan, tatar va boshqird tillarining undoshlar tizimi boshqa turkiy tillarga unchalik mos kelmaydi.

3. Demak, qipchoq-bulor tillari kichik guruhini undoshlari tatar tilidan farq qiladi; tatar tili esa bu xususiyatlari bilan boshqird tilidan farqlanadi. (asosan, undoshlar tizimida). Boshqird tili o'z konsonantizmi bilan turkiy tilning eng qadimgi holatini saqlagan; bu jihatdan tatar tili hoziri sharqiy tarmoq turkiy tillariga (xakas, tuva, yoqut) ba'zi belgilari bilan yaqin turadi.

HOZIRGI TILLAR. *Tatar tili*

Tatar tili Tatariston respublikasining milliy va adabiy tilidir. SHuningdek, tatar xalqi boshqa qo'shni viloyatlarda va Sibirda (Tomsk, Barabin, Tyumen', Tobol'sk) yashaydilar, ularning umumiy soni 6 mln. Bundan tashqari, Ruminiya va Bolgariyada 50 ming, Turkiya va Xitoyda 30 ming kishi istiqomat qiladi.

Tatar milliy tili uch lahjadan iborat.

1. Markaziy yoki o'rta lahja, Volganing o'rta oqimida yashovchi tatarlar tili bo'lib (2 mln. kishi) Tataristonning asosiy xalqi hisoblanadi. Ular qozon tatarlari (qazanlı) nomi bilan yuritiladi. Markaziy lahjaning asosiy xususiyatlari:

- a) so'z boshida y o'rnida ж qo'llanishi *жçir* «er»;
- b) k, g o'rnida g', q ning qo'llanishi;
- v) a unlisining ikki variantining mavjudligi (rus tilidagi a ning hamda lablangan a ning (o'zbek tilidagi singari) qo'llanishi;
- g) lablangan tor ы i û (yozuvda e) ning borligi. Masalan, qъsh (yozuvda qosh) qush o'rnida «qish».

2. G'arbiy lahja yoki tatar tilining mishar lahjasi. Bu lahja vakillari Tataristondan tashqarida Gorьkiy, Tombov, Voronej, Ryazan, Orenburg oblastlarida, Mordov Muxtor respublikasida, Boshqirdistonda yashaydi (soni 500 ming kishi). Bu lahjaning asosiy xususiyatlari:

- a) so'z boshida ж o'rnida y ning qo'llanishi yir «er»;
- b) q, g' o'rnida k, g qo'llanishi: qarg'a o'rnida karga «qarg'a»;
- v) lablangan a ning yo'qligi;
- g) unlilarning lablanmasligi û (o), ы (ə), u, y: ken (kъn o'rnida; yozuvda kən) «kun,» begen (bъgъn o'rnida, yozuvda bəgen) «bugun»;
- d) ch>ts o'tishining ayrim shevalarda borligi.

3. SHarqiy lahja yoki sibir (turinsk, barabin, tomsk, tyumenь, ishim, yalutar, irtish, tobolk, tar tatarlari) tatarlari lahjalari (soni 150 ming kishi). Lahjaning asosiy xususiyatlari:

- a) jarangli undoshlarning jarangsizlanishi: b>p, d>t, z>s;
- b) ch>ts ga o'tishi barobinlilar tilida aktsa (aqcha o'rnida) «pul»;
- v) so'z boshidagi ж>y ning ch ga o'tishi.

Bundan tashqari, (asosiy lahjalardan tashqari) aralash shevalar ham mavjud.

1. Astraxan tatarlari (60 ming kishi) lahjasi Volganing quyi oqimida yashaydilar, ular bir paytlar Kavkazdan kelib qolgan: yurtga hamda kundura tatarlariga (Qarag'ach no'g'aylari qabilalaridan) bo'linadi, ular Volga bo'yi tatarlari bilan qorishib ketgan. Hozir Astraxan tatarlari Volga bo'yi tatarlari lahjasida, ya'ni hozirgi tatar adabiy tili uchun asos bo'lgan markaziy lahjada so'zlashadi. Ular o'z lahjalari — SHimoliy Kavkaz no'g'aylari lahjasining ayrim fonetik, leksik va morfologik xususiyatlarini saqlab qolgan.

2. Qosimov tatalari (10 ming kishi) Qosimov hamda sobiq Ryazan guberniyasining boshqa rayonlarida yashaydi, ularning lahjasi markaziy yoki volga bo'yi tatarlari va g'arbiy yoki mishar (misheryak) tatarlari lahjasi oralig'ida turadi, Qosimov tatarlari lahjisining asosiy belgilari:

- a) til orqa q, g', h undoshlarining to'liq unutilganligi va ular o'rnida arab tilidagi ع ga yaqin bo'g'iz tovushining almashinishi, masalan: al (qal-o'rnida) «qol».

- b) so'z boshida y o'rnida qo'llanishi, masalan: jul (yo'l o'rnida) «yo'l».

- v) i unlisining boshqa lahjalaridagi e o'rnida qo'llanishi, masalan: tirizi (tereze o'rnida) «deraza»

3. Boshqirdistondagi permlik yoki glazovskiylar tatarlar (600 ming kishi) aralash lahjada gaplashadi; ularning tili tatar va boshqird tillari oralig'ida turadi.

4. Ural tatarlari, jumladan, no'g'ayboqlar (oldingi SHimoliy Ural uezdida yashovchi tatar-xristianlar yoki «kryashyonlar») soni 150 ming kishi, ular tilining asosiy xususiyatlari:

a) so'z boshida y o'rnida ж qo'llanishi, masalan: *жүгүт*, (yozilishi eget) «yigit».

b) qo'shimchalarda ch>s almashinuvi: *kilgûs* (*kilgûch* o'rnida) yozilishi «kilgech».

v) diftonglarning cho'ziq unlilarga almashinishi, masalan: *bozau* (*buzav* o'rnida, yozilishi *buzau*) «buzoq» *shuli* (*shulıy* o'rnida) «shunday»; *ətə* (*əûtə* o'rnida) «aytib».

Tatar jonli tili bulg'or va qipchoq qabila tillarining birlashuvidan yuzaga kelgan, uning bir til sifatida tarkib topishi Oltin O'rda davlati barpo bo'lgan davrga to'g'ri keldi va shu davrdan boshlab tatarlar O'rta Volga oqimida o'troqlashgan. Tatar tili Oltin O'rda xonligi qulab, Qozon xonligi yuzaga kelgandan keyin to'liq shakllandi.

Tatar yozma tili ham Oltin O'rda davrida yuzaga keldi va uning taraqqiyotida, dastlab, uyg'ur tili va yozuvi hamda Qoraxoniylar davlati bilan bog'liq bo'ldi; bu paytda yozuv ishlari kotiblar mo'g'ullar qo'lida edi.

Jo'ji ulusining g'arbida yozilib, Qutb tarjimasi (XIV) bilan bizgacha etib kelgan. «Xusrav va SHirin» va boshqa xon yorliqlarida uyg'ur tilining elementlari saqlanib qolgan. Bu holat mazkur yodgorliklar tilining Oltin O'rda hamda Xorazmda mavjud bo'lgan Markaziy Oltin O'rda tilidan farqlanishini ko'rsatadi.

Qadimgi uyg'ur yozuvidan foydalangan xalqlar tilida qadimgi turkiy tilning qoldiqlari saqlanib qolgan. Bu ta'sir eski o'zbek tilida bo'lganidek, tatar tilida ham o'z izini qoldirgan.

Oltin O'rda va CHig'atoy ulusida O'rta Osiyo yozma tili (o'rta asrlarda) rivoj topdi. Temuriylar davriga kelib o'zbek xalqining ulug' adibi Alisher Navoiy arab alifbosida ijod qildi; bu davrda eski u yoyg'ur yozuvi ham iste'molda edi.

Uyg'ur va eski o'zbek tillarida bitilgan badiiy adabiyot xalq tilidan ancha uzoq edi, bu traditsiya XIX asrning oxirigacha davom etdi. Faqat XX asr boshlariga kelib Volga tatarlari tilidagi badiiy adabiyot yuzaga kela boshladi va XX asr boshlariga kelib tatar tilidagi yozma asarlarning mavqei kuchaydi.

Hozirgi tatar tilining asosini markaziy va shimoliy lahja tashkil qiladi. Oktyabr inqilobigacha va undan keyingi davrlarda tatarlar arab alifbosidan foydalanganlar, XX asrning 20-yillari o'rtalarida arab alifbosini isloh qilib, tatar tili uchun xos bo'lmagan harflarni chiqarib tashladilar, kerakli harflarni qo'shdilar; unlilar uchun maxsus harflardan foydalandilar. 20-yillar oxirida lotin alfavitiga o'tildi, 1938 yilda esa rus alifbosidagi tatar yozuvi tashkil etildi.

Boshqird tili

Boshqird tili Boshqirdiston respublikasining milliy va davlat tili (boshqirdlar soni 2 mln. kishi).

Boshqird jonli tili ko'p shevali bo'lib, ularni ikki lahjaga ajratish mumkin: quvaqan yoki tog'lilar lahjasi. Bu lahja Boshqirdistonning shimoliy sharqini va janubiy sharqidagi tatarlar tili hisoblanadi; ikkinchi lahja respublikaning janubiy-g'arbi hamda markaziy rayonlari aholisining tilidir.

Bu ikki lahja leksik, fonetik, morfologik, va shuningdek, sintaktik tomondan ham farqlanadi.

Boshqird tili lahjalari bir qancha undoshlarning moslashib kelishi bilan xarakterlanadi, masalan *h* (yozuvda *h*) *s* yoki *s'* bilan moslashadi, masalan, *hыv* (s'ыv yoki sыv⁰ o'rnida) «suv», *hы'v⁰hыz* («suvsiz» ba'zi shevalarda, *h* bilan boshlanuvchi so'zlar, arab tilidan o'zlashgan so'zlardan tashqari *s'* ga o'tadi; *s'ы'v* (*hы'v* o'rnida); ba'zi shevalarda *h* undoshi so'z yoki bo'g'in oxiri hamda boshda *s/z* o'rnida qo'llanadi, masalan: *aqhak* «oqsoq», *qыh* (*qы'z'/qы's'* boshqa shevalarda) «qiz», ayrim shevalarda, *s'*, *ch*, *h* undoshlari *s* ga o'tadi, masalan: *salg'ы'* (*chalg'i'* o'rnida), *as* (*ach* o'rnida) «och».

Boshqird tilining ayrim dialektlari ba'zi belgilari bilan boshqard tilidan ham, boshqird tilining o'zi esa boshqa turkiy tillardan umumiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. (buni boshqird tilining G'arbiy Xunn tarmog'ining qipchoq-bulg'or guruhiga kirishi bilan ham izohlash mumkin).

Bu xususiyat, ayniqsa, boshqird tilining undoshlar tizimida ko'rinadi; unlilar silsilasi tatar tili bilan bir xil.

Undoshlar tizimining asosiy xususiyatlari:

a) *z* faqat o'zlashma so'zlarda o'z so'zlarida *z'* qo'llanishi: *qы'z'*, (*qы'z* o'rnida);

b) *ch* faqat o'zlashma so'zlarda, o'z so'zlarida *s* fonemasining qo'llanishi: *бы'saq* (*бы'chaq* o'rnida) «pichoq»;

v) ayrim o'zlashma so'zlar oxiridagi *s* (masalan tatar tilidan o'zlashgan) boshqird tilidagi *s'* bilan almashinuvi: *bas'-* (*bas-* o'rnida) «bosmoq»;

g) so'z va qo'shimchalar boshida keladigan *s* undoshining (tatar tilidan yoki boshqa turkiy tillardan so'zlashgan) boshqird tilidagi *h* bilan almashinuvi, masalan, *hы'ы'р* (*сы'ы'р* o'rnida) «sigir»;

d) so'z boshida keladigan *b* undoshining (ayrim shevalardan tashqari) *p* bilan almashinuvi, masalan, *бы'saq* (*пы'chaq* o'rnida) «pichoq»;

e) so'z boshida tatar tilidagi *y/j/ж* o'rnida *y* undoshining qo'llanishi, masalan: *yir* (*жир* o'rnida) «er».

Boshqird xalqi va tili ko'plab til va xalqlarning o'zaro aloqadorligidan shakllangan, bu aloqadorlikni boshqird tilida uchrovchi tatarcha, qipchoqcha va bulg'orcha unsurlarning mavjudligi ko'rsatadi.

Boshqird jonli tili Oltin O'rda xonligining qulashidan so'ng shakllangan bo'lsa, boshqird adabiy tili Oktyabr inqilobidan keyin yuzaga keldi. Bungacha ular dastlab, eski tatar tilidan, XX asr boshlarida yangi tatar

tilidan foydalanishgan. Boshqirdiston Muxtor Respublikasi tashkil etilgach, boshqird milliy tili quvaqan va yurmatik dialektlari asosida paydo bo'lgan. Boshqird yozuvi, barcha g'arbiy turkiy xalqlaridagidek, dastlab arab, keyin lotin va eng so'nggida, rus alifbosi asosida ish olib boradi. Hozirgi boshqird tili har tomonlama rivoj topgan, unda ko'p sonli gazeta va jurnallar nashr qilinadi, maktab-maorif ishlari olib boriladi.

Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar6

1.Qadimgi qipchoq tilining qanday xususiyatlari bilan boshqa qipchoq tillaridan farqlanadi?

2.Hozirgi qipchoq-poloves tillariga qaysi tillar kiradi?

3.Qarayim tilining asosiy belgilarini tushuntiring.

4. Qo'miq tili qarayim tilidan qanday farqlanadi?

5. Qorachoy-balqar tili haqida nima bilasiz?

6. Qrimtatar tillari haqida ma'lumot.

Zaruriy adabiyotlar:

1.Baskakov N.A. Vvedenie v izuchenie tyurkskix yazыkov. M., "Vysshaya shkola", 1969, 24—36-betlar.

2.T.Jumayev. Turkiy tillarining tarixiy qiyosiy tahlili. Qarshi, "Nasaf", 2005, 4-10-betlar.

Qo'shimcha adabiyotlar6

Акбаев Ш. Х. Фонетика диалектов карачево-балкарского языка. Чоркасск, 1963.

Джаманов Н.г. Деэпричация в кумикском литературном языке. М., 1967.

Мусаев К.М грамматика карайимского языка. М., 1964.

Севортян Э.В Крымско-татарский язык. В кн.: Языки народов СССР. М., 1966.

13-ma'ruza: QIPCHOQ-NO'G'AY KICHIK GURUHI

Reja:

1.Qipchoq-no'g'ay tillarining asosiy xususiyatlari.

2.No'g'ay tili va uning lahjalari haqida ma'lumot.

3.Qoraqalpoq tili

4.Qozoq tili.

Tayanch tushunchalar:1.Qipchoq-no'g'ay tilining boshqa qipchoq tillaridan farqi. 2.Hozirgi nug'ay tilining belgilari. 3,Hozirgi qoraqalpoq tilining asosiy xususiyatlari.4. Hozirgi qozoq tilining lahja va shevalari haqida tushuncha.

Qipchoq guruhiga kiruvchi qipchoq-no'g'ay kichik guruhi tillari hozirgi jonli tillarni: no'g'ay, qoraqalpoq, qozoq va o'zbek tilining qipchoq lahjasini o'z ichiga oladi. Bu tillar Oltin O'rda xonligining qulashidan so'ng shakllana boshlagan. Bu tillarning taraqqiyoti qipchoq-poloves hamda qipchoq - bulg'or tillari taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq.

Biz oldingi mavzularda qipchoq tillarining xususiyatlari haqida ma'lumot berdik, endi qipchoq-no'g'ay tillarining eng xarakterli xususiyatlari haqida to'xtalamiz.

Qipchoq-no'g'ay tillari qipchoq-poloves va qipchoq-bulg'or tillaridan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi.

a) *ch* o'rnida *sh* va *sh* o'rnida *s* qo'llanishi, masalan: *qash* < *qach* «qoch», *qys* < *qysh*, «qish»;

b) so'z oxirida *p/d/t* undoshlarining almashinib qo'llanishi. Bu xususiyatlar ham qoraqalpoq va qozoq tillarida ikki xil ko'rinishda:

a) *l/d*, *t* ning almashinishi no'g'ay va qoraqalpoq tilida mavjud emas, qozoq tilida iste'molda, masalan: taslar (no'g'ay, qoraqalpoq tillarida) *tastar*, (qozoq tilida);

b) morfologik jihatdan kelasi zamon qo'shimchasi *-ajaq/-əjak* qoraqalpoq, no'g'ay tillarida bor, qozoq tilida o'chramaydi.

HOZIRGI TILLAR.No'g'ay tili

No'g'ay tili no'g'ay xalqining tili hisoblanadi (umumiy soni 60 ming) ular Stavropol' o'lkasining Qorachoy-CHerkas muxtor viloyatida yashaydilar. No'g'ay tili qozoq va qoraqalpoq tillari kabi *sh* < *ch*, *s* < *sh* o'tishiga ega, masalan: *shyq* «chiq», *tas* «tosh» xususiyatlariga ega. No'g'ay tili lug'at tuzilishi va grammatik qurilishi bilan qoraqalpoq tiliga yaqin tursa, fonetik tomondan, ya'ni assimilyatsiyaning mavjud emasligi bilan qozoq tilidan farqlanadi, masalan: *taslar*, «toshlar», *šyylar*, «qizlar», *šystav* «qishlov», *atlar* «otlar».

No'g'ay tilida uch asosiy lahja bor: 1.Oq no'g'ay lahjasi - bu lahjada CHerkasiya avtonom oblastida yashovchi no'g'aylar gaplashadi. 2. No'g'ay lahjasi - bu lahja Stavropol' o'lkasining Achiquloq va Qoyasul rayonlarida qo'llanadi. 3. Qorano'g'ay lahjasi - bu lahjada Stavropol' o'lkasidagi Qoranug'ay rayonida yashovchi nug'aylar so'zlashadilar. Bu lahjalar orasida oq no'g'ay lahjasi asosiy o'rinni egallaydi.

No'g'ay tili Katta No'g'ay, Oltin O'rda, Qipchoqlar ittifoqidagi qabilalar tili bilan tarixan bog'liq.

No'g'ay adabiy tili 1917 yildan so'ng taraqqiy qila boshladi. 1938 yilda rus alifbosi qabul qilindi. Hozir no'g'ay tilida gazeta-jurnallar nashr qilinadi, maktablar ish olib boradi. CHerkasiya pedagogika institutida bu til o'rganiladi.

QORAQALPOQ TILI

Qoraqalpoq tili Qoraqalpog'iston muxtor respublikasining (soni 600 m. k.) milliy tili, shuningdek, qoraqalpoqlar Xorazm viloyatida, Astraxan viloyatida, Farg'ona viloyatida, Afg'onistonda (4 000) yashaydilar.

Qoraqalpoq jonli tilining shakllanishi pecheneg (X-XI), poloves (X-XIII), Oltin O'rda xonligi (XIII-XIV) va Katta No'g'ay o'rdasi (XV) qabilalarining tillari taraqqiyoti bilan bog'liq. Hozirgi qoraqalpoq tili shakllanishida, bir tomondan, bulg'or tili ta'sir qilgan (bunga til oldi lablangan unlilarning diftonglashuvi hamda *ch* undoshining yo'qligini misol qilib olish mumkin), ikkinchi tomondan, bu tilga o'g'uz tili o'z ta'sirini o'tkazgan: buni so'z boshida jarangli undoshlarning qo'llanishi ko'rsatadi, masalan *ðyz* «tizza», *ðŷz* «tuz», *rŷz* «kuz».

Qoraqalpoq tili ikki asosiy lahjaga bo'linadi: a) shimoliy - sharqiy lahja. Bu lahjada Qorao'zak, Taxtako'pir, Mo'ynoq rayonlari aholisi gaplashadi; b) janubiy - g'arbiy lahja. Bu lahjada CHimboy Kegeyli, Qo'ng'iro't, Xo'jayli, Qipchoq, SHobboz, To'rtko'l rayonlari axolisi so'zlashadi. Bu lahja boshqa-boshqa tillar bilan aralashgan shevalarga ham ega. Masalan, Xo'jayli, To'rtko'l rayonlari shevalarida turkman tilining, Qo'ng'iro't, Qipchoq, SHabboz, To'rtko'l rayonlari tillarida o'zbek tilining ta'siri seziladi.

SHimoliy - sharqiy va janubiy - g'arbiy lahjalari orasida quyidagi tafovutlar mavjud:

a) *ə* unlisi shimoliy g'arbiy lahjada bor, janubiy-g'arbiy lahjada mavjud emas;

b) shimoliy-sharqiy lahjada lab garmoniyasi oz bo'lsa-da bor;

v) shimoliy-sharqiy lahjada tor, lablanmagan unlilar, janubiy-g'arbiy lahjada esa lablangan unlilar qo'llanadi: *бъзав-buzav*, *мылмық-мълмуқ* «miltiq»;

g) shimoliy - sharqiy lahjada *j*, janubiy - g'arbiy lahjada *ж* qo'llanadi;

d) shimoliy-sharqiy lahjada *b*, janubiy-g'arbiyda *p* qo'llanadi: *by* v *-pŷv* «bug'», *bašŷır-pašŷır* «baqir»;

e) shimoliy-sharqiy lahjada so'z boshida *t*, *k/q*, janubiy-g'arbiyda *d*, *g*: *ko'z-guz*, «kuz» *tuz-duz* «tuz»

j) shimoliy-sharqiy lahjada *h* qo'llanmaydi, janubiy-g'arbiy lahjada kam bo'lsa-da qo'llanadi.

z) assimilyatsiya shimoliy-sharqiy va janubiy-g'arbiy lahjalarida qarama-qarshi holatda qo'llanadi: *ll<nl*, janubiy-g'arbiy lahjada; *nn<nl* shimoliy-sharqiy lahjada, masalan: *кŷllar-кŷnnar<кŷplər* «kunlar».

Qoraqalpoq adabiy tili 1917 yildan keyin ishlab chiqildi. Unda badiiy adabiyot, gazeta jurnallar chop qilinadi. Maktab-maorif ishlari olib boriladi Nukus DU va pedagogika institutlarida qoraqalpoq tili milliy asosda o'rganilmoqda.

QOZOQ TILI

Qozoq tili Qozog'iston respublikasining milliy tili (qozoqlar: qirg'izlar, qirg'iz-qaysaqlar, qozoqlar va qaysaqlar nomi bilan atalib kelingan, umumiy

son 5 mln.k.) Bundan tashqari, qozoqlar Xitoyda, (600 ming), Mo'g'ulistonda (60 ming), Afg'onistonda (4 ming) kishi yashaydilar.

Qozoq tili qoraqalpoq, va no'g'ay tillari bilan qipchoq-no'g'ay guruhiga kirsa-da, fonetik tomondan ayrim farqlarga ham ega. Qozoq tiliga xos bo'lgan *ch* tovushli so'zlar *sh* bilan (*qash*<*qach*), *sh* o'rnida *s* (*qyl[^]s-qyl[^]sh, ti[^]s-ti[^]sh*) qo'llanishi mavjud.

Qozoq tili o'z guruhida chorvachilik terminlarining ko'p aks ettirganligi bilan boshqa turkiy tillardan farq qiladi:

fonetika sohasida:

a) *l* undoshining assimilyatsiyalashuvi: (*d/t/n*). *qyl[^]zdar* «qizlar», *attar-*«otlar», *taslar-* «toshlar».

b) almashinib qo'llanuvchi *y/j/ж* o'rnida *j* qo'llanadi: *jol* (*yol* va *jol* o'rnida) «yo'l».

grammatika sohasida:

a) sifatdoshning *-atyl[^] n/-eti[^]n/-i[^]tyl[^]n/-i[^]ti[^]n* (no'g'ay tilidagi *-atag'an/-eteg'en*, qoraqalpoq tilidagi *-atyg'y[^]n/-etyg'y[^]n*) shaklining qo'llanishi;

b) sifatdoshning *-ажақ/-ежек* yoki *-ayaq/-eyaq* shaklining qo'llanmasligi.

Olimlarning fikriga qaraganda qozoq tili sheva va lahjalarga boy til hisoblanadi. SHuning uchun bu tilda mavjud bo'lgan lisoniy birliklarning turg'un holatini aniqlash ancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Farazlarga qaraganda, qozoq tilining ikki yoki uch asosiy lahjasi bor: shimoliy-sharqiy, janubiy va g'arbiy.

1. SHimoliy-sharqiy lahja qozoq adabiy tilining asosini tashkil qiladi. Bu lahjada Abay Qo'nonboev (1845-1904), Ibray Oltinsarin (1843-1889) kabi qozoq adabiy tilining asoschilari so'zlashishgan.

2. Janubiy lahja lug'at qurilishi jihatdan adabiy tildan ba'zi bir fonetik farqlarga ega:

a) *k* ning *g* ga o'tish holati: *go'rish* (*ko'ri[^]sh* o'rnida) «guruch», *gøŋ* (*køŋ* o'rnida) «gung»;

b) *j* ning *y* ga o'tishi: *yaq* (*jaq* o'rnida) «yo'q»;

v) *s* ning *sh* ga o'tishi: *my[^]shyl[^]q* (*my[^]sy[^]q* o'rnida) «mushuk»;

g) *l/d/t* ning assimilyatsiyalashmasligi;

d) I shaxs ko'plikdagi *-alyl[^]/-eli[^]* buyruq-istak mayli qo'shimchasining mavjudligi: *boraly* (*baraylyq* o'rnida) «boraylik»;

e) so'ng ko'makchining to'liq shakli *-my[^]nan* qo'llanishi (*-man* o'rnida).

3. G'arbiy lahja janubiy lahjadan quyidagi asosiy xususiyatlari bilan farqlanadi:

a) keng unlilarning tor unlilarga (*o>o'*) o'tishi, masalan: *qul* (*qol* o'rnida) «qo'l»;

b) *y>n* o'tishining so'roq olmoshlarida qo'llanishi: *qanda* (*qayda* o'rnida) «qaerda»;

v) I shaxs ko'plikdagi kishilik olmoshlarida qaratqich kelishigining qisqargan shaklining qo'llanishi: *bizih* (*bizdiŋ* o'rnida) «bizniki»;

g) *bardʼ/ʼbaruv lʼʼ* feʼllarining teng qoʻllanishi.

Qozoq tili oʻz tarixiy taraqqiyoti davrida, birinchidan, gʻarbiy turkiy qabilalar ittifoqi boʻlgan bulgʻorlar, pecheneglar, poloves lar hamda Oltin Oʻrda, Katta Noʻgʻay oʻrdasi kabi davlatlar bilan, ikkinchidan, Oʻrta Osiyo va Qozogʻiston hududidagi Gʻarbiy turk xoqonliklari - Qoraxoniylar va boshqa qabila ittifoqlari bilan hamkorlikda boʻlgan. Qozoq milliy tili esa XV-XVI asrlarda toʻliq shakllangan.

Qozoq yozma adabiy tiliga XIX asrning ikkinchi yarmida qozoq yozuvchi-allomalari Abay Qoʻnonboev, Ibray Oltinsarinlar tomonidan asos solindi.

1938 yilda arab yozuvi rus alifbosi bilan almashtirildi. Bu yozuv qozoq tilining fonetik qurilishini arab yozuviga nisbatan ancha toʻliq ifodalay oladi, shuning uchun ham hozirgi vaqtda har tomonlama rivojlangan, ilmiy asosda oʻrganilgan til hisoblanadi. Unda koʻp sonli matbuot nashrlari, maktab-maorif ishlari olib boriladi. Hozirgi paytda qozoq tili qozoq xalqining milliy va davlat tili sifatida jahon xalqlar orasidagi nufuzini oshirmoqda.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Qipchoq-noʻgʻay tilining boshqa qipchoq tillaridan qanday far qiladi?
2. Hozirgi nugʻay tilining belgilari haqida nima bilasiz?
3. Hozirgi qoraqalpoq tilining asosiy xususiyatlarini misollr bilan tushuntiring
4. Hozirgi qozoq tilining lahja va shevalari haqida tushuncha bering.

Zaruriy adabiyotlar:

1. Баскаков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. М., "Высшая школа", 1969, 24?36-бетлар.
2. Т. Jumaev. Turkiy tillarining tarixiy qiyosiy tahlili. Qarshi, "Nasaf", 2005, 4-10-betlar.
3. ГНЯ?грамматика ногайского языка. Черкасск, 1973.

Qoʻshimcha adabiyotlar6

1. СКЯ?Современны казахский язык. Алма-ата. 1962.
2. Баскаков Н.А. Ногайский язык и его диалекты. М.,-Л. 1990.
3. Баскаков Н.А. Каракалпакский язык. М., 1990. Ч.1; 1991, 11.

14-ma'ruza: QARLUQ GURUHI TILLARI

Reja:

1. Qarluq uyg'ur kichik guruhining asosiy xususiyatlari.
2. Qoraxoniylar davri va undan keyingi davrdagi uyg'ur til.
3. Qarluq-xorazm, Oltin O'rda va chig'atoy tilining asosiy xususiyatlari.
4. YAngi uyg'ur tilining asosiy belgilari.

Tayanch tushunchalar: 1. Qarluq guruhi tillarining boshqa guruh tillaridan farqlari. 2. Bu guruh tillarining shakllanishi uchun qoraxoniylar davlati tili hamda eski uyg'ur tilining asos bo'lganligi. 3. Qarluq-xorazm, Oltin O'rda va chig'atoy tillari yangi uyg'ur va hozirgi o'zbek tilining shakllanishi poydevor bo'lganligi. 4. YAngi uyg'ur tilining boshq tillardan farqlari.

Qarluq guruhi tillari SHarqiy Xunn tillari va G'arbiy Xunn tillari orasida turuvchi oraliq uchinchi guruh tillari hisoblanadi. Bu tillarning yuzaga kelishi Qoraxoniylar davri (X-XI asrlar) davlatining paydo bo'lishi bilan bog'liq. Bu tillarga g'arbiy va sharqiy tillar, shuningdek, tojik va eron tillarining kuchli ta'siri ham seziladi.

Qarluq guruhi tillari ikki kichik guruhga bo'linadi: 1) qarluq-uyg'ur tili; bu til ikki qadimgi tilni o'zida mujassam etadi: qoraxoniylar davlati tili (X-XI asrlar) («Qissasul-anbiyo»); 2) qarluq-xorazm tili; bu til qadimda qarluq-xorazm tili yoki Ahmad YAssaviy asarlari tili edi (XII). Bu davrda, Oltin O'rda tili (sharqiy til), chig'atoy tili va eski o'zbek tillari ham mavjud bo'lgan. Hozir bu tillar o'zbek va yangi uyg'ur tillari deb yuritiladi. Bu guruh tillari yag'mo, tirgesh, qarluq urug' tillaridan kelib chiqqan. Qarluq tillarining ibtidosi Qoraxoniylar davlatidan boshlangan bo'lsa, keyin o'g'uz, qipchoq, saljuq qabilalarini birlashtirgan Xorazmshohlar ixtiyorida bo'lgan. O'rta asrlarga kelib, CHig'atoy va Temuriylar davlatlari tarkibiga kirgan.

1. YAngi uyg'ur tili hozirgi Sintsizyan o'lkasining asosiy aholisining tili hisoblanadi. 2. O'zbek tili esa O'zbekiston respublikasining tub aholisi tilidir. SHuningdek, o'zbeklar Tojikistonda ham ko'pchilik bo'lib yashaydilar.

Qarluq tillarining asosiy xususiyatlari:

fonetika sohasida:

- a) unlilar soni oltitadan to'qqiztagacha;
- b) *g* va *g'* undoshlarining unlilar orasida qo'llanganda o'zgarishi: *bilak-bilagi, bog'-bog'i*.
- v) *p, t, k/q* undoshlarining unlilar orasida jaranglilashmasligi;
- g) *q, g'* undoshlarining mavjudligi va bu undoshlarning so'z oxirida *g'* va *g* ga o'tishi: *sariq-sarig'i, tirik-tirigi*.

leksika sohasida:

o'g'uz va qipchoq tillaridagi sinonimlaridan ko'ra qarluq tili sinonimlarining faol qo'llanishi: masalan, *tola* /qipchoq va o'g'uz tillaridagi *ko'p* o'rnida/, *ustun* /uzra o'rnida/, *boshqa* /o'zga o'rnida/.

grammatika sohasida:

a) *-ag'u/-egy* jamlovchi son qo'shimchalarining o'g'uz tillaridagi *-yla/-ile*, qipchoq tillaridagi *-av'/-ev'* o'rnida qo'llanishi, ya'ni *ikegy* (o'g'uz tillarida *ikkile*, qipchoq tillarida *ekev*).

b) harakat nomi *-unch/ynch* qo'shimchasi orqali yasaladi: *qorqunch*.

v) III shaxs kishilik olmoshi *u(l)* (o'g'uz va qipchoq tillaridagi *ol* o'rnida);

g) sifatdoshning *-gan/-kan* shaklining qo'llanishi (o'g'uz tilida esa *-an/-en* yoki, *-dik/-dyq*);

d) harakat nomi *-g'u/-gy* shakllarining ham mavjudligi, o'g'uz tilida faqat *-maq/-mak*;

e) jo'nalish kelishigi *-ga/-qa/-ka*, qaratqich kelishigi *-nyh/-nih*, chiqish kelishigi qo'shimchasi *-dan* (o'g'uz tilida *-din*).

QARLUQ-UYG'UR KICHIK GURUHI

Qarluq-uyg'ur kichik guruhi tillari kelib chiqish jihatidan bir qabila avlodlari bo'lib, ular X-XI asrlarda Qoraxoniylar davlati davrida yuzaga kela boshlagan. Qoraxoniylar davrida ikki qadimgi til iste'molda bo'lgan. Qoraxoniylarning birinchi tili uyg'ur, tirgesh, yag'mo, qarluq qabilalari orasida qo'llangan bo'lib, unga somoniylar davlatida iste'molda bo'lgan arab va unga fors tillarining kuchli ta'siri singgan.

Qoraxoniylar davrida ikki mashhur asar: YUsuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» va Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asarlari yuzaga kelgan.

Ikkinchi adabiy til ancha keyin - mo'g'ullar bosqinidan so'ng shakllangan va XI-XIV asrlarda amalda edi; bu adabiy til ham uyg'ur tili ta'siri asosida yuzaga kelgan.

Mazkur adabiy tilda Ahmad YUgnakiyning «Hibbatul-haqoyiq (XI-XII), Rabg'uziyning «Qissasu-l-anbiyo» (XIV) asarlari yozilgan. Bu tilda Oltin O'rda xonligining yorliqlari bitilgan, chunki xonlikning mirzalari uyg'urlar edi, shuning uchun ham yorliqlarda uyg'ur tilining belgilari saqlanib qolgan. Qarluq-uyg'ur guruhi tillarining xarakterli xususiyatlari quyidagilar edi:

a) *y>^z* yoki *d*, masalan; *e^zgu~edgu* (*iygi* o'rnida) «yaxshi»; *a^zg'yr~adg'yr* (*ayg'yr* o'rnida) «ayg'ir».

v) ravishdosh qo'shimchalari: *-yu/-yū* (*otlayu*), *-g'yncha* /-ginche (*barlyg'yncha*)ning mavjudligi;

g) ravish yasovchi *-g'usy/-gysi*, harakat nomi- *-g'uluq/ -gylyk* qo'shimchalarining iste'molda bo'lganligi;

d) *-n* rudimentining mavjudligi, masalan: *ichinda*.

QADIMGI TILLAR.Qoraxoniylar davri va undan keyingi davr uyg'ur tili

Qoraxoniylar va undan keyingi davrdagi uyg'ur tili qadimgi uyg'ur tilidan ham fonetik, ham leksik, ham grammatik jihatdan farq qiladi.

Qoraxoniylar davridagi (XI) yodgorliklarga YUsuf Xos Hojibning. «Qutadg'u bilig», Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turk», Ahmad YUgnakiyning «Hibbatu-l- haqoyiq» va Nosiriddin Rabg'uziyning «Qissasu-l-anbiyo» asarlari kiradi.

Bu davr uyg'ur tilining asosiy xususiyatlari:

fonetika sohasida:

a) $d \sim ^{\wedge} z \sim y$ ning almashinib qo'llanilishi, biroq d ning ustunligi:

b) $a-ы$ o'rnida $a-u//o-u$ qo'llanish: *xotun/xatun/* (*xatyn* o'rnida), *altun* (*altyn* o'rnida);

v) so'z oxirida n o'rnida $н$ qo'llanishi: *otun* (*otun* o'rnida) «o'tin».

grammatika sohasida:

a) chiqish kelishigi qo'shimchasi $-дын/-din$ ($-dan/ -den$ o'rnida);

b) tushum kelishigi qo'shimchasi $-ыг'/-ig$ va $-ны/-ni$;

v) istak mayli qo'shimchasi $-g'a/-ge$ ($-g'ay/-gey$ o'rnida) masalan, *balg'a* (*bolg'ay* o'rnida), *bilmega* (*bilmegey* o'rnida);

g) shart mayli qo'shimchasi $-sa/-se$ ($-sar/-ser$ o'rnida);

lug'at boyligi sohasida:

a) fors tili so'zlarining mavjudligi;

b) arabcha so'zlarning ko'payib borganligi.

Qoraxoniylar davri uyg'ur tili bu davr tillari bilan ko'pgina umumiyliklarga ega, shuningdek, o'ziga xos tomonlari ham mavjud: $d \sim ^{\wedge} z \sim y$ ga nisbatan d ning dominantligi. Bu borada «Hibbatul haqoyiq» da d ning dominantligini hisobga olinsa, «Qissasul anbiyo»da z ustunligini ko'rsatish mumkin, masalan $qa^{\wedge}zg'u$ (qayg'u o'rnida), $qu^{\wedge}zuq$ (quyuq o'rnida) *quduq*; $qu^{\wedge}zruq$ (quyruq o'rnida) *quyruq*; Bundan tashqari, qoraxoniylar davri uyg'ur tili uchun $v/v' > f$ almashuvi ham iste'molda bo'lgan. Masalan: *ef* (ev o'rnida) «uy»; *suf* (*suv'* o'rnida), Grammatik va lug'at qurilishi jihatidan ham o'g'uz, ham qipchoq tili unsurlari mavjud bo'lgan. Mahmud Koshg'ariyning qayd qilishicha, bu davr uyg'ur tili turli lahjalardan iborat bo'lgan: arg'ular lahjasi (ular uyg'urlar avlodi bo'lib, y , n dialektli); yag'molir lahjasi (to'quz o'g'uzlar avlodlari), chigil lahjasi (qarluqlar avlodi, ularning tilida $y > \text{ж}$ almashinuvi mavjud); turkman lahjasi (o'g'uzlar avlodi) va qang'lilar tili.

Mahmud Koshg'ariy uqtirib o'tgan X-XII asrlar Qoraxoniylar davri tili hozirgi o'zbek va uyg'ur tillar shevalarida uchraydi. Xususan, hozirgi o'zbek tilidagi uch katta lahjani ham shu davr tili bilan izohlash mumkin.

Qoraxoniylar va undan keyingi davr tili eski o'zbek adabiy tilining (qarluq-xorazm adabiy tili) va Oltin O'rda adabiy tilining shakllanishga asos bo'ldi.

Qarluq- xorazm adabiy tili

Qarluq-xorazm guruhi tillari keyinroq shakllangan tillar bo'lib, uning dastlabki namunasi Ahmad YAssaviyning «Devoni hikmat» (XII) asari hisoblanadi. Bu asarda o'g'uz va qipchoq tillarining belgilari saqlangan.

«Devoni hikmat» an'analarini Sulaymon Boqirg'oniy (Hakim ota) o'z asarida davom ettirib, qoraxoniylar davri adabiy tilidan foydalangan. Qoraxoniylar davri adabiy tili mo'g'ullar bosqinidan keyin ikki til shaklida rivojlandi.

a) Jo'ji ulusining sharqiy qismida iste'molda bo'lgan qarluq-xorazm adabiy tili uning eng yorqin namunasi Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asari;

b) CHig'atoy (XIII-XIV) ulusi adabiy tili hamda eski o'zbek adabiy tili (XV).

Bundan tashqari, eski o'zbek tili rivojida quyidagi tillardan ham foydalanildi: a) Qoraxoniylar davri adabiy tilidan; b) qarluq-xorazm adabiy tilidan (XII); v) chig'atoy tilidan (XIII-XIV).

SHunday qilib, qarluq-xorazm kichik guruhi quyidagi tillarni o'zida mujassam etadi:

- 1) Qarluq-Xorazm tili (YAssaviy va Boqirg'oniy asarlari bilan);
- 2) Oltin O'rda adabiy tili (Jo'ji ulusi tili, bu til qarluq-xorazm adabiy tili uchun ham asos bo'ldi);
- 3) CHig'atoy ulusi adabiy tili;
- 4) Eski o'zbek tilining rivoji uchun temuriylar katta hissa qo'shdilar va hozirgi tillar uchun zamin yaratdilar. YAngi uyg'ur tili (barcha shevalari bilan), o'zbek tilining asosiy lahjalari qarluq guruhi tillarining asosi sanaladi. SHunisi xarakterliki, yangi uyg'ur tilining shakllanishi uchun qarluq guruhining qarluq-uyg'ur kichik guruhi tillari asosiy rol o'ynagan bo'lsa, o'zbek tili uchun bunday ahamiyatga faqat qarluq-xorazm kichik guruhi tillari molik bo'ldi.

Bu tillarda dastlab mavjud bo'lgan sharqiy adabiy tilning unsurlari (qadimgi uyg'ur va qadimgi o'g'uz tillarining) asta-sekin unutilib bordi va g'arbiy tilning (o'g'uz, qipchoq, bulg'or) belgilari ortib bordi.

Qarluq - xorazm, oltin o'rda (sharqiy) va chig'atoy tillari

Qarluq - Xorazm adabiy tili Xorazmda mo'g'ullar bosqinidan oldin yuzaga keldi. Mo'g'ullar bosqinidan keyin bu til bir-biriga yaqin ikkiga: Jo'ji ulusiga tegishli Oltin O'rda adabiy tiliga va CHig'atoy ulusi tili bo'lgan va keyin shakllangan eski o'zbek adabiy tiliga bo'lindi.

Qarluq - Xorazm adabiy tilida Ahmad YAssaviyning "Devoni hikmat" Oltin O'rda adabiy tilida "Nahjul farodis", "Muhabbatnoma", "Xisrav va SHirin", "Me'rojnoma", CHig'atoy ulusi adabiy tilida "Muqaddimatul adab", "YUsuf va Zulayho", "Ravnaqul Islom" asarlari bitilgan.

Bu asarlar tilida muallif lahjasining va davrining xususiyatlari o'z izini ham fonetika, ham grammatika, ham lug'at qurilishida qoldirgan.

"Nahjul-farodis", "Muhabbatnoma" asarlarida o'g'uz va qipchoq dialektlari belgilarini almashinib qo'llanganligini ko'rish mumkin. Masalan, qiyoslang: *b>v vermek (bermek o'rnida) t>d; durtmad (turtmek o'rnida);*

t>d; so'z oxirida at>ad "ot";

ch>sh; ushmaq<uchmaq;

g'>v aviz<ag'iz; b>m: minmak>binmak;

grammatika sohasida:

a) jo'nalish kelishigi qo'shimchasining qisqarishi: *siza (sizga o'rnida).*

SHu bilan birga, o'zbek va yangi uyg'ur tillarining shakllanishi, bir tomondan, qadimgi uyg'ur, tirgash va qarluq qabilalari hamkorligida, ikkinchi tomondan, o'g'uz, qipchoq qabilalari tillari zahirida vujudga keldi. O'zbek tilining qipchoq lahjasi vakillari CHig'atoy ulusi makon tutgan Katta No'g'ay o'rdasi qabilalarining tili hisoblanadi. Bu tillarning yuzaga kelishi uchun tojik, xorazm qabilalarining ham hissi katta bo'lgan.

Qarluq - Xorazm tili qarluq-uyg'ur tilidan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi: a) *z~d>y* ya'ni, *ayg'ır (azg'ır-adg'ır o'rnida);*

b) konvergenstiya natijasida indifferent unlilarning yuzaga kelishi: *i/ı>i;* v) tushum kelishigi qo'shimchasining to'liq qo'llanishi bilan: *qızıını (qızın o'rnida), n* bog'lovchisi undoshning tushib qolishi: *ichida (ichinda o'rnida);*

g) lab uyg'unligining unutilganligi va tanglay uyg'unligining kam saqlanganligi;

d) unlilar tizimining o'ziga xosligi bilan;

e) fe'l yasovchi va harakat nomi yasovchi qo'shimchalarning qarluq va o'g'uz variantlarining parallel qo'llanishi bilan: masalan harakat nomi *g'u/-g'usi;*

-so'z yasovchi *-lik* ning qisqarishi: *sozli (sozlik o'rnida); -g'uluq o'rnida -maq, -maqlıq;* ravish *-g'usi; -ajaq, -g'ay* ga o'tishi ;

j) lug'at boyligining o'ziga xosligi;

z) istak mayli qo'shimchasining originalligi: *bashlag'ayın.*

i) o'tgan zamon qo'shimchasining o'ziga xosligi: *baryar erdi, bardı erdi*

CHig'atoy ulusi adabiy tili Qoraxoniylar davri tilining asosiy xususiyatlarini saqlagan edi. YA'ni, "O'g'uznoma", "Muqaddimatul adab", "Ravnaqul-islom" asarlarida *z-y* undoshlarining almashinuvi ("Muqaddimatul-adab"daz, "O'g'iznoma" va "Ravnaqul-islom" da *z-y*) mavjud. SHuningdek, "O'g'uznoma"da uyg'ur tilining sharqiy dialekti belgilari *y~ch* almashinuvi: *charuq~yaruq, «yorug'»;* *chalğ'uz~yalğ'uz «yolg'iz»;* "Ravnaqul-islom"da turkman tilining belgilari saqlangan.

Bu yodgorliklarning barchasi uyg'ur va arab alifbosida bitilgan.

Eski o'zbek tili va hozirgi o'zbek tili alohida fan sifatida o'rganilganligi sababli biz unga fikrimizni jalb qilmadik.

YAngi uyg'ur tili

YAngi uyg'ur tili O'rta Osiyo va Qozog'iston "200 m. k.") va Sintsizyan-Uyg'ur avtonom viloyati (Xitoy) uyg'urlarining (6 mln.) tili hisoblanadi. Bundan tashqari, uyg'urlar sari uyg'urlar yoki yuyg'ular (10 m.k.) va salarlar (50 m.k.) kabi entik guruhlariga ham bo'linadi.

Uyg'ur tili eski o'zbek tili bilan birgalikda O'rta Osiyoda, Qoraxoniylar davrida yuzaga kela boshlagan. Ahmad YAssaviy asarlari chig'atoy yoki eski o'zbek tilida — qarluq tilida bitilgan yoki g'arbiy va sharqiy turkiy

tillar oralig'ida turadi. Bu tillar Qoraxoniylar davrida (X-XI) yuzaga kelgan bo'lsa ham, unga tojik va eroniy tillarning ta'siri kuchli bo'lgan.

Hozirgi uyg'ur tilida ikki adabiy til mavjud: 1) MDH davlatida yashovchi uyg'urlar adabiy tili (rus grafikasiga asoslangan); 2) Sintsizyanda yashovchi uyg'urlar adabiy tili (arab grafikasiga asoslangan). Bu til ko'p lahjaligi va me'yorlashmaganligi bilan ajralib turadi. Sintsizyan uyg'urlari 4 katta lahjada so'zlashadi:

1) Qashqar-YOrkent lahjasi (YAngi Hisor shevasi bilan); 2) Xo'tan-koreys lahjasi (cherchen shevasi bilan); 3) Oqsuy lahjasi; 4) Fansuy lahjasi.

YUqoridagi to'rt lahjaning asosiy xususiyatlari:

- a) undoshlar orasida *i* va *ы* farqlanishi yo'q;
- b) *ir* > *ij*; *iyt* > *isht* kabi undoshlar almashinuvi.
- v) *t* ning yumshashi va *ch* ga o'tishi *t* > *ch* *tysh* > *chush*; *tish* > *chish*;
- g) tor unlilardan oldin *s* > *ch* ga o'tishi: *syzыq* > *chызыq*;
- d) *q/k* ning unlilar o'rtasida o'zgarmasligi.

Ikkinchi guruh shimoliy dialektga quyidagilar kiradi: 1) ko'chaturfon lahjasi (Qashqar, Ko'cha, Turfon, Komul, Hamiy) va boshqa; 2) iliy yoki quljin lahjasi va MDH mamlakatlarida yashovchi uyg'urlar shevalari.

Bu guruh lahjalarining asosiy xususiyatlari:

- a) *i* va *ы* fonemalarining borligi;
- b) unlilar orasida *k* va *q* undoshlarining jaranglashishi;
- v) ba'zi shevalarda, xususan, turfon shevasida *v* > *g* o'tishi; masalan; *aggel* (*əv v el* o'rnida);
- g) ili shevasida *r* ning (chuchuk) burib talaffuz qilishning borligi.

Uchinchi guruhga faqat lobnor dialekti kirib, u genetik jihatidan qadimgi qirg'iz tiliga bog'lanadi, biroq yangi uyg'ur tili bilan qorishgan.

Asosiy belgilari:

a) yon undoshning ta'sirida *l/d/t/z* undoshlarining o'zak va qo'shimchalarda almashinib qo'llanishi, masalan: *qыззар* > *qызлар*, *toshtar* > *tashlar*;

b) *m/b/p* almashuvi: *baspadы* – *basmadы*;

v) *ts/ss* regressiv assimilyatsiyasining mavjudligi: *unussa* > *unutsa*.

To'rtinchi guruhni salar va sari uyg'ur shevalaridan iborat bo'lgan g'ansuy lahjasi tashkil qiladi. Salar lahjasi o'g'uz-qarluq tillariasosida yuzaga kelgan bo'lib, yangi uyg'ur tiliga qorishgan. Sari uyg'ur lahjasi o'z klassifikatsiyasi bo'yicha turkiy tillarning uyg'ur-o'g'uz guruhiga kiradi.

Sari uyg'ur dialektining asosiy xususiyatlari:

a) so'z boshida jarangli undoshning kelmasligi: masalan, *pas* (*bash* o'rnida), "bosh";

b) *sh* > *s* o'tishning borligi: *tas* (tosh o'rnida);

v) *ch* > *sh* o'tishining mavjudligi: *ash* (*ach* o'rnida);

g) *y* > *z* o'tishining so'z o'rtasida borligi: *azaq* > *ayaq*;

d) *y* > *ж* o'tishi borligi: *жыл* (*yыл* o'rnida);

Uyg'ur lahjalariga xo'tanliklar (400 kishi) tilini ham kiritish mumkin. Ularning tillarini turli olimlar turli xalq tillariga: B.V. Vladimirtsov uyg'ur tiliga, H. Vamberi o'zbeklar tiliga, G. N. Potanin qirg'izlar tiliga tegishli deb bilishgan. Xo'tanliklar tilida turli tillarning belgilari saqlangan, xususan, yangi uyg'ur tilining (so'z oxirida *g'* qo'llanishi: *ochag'* «o'choq»).

Qirg'iz tilining (*təəy* «tuya»), (*oozu* «og'iz»), turkman tilining (*gəl* «qo'l» va h.k.)kabi xususiyatlarini o'zida mujassam etgan.

YAngi uyg'ur tilining shakllanishi o'zbek tilining taraqqiyot yo'liga o'xshaydi, biroq bir qadar farqlarga ham ega. Masalan, ularning etnik tuzilishining farqlanishi, qipchoq tili unsurlarining kamligi, etnik tarkibida qadimgi sharqiy uyg'ur qabilalarining mavjudligi bu fikrlarning isboti hisoblanadi.

O'zbek tili ham, yangi uyg'ur tili ham qarluq tillar guruhining qarluq-xorazm shaxobchasiga tegishli, biroq uyg'ur tili o'zbek tilidan farqlanadigan xususiyatlarga ega. Masalan: a) urg'u olmagan bo'g'inlarda *a*, *ə*, *e* unlilarning tushub qolishi (reduksiya), masalan: o'zb. *bolalari*, uyg'ur. *balliliri* // *balliri*;

b) ikkinchi bo'g'indagi tor unlilarning keng unlilarga yoki birinchi bo'g'indagi keng unlilarning aks ta'siri. Masalan: *al-* "ol"-, *əlish* (*olish* o'rnida), *ket* - *kəlish* (*ketish* o'rnida).

v) so'z o'rtasi va oxirida *r*, *l* undoshlarining tushib qolishi, masalan, *qar>-qa(r)* «qor»; *qarg'a>qa(r)g'a* «qarg'a», *bolsa>bo(l)sa* «bo'lsa.

g) ayrim lahjalarda undoshlarning yumshalishi; masalan, *kim>chim*.

Bundan tashqari, uyg'ur tili o'zbek tili bilan morfologiya va lug'at boyligi sohasida bir qancha tafovutlarga ega; uygur tili xitoy tilidan ko'plab so'zlarni qabul qilgan.

MDH mamlakatlarida yashovchi uyg'urlar yozma adabiy tiliga ega: rus alifbosida, Sintszyan-uyg'ur avtonomi rayonida yashovchi uyg'urlar esa uyg'ur adabiy tili uchun arab yozuvidan foydalanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Qarluq guruhi tillari boshqa guruh tillaridan qanday farqlanadi?
2. Bu guruh tillarining shakllanishi uchun qaysi eski tillar asos bo'lgan?
3. Qarluq-xorazm, Oltin O'rda va chig'atoy tillari yangi uyg'ur va hozirgi o'zbek tilining shakllanishi poydevor bo'lganligini misollar bilan izohlang.
4. YAngi uyg'ur tilining boshq tillardan farqlarini tushuntirib bering.

Zaruriy adabiyotlar:

1. Баскаков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. М., "Высшая школа", 1969, 24?36-бетлар.
2. Т.Жумаев. Туркий tillarining tarixiy qiyosiy tahlili. Qarshi, "Nasaf", 2005, 4-10-betlar.
3. Малов С.Е. Уйгурский язык: хамийский наречие. М., Л. 1954.

4. Наджип Э.Р. Современный уйгурский язык. М., 1960.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Voprosy grammatiki tyurkskix yazykov. Alma-ata. 1958.
2. Issledovanie po sravnitel'no grammatika tyurkskix yazykov. M., -L. 1955.
3. Malov S.E. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. M., 1951.
4. Щербак А.М. Очерки по сравнительной морфологии тюркских языков (Imya), L., 1977.

15-ma'ruza. TURKIY TILLARNING SHARQIY XUNN TARMOFI

Reja:

1. SHarqiy Xunn tarmog'ining asosiy xususiyatlari.
2. Uyg'ur-o'g'uz kichik guruhi tillari.
3. Uyg'ur-tukyu kichik guruhiga kiruvchi tillarning asosiy belgilari.
4. Qadimgi tillarning hozirgi Sibir tillariga bog'liqligi.
5. Hozirgi tuva va tofalar tillarining asosiy xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: 1. SHarqiy Xunn tarmog'i tillarining G'arbiy Xunn tarmog'i tillaridan eng asosiy farqlari. 2. Uyg'ur-o'g'uz kichik guruhiga kiruvchi tillarning boshqa tillardan farqlari. 3. Qadimgi tillarning asosiy belgilarining hozirgi tillarda saqlanib qolganligi. 4. Tuva hamda tofalar tili y belgili til emasligi.

SHarqiy Xunn tarmog'iga kiruvchi tillar SHarqiy Xunn qabila ittifoqiga kiruvchi turkiy qabilalar tillari asosida shakllangan. Bu qabilalar sharqiy tukyu xoqonligi, qadimgi uyg'ur davlati, qirg'iz qabilalari ittifoqiga kiruvchi davlatlar tarkibida b'lgan. SHarqiy Xunn tarmog'iga kiruvchi tillar ikki guruhga b'linadi:

I. Uyg'ur-o'g'uz guruhi. Bunga uch kichik guruh tillari xos:

1. Uyg'ur-tukyu tillari kichik guruhi. Bunga ikki qadimgi til: urxun-enisey yozuvlari tili, shuningdek, qadimgi uyg'ur tili va ikki hozirgi tillar ? tuva hamda karagas tillari kiradi.

2. YOqut guruhi tillari. Bu guruhga faqat yoqut tili tegishli, genetik jihatdan xakas tilining sag'ay va baltir dialektlari yaqin keladi.

3. Xakas kichik guruhi. Bunga a) xakas tili; b) qamasi tili; v) kyuerik tili; g)shor tili; va d) oltoy tilining shimoliy dialektlari kiradi.

II. Qirg'iz-qipchoq guruhiga esa qadimgi qirg'iz tili va ikki hozirgi tillar: hozirgi qirg'iz va oltoy tilining janubiy dialektlari taalluqli.

Turkiy tillarning SHarqiy Xunn tarmog'i G'arbiy Xunn tarmog'idan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:

fonetika sohasida:

a) bu tillarga ikkinchi fonologik ch'ziqlikning mansubligi;

b) *d/t, b/p, q/k, g'/g, s/z* tovushlari har biri fonemaning ikki kʻrinish shaklida bʻlishi;

v) *x, v, h* fonemalarining mavjud emasligi.

leksika sohasida:

SHarqiy Xunn tarmogʻi tillarida mʻgʻul tilining unsurlari mavjud bʻlsa, Gʻarbiy Xunn tarmogʻi tillarida arab va fors tillari unsurlari kʻp uchraydi.

grammatika sohasida :

a) qʻshma gaplarning kamligi, buning natijasida bogʻlovchilar sonining sanoqliligi;

b) ot va feʻl shakllarining juda taraqqiy etganligi.

UYFUR-OʻGʻUZ GURUHI TILLARI

Uygʻur-oʻgʻuz guruhi sharqiy tarmoq tillarining koʻpini birlashtiradi. Bu guruh tillarining koʻpchiligi uzoq tarixga ega. Ular eramizgacha birinchi asrga qadar boʻlgan davrda uygʻur urugʻlaridan kelib chiqqan. Bu tillarning qadimiyligini urxun yozuvining vokalizmi ham isbotlaydi. YAʼni, boshqa tillardagi *e* urxun bitiglarida *i*, yoki undoshlar almashinuvi - boshqa tillarda *sh* bu tillarda *s* qoʻllanishi: *bis-besh* (boshqa tillarda *esh*), *esid-* "eshit" (boshqa tillarda *eshit*), *yir* "er" /boshqa tillarda *yer*/ kabi fonetik hodisalar ham bu fikrni isbotlaydi. Uygʻur oʻgʻuz guruhi tillari uygʻur urugʻlaridan: saraugʻur, onougʻur, qotriugʻurlardan kelib chiqqanligini tarixiy maʼlumotlar isbotlaydi.

Uygʻur urugʻlari ham toʻquz uygʻurlar ittifoqini tuzishda /IX-XIII/ Jungʻar xonligi hududida harakat qilishgan, undan ancha keyin yagʻmo, tirgesh, qarluq va oʻgʻuz qabila birliklari yuzaga kelgan.

Uygʻur-oʻgʻuz guruhi tillarining qirgʻiz-qipchoq guruhi tillaridan farqlaydigan quyidagi xususiyatlari mavjud:

a) *y* oʻrnida *t, d, z* qoʻllanishi, masalan, *atax//adaq//azaq* (*ayaq* oʻrnida/;

b) soʻz oxirida *y* oʻrnida *t/s* qoʻllanishi, masalan, *kut* (*kuy* oʻrnida), *pos* (*bosh* oʻrnida).

v) soʻz oxirida *gʻ* va *g* ning saqlanishi, masalan: *tagʻ* «togʻ»;

UYFUR -TUKYU KICHIK GURUHI

Uygʻur-tukyu kichik guruhi tarixan ikki eng qadimgi tillarni va ikki hozirgi tillarni birlashtiradi, yaʼni, qadimgi oʻgʻuz hamda urxun-enesiy yodgorliklari tili, shuningdek, hozirgi tuva karagas tillari.

Qadimgi tillar, bir-biridan u yoki bu xususiyatlari bilan farq qiladi.

Urxun - enesey yozma yodgorliklarining eng diqqatga sazovorlari quyidagilar:

Bilga xoqon va Kul tagin (731-734) yodgorliklari, Tunyuquq, guduluxon (Qutlugʻxon) sharafiga qoʻyilgan Ongin (692-693) yodgorligi, Ishbara, Bilga, Kulichura yodgorligi hamda boshqa kichik turkiy yodgorliklarni V. V. Radlov va S. E. Malovlar oʻrganishgan.

Qadimgi uyg'ur yodgorliklari turli madaniy an'analarni davr xususiyatiga ko'ra aks ettirish jihatidan quyidagicha tartiblanadi. Birinchisi, eng qadimgi yodgorliklar bo'lib, toshlarda o'yib yozilgan urxun-enisey yodgorliklaridir. Ularning eng ulkani "Selenga toshi" deb yuritiluvchi shamanizm xarakteridagi yodgorlik; nestorian xarakteridagi kichikroq yodgorlik ham birinchi guruh yodgorligi hisoblanadi. Ikkinchi davr yodgorliklariga uyg'ur yozuvidagi so'g'd va uyg'urlar tomonidan bitilgan so'g'd — manixey va budda yodgorliklari hamda ancha kech bitilgan so'g'd yozuvidagi yuridik hujjatlar kiradi.

Hozirgi tuva va karagas tillari ham shu guruhga kiradi, ular boshqa turkiy tillarga nisbatan qadimgi o'g'uz va qadimgi uyg'ur tillarining qoldiqlarini yaxshi saqlashgan. Tuva va karagas tillari tuba /tuva, tuma/ tofa kabi urug' - qabilalar nomlari bilan bog'liq. O'z navbatida, bularning barchasi xakas va oltoy xalqlari tarkibiga mansub. Bu qabilalarning hammasi boshqa qabilalar bilan qorishgan bo'lib, tuva qabila ittifoqiga kirgan; tillari qadimgi o'g'uz, qadimgi uyg'ur davrlari tillariga yaqin. Bu xususiyat ularning qadimgi tukyu hamda qadimgi uyg'ur qabilalaridan kelib chiqqanligini ko'rsatadi.

Uyg'ur tukyu kichik guruhi tillarining asosiy xususiyatlari:

fonetik qurilishda:

a) so'z o'rtasida $t \sim z \sim y$ undoshlari o'rnida d qo'llanishi, masalan: *adaq* (*ataq/azaq/ayaq* o'rnida), *azrylmas* (*ayrylmas* o'rnida), *edgu* (*iygu* o'rnida) «yaxshi»;

b) so'z oxirida almashinib qo'llanadigan $s \sim y$ o'rnida t qo'llanishi, masalan: *qut* (*qus~quy* o'rnida) «quymoq»;

v) *lt*, *rt* undoshlar dissimilyatsiyasi mavjud, masalan: *kerti* (*kordi* o'rnida); *olti* (*oldi* o'rnida) «o'ldi»;

g) lab uyg'unligining yo'qligi;

d) so'z oxirida g , g' jaranglilarining kelishi: masalan: *tag'* «tog'»; *beg* «bek»;

e) H burun tovushining borligi:

grammatik qurilishda:

-ar/-er kelasi zamon sifatdoshi ma'nosini -ur//yr, -ır/ -ir shakllari anglatadi.

Bundan tashqari, bu qadimgi tillarda tushum kelishigi -ıg'/-ig; shart mayli -sar/-ser shakllari yordamida hosil qilingan, masalan: *saqınsar sen* "o'ylasang".

Mazkur kichik guruh tillari arxaik so'zlarining ko'p saqlanganligi, xitoy, sanskrit tillaridan ko'plab so'zlarni qabul qilganligi bilan xarakterlanadi. Fikrimizni urxun yodgorliklari tili bo'lgan qadimgi o'g'uz tili so'zlarining tubandagi qatori tasdiqlaydi: *sabim* "so'zim", *budun* "xalq", *sule* "jang qilish"; *susi* "armiyasi", *ıduq* "qutlug'"; *baliq* "shahar"; *ermish*, *erinch* modal yuklamalarining mavjudligi.

QADIMGI TILLAR. Qadimgi o'g'uz tili yoki urxun-enisey yodgorliklari tili

Qadimgi o'g'uz tili — urxun-enisey yodgorliklari tili bo'lmish qabrtoshlardagi yozuvlar tili, qadimgi o'g'uzlar *tyky, tykye, kek tyrk* nomlari bilan atalgan.

Qadimgi o'g'uz yozma yodgorliklarining yuqorida sanalganlaridan tashqari boshqa bir qancha mayda qabrtosh yozuvlari va run alifbosida bitilgan qog'ozdagi yozuvlar ham topilgan.

Bu yodgorliklar turli turkiy xalqlarga tegishli bo'lib, ularning tillari bir-biriga yaqin. Urxun - Enisey yodgorliklari *t/d* belgili til hisoblanadi, ya'ni so'z o'rtasida almashinib qo'llanadigan *r~t/d~s/z~y* o'rnida *t/d* qo'llanadi, masalan: *adaq (ura/ azaq/ ayaq)* "oyoq".

Urxun - enisey yodgorliklari tili quyidagi belgilari bilan xarakterlanadi:

a) tushum kelishigi qo'shimchasi *-g/-g', -ig/ -yg'* masalan: *chyg'anyg'* "kambag'allarni", *kynchyyg'* "malikani";

b) jo'nalish kelishigi qo'shimchasining qo'llanishida *k/q* undoshlarning faolligi; masalan, *edke* "vaqtga"; *taluyqa* "dengizga";

v) jo'nalish kelishigining *-g'aru/ -gery* shakllarining mavjudligi hozirgi tillardan farqlanadi;

g) fe'l o'zagi sonor undosh bilan tugagan holda o'tgan zamon shaklining jarangsiz undosh bilan boshlanishi; (masalan: *olurтым* "o'tirdim") va fe'l o'zagi jarangli undosh bilan tugagan holda qo'shimchaning jarangli bilan boshlanishi (masalan, *etdim, tikdim* "do'stlashdim";

d) sifatdoshning *-techi/-tachy* (masalan: *eltechi* "o'lgan"); - *duqta/-dykte*, (masalan: *qonduqta* "tuna"), shakllarining borligi;

e) hozirgi-kelasi zamon shakli *-yr/ -ur*, masalan: *biryр* "beradi", *barir* "boradi";

j) shart mayli qo'shimchasi *-sar/-ser*, masalan: *kelser*, "kelsa";

z) o'tgan zamon qo'shimchasi *-mish/-mysh*;

i) hozirgi zamon qo'shimchasi - *ag'ma/-igme*, masalan: *korigme* "ko'radigan", "ko'ryapti",

k) ravishdosh qo'shimchasi *-ы/-i*, masalan: *iti* "qilib", *aly* "olib";

l) ravishdosh qo'shimchasi - *u/-y* masalan: *ely* "o'lib" *yoqadu* «yo'qotib»;

m) ravishdosh qo'shimchasi - *pan/-pen*, masalan: *olurpan* "urug' sepib", *sylepen* "urushib";

n) ravishdosh qo'shimchasi *-ty/-ti*, masalan: *saqынmatы* "o'ylamay";

o) II shaxs birlik va ko'plikdagi o'tgan zamon shakllari *-tyg'/-tig*, masalan: *yaңылtyg'* "yanglishding".

F o n e t i k a s o h a s i d a Urxun - enisey yodgorliklari tilida *e>i* o'tishi, (masalan: *yir*, "er"); *sh>s* o'tishi, (masalan: *esid* "eshit") holatlari uchraydi.

Bu yodgorliklar *l u g' a t b o y l i g i d a* arabiy, eroniy so'zlarning yo'qligi, shuningdek, qadimgi turkiy so'zlarning ko'pligi bilan xarakterlanadi, bu esa hozirgi turkiy tillarda uchramaydigan holat hisoblanadi.

QADIMGI UYFUR TILI

Qadimgi uyg'ur tili yodgorliklariga eng qadimgi (V-IX) yozuvlar kiradi: urxun yozma yodgorligi ("Selenga toshi"), manixey-uyg'ur nomi bilan ataluvchi uyg'ur yodgorligi, qisman, eski uyg'ur alifbosidagi budda-uyg'ur qadimgi qo'lyozmasi. Arab alifbosidagi musulmon uyg'ur yodgorliklari ancha kech, ya'ni, Qoraxoniylar va undan keyingi davrlarga tegishli.

Qadimgi uyg'urlar tili urxun turklari — qadimgi o'g'uzlar tiliga Qoraxoniylar davri uyg'urlari tilidan ko'ra yaqinroq bo'lgan. S. E. Malov "Manixeylar tavbasi" asari haqida shunday yozadi: "Bu asarning fonetik va grammatik xususiyatlari budda-uyg'ur yodgorliklaridan ko'ra runiy yozuvining xususiyatlariga o'xshaydi, ya'ni Urxun-enisey yozma yodgorliklari tiliga ancha yaqin"¹.

Qadimgi uyg'ur va qadimgi o'g'uz tillari *t/d* belgili bo'lib, ancha keyin shakllangan *z/s* va *y* belgili tillardan farq qiladi. Qadimgi uyg'ur va qadimgi o'g'uz tillarida *s~sh* undoshlari almashuvi mavjud edi. Masalan: "Manixeylar tavbasi"da *s* xarakterli, *alqʷs* (*alqʷsh* o'rnida), boshqa yodgorliklarda esa *sh* qo'llanadi. Xuddi shuningdek, bu yodgorliklarda *e~i* unlilarning almashinishi ham kuzatiladi, masalan: *bish* (*bes*h o'rnida). Qadimgi uyg'ur yozuvlarida *lt*, *rt*, *nt* tovushi birikmalari so'z o'zagi tarkibida qo'llanadi. Masalan: *boltumuz* "bo'ldik", *biltimiz* "bildik".

grammatik qurilishda:

qadimgi uyg'ur tilida sifatdashning - *ma* shakli, masalan: *yorig'ma* "kelgan", *tigmaka* "gapirganga" va ravishdashning bo'lishsiz shakllari - *matʷn/* -*metin~medin*, (masalan: *bilmatin* "bilmay", *kirkʷnmedin* "tan olmay") qo'llangan.

L e k s i k a s o h a s i d a eng qadimgi yozma yodgorlik bo'lgan "Manixeylar tavbasi" asarida qadimgi eron tili so'zlari ko'p qo'llangan.

Keyingi davrlarda qadimgi uyg'ur tili qadimgi o'g'uz tili bilan birgalikda tarqalgan va taraqqiy etgan. Masalan, Koshg'ariy "Devon"da bu ikki til orasidagi fonetik va grammatik farqlarni quyidagicha ko'rsatadi:

a) so'z boshida uyg'ur tilida — *m*, o'g'uz tilida — *b*, masalan: uyg'ur. — *mən*; o'g'uz. — *bən*;

b) so'z yasashda *g'/g* undoshlari qadimgi uyg'ur tilida saqlanadi, masalan: *barg'an*; qadimgi o'g'uz tilida tushib qoladi, masalan: *baran*, yoki uyg'ur. *tamg'aq*; o'g'uz. *tamaq* "tomoq";

g) istak mayli shakllari: uyg'. *barg'u*; o'g'uz. *barsaʷ*; uyg'ur. *turag'u*; o'g'uz. *turasʷ*;

Qadimgi davrda bo'lganidek, keyingi davrda ham qadimgi uyg'ur tili dialektlarga ega edi. YUqorida qayd qilingan *s~sh* undoshlari almashinuvi bunga misol bo'la oladi. Mahmud Koshg'ariy o'z "Devon"ida ham X-XI asrlar uyg'ur tilida shevalar bo'lganligini qayd qiladi. Uyg'ur tilining asosiy lahjasi arg'ular tilidir. Bu lahjaning asosiy xususiyatlaridan biri *y* o'rnida *n* qo'llanishi (masalan *qon* (*qoy* o'rnida) bilan *mo'g'ul* tiliga yaqinligini ko'rsatadi. Misollar: *chig'an* (*chig'ay* o'rnida). «kambag'al»; *qanda* (*qayda*

o'rnida). CHigil lahjasi ham qadimgi uyg'ur tiliga kiradi va *d* yoki *y* o'rnida *z* qo'llanishi bilan boshqa lahjalardan farqlanadi. Masalan: *toztı* (*toydu* yoki *doydu* o'rnida); azaq (*adaq* yoki *ayaq* o'rnida);

Qadimgi uyg'ur tili qadimgi yozma tillarning biri edi. YUqorida qayd qilinganidek, u uch alifboda ish yuritgan: 1) "runiy" urxun yozuvidagi toshlarga o'yib yozilgan yodgorliklar; 2) vertikal tarzda yoziladigan qadimgi so'g'd yozuvida; 3) eng keyin qo'llangan arab yozuvida.

HOZIRGI TILLAR. *Tuva tili*

Bu til Tuva respublikasi mahalliy xalqining milliy tilidir. Tuvalarning (*toba*, *tuva* nomlari bilan yuritiladi) umumiy soni 200 000 kishi, shundan 40 000 kishi Mo'g'ilistonda yashaydi. Tuva xalqi tarkibiga uryanxay-manchak yoki kukchilit urug'larini (ularning umumiy soni 4 000 kishi) ham kiritish mumkin. Tuvalar qadimdan soyotlar, soyonlar, soyonlilar, uryanxaylar, tonnu-tuvalilar nomlari bilan atalib kelingan; ularning tillari qadimgi tillar bo'lmish qadimgi o'g'uz, qadimgi uyg'ur tillarining belgilarini o'zida saqlagan, shu bilan birga, hozirgi tillar tofalar (karagas) va yoqut tillariga yaqin turadi. SHuning uchun tuva tili yuqoridagi tillar bilan birga uyg'ur kichik guruhini tashkil qiladi; bu til, bir tomondan, yuqoridagi belgilari bilan mazkur tillar kichik guruhiga kiradi, ikkinchi tomondan, o'ziga xos xususiyatlari bilan alohida til hisoblanadi. Tuva tilining asosiy xususiyatlari quyidagilar:

fonetika qurilishida:

- a) p^x , t^x singari bo'g'izda talaffuz qilinuvchi juftlarga ega;
- b) ikkinchi cho'ziqlik mavjud, masalan: *xaar*, "yopmoq" (*xar* "qor"), *chıyl* «yig'inmoq» (*chıl* «yil»);
- v) so'z boshida *q* o'rnida *x* qo'llanishi.
- g) *y* burun tovushining mavjudligi.

grammatik qurilishda:

- a) shart mayli qo'shimchalarning o'ziga xosligi; *barzymza* "borsam", shuningdek, shevalarda qadimgi shakllarning ishlatilishi *bardym erza* "borsam";
- b) ravishdosh shakllarning rang-barangligi;

lug'at boyligi sohasida:

- a) mo'g'ulcha so'zlarning ko'p qabul qilinganligi;
- b) fin-ugor, samodiy, tungus-manchjur tillaridan ko'p so'zlarni o'zlashtirganligi.

Tuva tili ko'pgina lahja va shevalari bilan og'zaki til sifatida rivojlanib keldi, uning ko'p xususiyatlari hali o'rganilmagan. Tuva yozma adabiy tili 1939-1941 yillarda lotin alifbosida ish olib bordi, undan keyin esa rus alifbosida ish yuritadi.

Tofalar (karagas) tili

Karagas (yoki tofalar) kichik etnik guruh tili (umumiy soni 1000 kishi) (*tofa*, *tofalar*) bo'lib, Krasnoyarsk o'lkasida yashashadi. Ular kelib chiqishiga ko'ra tuba qabila birlashmasiga kiruvchi nenets (samodiy) larga borib taqaladi. Tuba urug' nomi karagaslardan tashqari, tuva, shor, xakas,

oltoylar tarkibida ham saqlanib qolgan. Tofalar (karagas) tili turkiy tillarining uyg'ur-o'g'uz guruhiga mansub va tuva tili (qadimgi uyg'ur, qadimgi o'g'uz tillari) bilan birgalikda uyg'ur-tukyu kichik guruhiga mansub; o'zining fonetik-grammatik va leksik belgilari bilan tofalar (karagas) tili tuva tiliga yaqin, bu belgilari bilan uni tuva tilining lahjasi hisoblanadi. Tofalar o'z yozuviga ega emas, ular rus alifbosida ish olib borishadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. SHarqiy Xunn tarmog'i tillari G'arbiy tarmoq tillaridan qanday farq qiladi?
2. Uyg'ur-o'g'uz kichik guruhiga qaysi tillar kiradi?
3. Uyg'ur-tukyu kichik guruhiga kiruvchi tillarning asosiy belgilari nimada?
4. Qadimgi tillarning hozirgi Sibir tillariga qanday bog'lanadi?
5. Hozirgi tuva va tofalar tillarining fonetik xususiyatlari qanday?
6. Hozirgi tuva va tofalar tillarining morfologik xususiyatlari haqida tushuncha bering?

Zaruriy adabiyotlar:

1. Баскаков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. М., "Высшая школа", 1969, 24?36-бетлар.
2. Т. Jumaev. Turkiy tillarining tarixiy qiyosiy tahlili. Qarshi, "Nasaf", 2005, 4-10-бетлар.
- Исхаков Ф.Г. Грамматика тувинского языка. М., 1961.

Qo'shimcha adabiyotlar

- Насылов В.М Древнеуйгурский язык. М., 1963.
Насылов В.М Язык орхонских памятников. М., 1960.
Малов С. Е. Язык жёлтих уйгуров. Алма-ата, 1957.

16-ma'ruza: YOQUT VA XAKAS KICHIK GURUHI TILLARI.

Reja:

1. YOqut kichik guruhi tillari.
 - a. Xakas kichik guruhi tillari.
 - b. Xakas tili.
 - c. Qamas tili.
 - d. SHor tili.
 - e. CHulim tatarlari, kyueriklar va ketsiklar tillari.

Tayanch tushunchalar: 1.YOqut kichik guruhiga kiruvchi tillarning boshqa tillardan farqlanishi. 2.Xakas kichik guruhiga tillarida bir necha son jihatidan kam xalqlar gaplashishi. 3.Bu kichik guruh tillari xakas tiliga yaqin tilar ekanligi.

Bu kichik guruhga faqat yoqut tili kiradi. Bu til noturkiy tillar — tungus tillari bilan bog'langan. Ular boshqa turkiy xalqlardan qabilalarning nomlanishi jihatidan (mas. saxa yo q u t, x a k a s qabilalari nomi, sag'ay t u v a qabilasining nomi, uraaxay yoqut afsonalariga ko'ra m o' g' u l qabilalari nomi) ham farqlanadi, lekin ularning tili turkiy tillar bilan ba'zi bir umumiyliklarga ham ega (*sh* undoshinig yo'qligi bilan xakas tilining baltir va sag'ay lahjasiga o'xshaydi).

SHuningdek, yoqut tili ba'zi xususiyatlari bilan chuvash va boshqird tillariga ham yaqin turadi, (yoqut. *suol*, chuv, *so'l*, «yo'l», *s>h* xususiyati bilan boshqird tiliga o'xshaydi, *q>x* xususiyati bilan xakas tiliga, *ch/sh>s* bilan boshqird yoki xakas tillariga o'xshaydi). Bu dalillar yoqut tilining boshqa tillar bilan qadimdan aloqadorligini bildiradi.

Hozirgi yoqut tili uyg'ur tili bilan ham umumiylikka ega, biroq quyidagicha farqlanadi:

a) so'z o'rtasida almashinadigan *y~d~z* o'rnida *t* qo'llanadi: *atax* (*adag' > ayax/azaq* o'rnida);

b) *y~j~ж~d...~ch* o'rnida so'z boshida *s* qo'llanadi *soul* «yil»;

g) so'z o'rtasida *s<sh/ch* o'rnida *h* ishlatiladi (*bыхax* (*bыхax<bыхах* (*pychaq* o'rnida);

d) *ya. ie, uo, yø* diftonglariga ega, boshqa turkiy tillarda bu xususiyat yo'q.

Hozirgi yoqut tili

Bu kichik guruhga faqat yoqut tili taalluqli. YOqutlar va ularning tili turkiy va noturkiy (ayniqsa, to'ngus va mo'g'ul) tillar bilan qorishib ketgan. Bunday aloqadorlik qabilalar nomlarining atalishida (masalan, saxa yoqut urug'i nomi, sag'ay — tuva xalqining nomi, shuningdek turkiy xalq bo'lgan tuvalarning bir urug'ining nomi mo'g'ul) bo'lganidek, tillar orasidagi umumiylikda ham ko'rinadi (masalan, tub yoqutcha so'zlarda *sh* fonemasi qo'llanmaydi, bu xususiyat tuva tilida hamda xakas tilining sog'ay va baltir shevalarida uchraydi).

YOqut tili YOqutiston respublikasi tili (yoqut-saxa) umumiy soni 250 ming kishi, dolg'anlar 5 ming kishi.

YOqut tili boshqa turkiy tillardan ancha farq qiladi, biroq u uyg'ur - o'g'uz tillariga o'xshash tomonlari ham mavjud.

Bu til qadimgi tillar bo'lmish qadimgi uyg'ur, qadimgi o'g'uz va hozirgi tillar — tuva, xakas, boshqird tillari bilan ham umumiyliklarga ega, asosiy xususiyatlari:

fonetika sohasida:

a) *t/d, r~s/z* o'rnida *t* qo'llanishi: *atax*, shart mayli qo'shimchasi *-tar/-dar* (*-sar/-ser, -sa/se* o'rnida);

b) *s~t.../d...~j~ж~ch~y* o'rnida so'z boshida *s* qo'llanishi: *suol* «yo'l»;

- v) *sh* undoshining mavjud emasligi;
- g) *y* burun tovushining mavjudligi (tuva tilidagidek);
- d) *s>h* munosabati (boshqird tilidagi kabi);
- e) birinchi cho'ziqlik borligi: *saas* «yoz», *xaar* (qor), *tiis* «tish»;
- j) diftonglarning mavjudligi (*ɤa*, *ie*, *uo*, *uo*);
- z) assimilyatsiya va dissimilyatsiyaning turli shakllarining borligi.

grammatika sohasida:

- a) qaratqich kelishigining yo'qligi;
- b) to'ngus-manjchur tili unsurlarining mavjudligi;
- v) yoqut tili boshqa sibir turklari tillari kabi hali o'rganib bo'linmagan.

YOqut adabiy tili 1917 yildan keyin shakllandi, uning alifbosi XIX asr boshlarida 1819-1820 yillar birinchi yoqut tilida bosilgan kitob orqali shakllandi. Bu G. Popov tomonidan nashr etilgan kitob edi. O. Betling esa rus alifbosidan D. Xitrov amalga oshirgan transkripsiya orqali boshqa kitob nashr qildirdi. YAngi alfavit 1922-1924 yillar S. Novgorodov tomonidan tashkil etildi.

YOqutlar 1924-1939 yillar lotin grafikasidan, undan keyin rus grafikasidan foydalanadilar.

XAKAS KICHIK GURUHI

Bu kichik guruh ikkiga bo'linadi. Birinchi bo'linishiga, xakas tili va uning ikki lahjasi: a) *ts* lovchi sog'oy-baltir dialektlari; *sh* lovchi qochin, qoybol, qizil, shor, sariuyg'ur, qamasi va cho'lim tatarlari tillari;

Ikkinchi bo'linishga oid shor tilining qandam, oltoy tilining shimoliy lahjasi, xususan, qora tatarlar (*yish-kiji*, *tuba*), kumandı dialekti (*kumandi/qubandı*) va oqqush komponentli xalqlar tillari (*quu-kiji*) *chalqanduu/shalqanduu* so'zlarida bir umumiylik mavjud. Masalan: *quu-oqqush*, *kiji-kishi*; *qubandi* < *quba* (yoqut) *oqqush+ndi* — so'z yasovchi qo'shimcha, shuningdek, *quman* < *quu* «oqqush»; *-man* — so'z yasovchi qo'shimcha—*poloves*.

Bu nomlar IX-X asrlarda Don va Dunay daryolari orasida oqqushlar mamlakati deb atalgan hududda yashagan madyorlarning avlodlari hisoblanadi (ular bulg'or va pecheneglar tarkibiga singib ketishgan).

Xakas kichik guruhi tillari uyg'ur-o'g'uz guruhi tillarining umumiy xususiyatlarini o'zida mujassam etgan.

Bu tillarning asosiy xususiyatlari:

- a) *y~t~d* o'rnida *z* qo'llanishi bilan farqlanadi: *azax* (*ayaq*, *adaq*, *atax* o'rnida) «oyoq»;
- b) so'z oxirida *y* o'rnida *s~z* qo'llanishi: *kes-* (*kiy-* o'rnida);
- v) so'z boshidagi *ж-ј-d-s* o'rnida *ch* va *n*, *n...* qo'llanishi: *chıl* (yil-), *naımir* // *n...atıyr* // *nanbur* / *nanmur* «yomg'ir»;
- g) *b>m* almashinuvining borligi: *tebir* (temir o'rnida), *kebe...* (kema o'rnida).
- d) *pilgechi* // *pileechi* «bilgan» tipidagi sifatdash shakllarining mavjudligi.

HOZIRGI TILLAR. *Xakas tili*

Bu til xakas xalqining tili (oldin, abakan, enisey turklari deb atalgan), umumiy soni 70 ming kishi, 1917 yilda mustaqil millat bo'lgan). Xakas tili uyg'ur-o'g'uz kichik guruhiga kiradi, o'zining alohida xususiyatlari bilan qamasi, kyuerik, shor, sariuyg'ur, oltoy tilining shimoliy dialektlaridan farqlanadi.

Hozirgi xakas tilining barcha dialektlari quyidagi umumiy xususiyatlarga ega:

- 1) uch tor, lablanmagan unliga ega: *ɯ, i, y*;
- 2) tub xakas so'zlarida *sh~j* yo'q;
- 3) *y~z/s~d/t~r* orasida *z/s* lovchiligi bilan farq qiladi: *azax* «oyoq».

Xakas tili genetik jihatdan qadimgi qirg'iz tiliga, undan qadimgiroq bo'lgan qadimgi uyg'ur tillariga bog'lanadi. Hozir ham bu qadimgi tillarning belgilari xakas tilida saqlanib qolgan.

Hozirgi xakas tili uchun sog'ay va qochin shevalari asos bo'lgan. SHuning uchun ham xakas tilining rivoji ikki guruh shevalariga bog'lanadi: 1) sog'ay-baltir guruhi shevalari. Bu shevalar *s* lovchi sheva hisoblanadi; 2) *sh* lovchi qochin-qaybal-qizil guruhi bo'lib, unga qochin, qaybal, qizil, shor lahjalari kiradi.

Birinchi guruhga kiruvchi sog'ay va baltir shevalari bir-biridan ko'p farq qilmaydi. Sog'ay lahjasida Askiz rayoni, Tashtip rayoni aholisi gaplashadi. Baltir shevasida Askiz rayonidagi Monoq qishlog'i aholisi va Tashtip rayonidagi Arbat qishlog'i aholisi gaplashadi.

Sog'ay va baltir shevalarining xususiyatlari. *Undoshlar sohasida*:

a) *sh/j* ning mavjud emasligi va uning *s/z* ga almashinuvi: *tas* "tosh", *pas* «bosh»;

b) *ch/sh* o'rnida (so'z oxirida) *s/z* qo'llanishi: *as* «och»; *azax* "ochiq", *ag'iz* «yog'och», *ag'izi* "yog'ochi".

v) *y-ɣ-j-d-s* o'rnida *ch* qo'llanishi: *chayg'i* "yoz", *char* "jar", *chaxsi* "yaxshi";

g) *b/p > m*: *muzuk* "buyuk";

d) *y>s*: *sag'* "yog'".

Unlilar tizimida:

a) *o>u*: *xul* (*xol* ad. o'rnida) "qo'l";

b) *ɵ>y*: *yski* (ɵski ad. o'rnida) "eski";

v) *oo=uu*: *chuux* (*choox* ad. o'rnida) "suhbat";

g) *ɵɵ=yy*: *kyyk* (*kɵɵk* ad. o'rnida) "kakku";

d) *a>ɯ*: *ag'ɯs* (*ag'ach* ad. o'rnida) "yog'och";

e) metatezaning mavjudligi: *yrgən* (*ygrən* o'rnida) "o'rgan".

Bundan tashqari ham sog'ay dialekti grammatika va leksika sohasida ko'pgina farqlarga ega.

Ikkinchi guruhga *sh* lovchi qochin, qizil va shor dialektlari kiradi. Bu uch dialekt sog'ay delalektidan quyidagicha farqlanadi: *sh/j* fonemalarining borligi: so'z oxirida *s* o'rnida *sh/ch* ning qo'llanishi bilan: *ach/ash* "och".

Qochin lahjasida hamma o'rinlarda *ch* qo'llanadi, boshqa dialektlarda *s/sh/j* almashinadi. Masalan: qochin: *chachʼm*, qizil: *shashim*, shor: *shajʼm*, sog'. *sazʼm* "sochim".

Qizil dialekti *ch>sh/j* xususiyati bilan farqlanadi: *shor* (*char* o'rnida), "jar".

Qochinlar Ust-Abakan, Oltoy va SHirin (Xakasiya) rayonlarida yashashadi.

Qochin dialektining asosiy xususiyatlari:

undoshlarda:

a) barcha o'rinlarda *ch* qo'llanishi: *chachʼyn/chazin* (sog'ay shevasidagi *sazʼyn* o'rnida) «qog'oz», *ag'achim* (sog'ay shevasidagi *ag'azʼm* o'rnida) "daraxtim";

b) *q* undoshning borligi: *qarak* (*xarax*), «kuz»;

v) *b* undoshning borligi: *bas* (*pas* o'rnida) "bosh";

unlilarda:

a) cho'ziq unlilarning borligi: *azaam* (*azag'im*) «oyog'im»;

b) lab uyg'unligining buzilganligi: *xuzuxty* (sog'. *xuzuxtu*) "yong'oq".

Qizil dialekti vakillari Krasnoyarsk o'lkasining Ujur, SHaripov rayonlarida, Xakasiya muxtor viloyatidagi Saralin va SHirin rayonlarida yashaydi. Qizil lahjasining xususiyatlari:

undoshlarda:

a) *sh/j* va *sh* undoshlarining *s/z* o'rnida qo'llanishi: *təjek* (ad. *təzek*) "to'shak", *kiji* "kishi";

b) so'z boshida *ch>y* qo'llanishi: *yabal* (ad. *chabal*) "yomon", *yaxsy* (*chaxsy*), "yaxshi".

e) *r*, *l* ning tushib qolishi (*g'*, *g* dan oldin), *pag'an* (ad. *parg'an*) "borgan"; *sag'an*, (*salg'an*), "solgan".

unlilarda:

a) *i > e*: *men* (*min* o'rnida), *kel* (*kil* o'rnida);

b) *u > o*, *uu > oo*: *kosh* (ad. *kus*) "kuch".

SHor lahjasijasida Toshtin rayoni va Xakas muxtor viloyatidagi, SHimoliy va Janubiy Matur turkiy urug'lari gaplashishadi.

SHor lahjasi xakas adabiy tilidan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:

fonetikada:

a) *sh/j* undoshlarining borligi: *shʼyn* (*sʼn*) "haqiqat"; *anshax* (*ansax* o'rnida) "oqsoqol";

b) uyg'unlashuvning buzilishi: *abezʼy* (*abazʼy*) «otasi», *palezʼy* (*palazʼy*) "bolasi".

fonetika-morfologiyada:

a) jo'nalish kelishigining to'liq shakli qo'llanadi: *-zari/-sari* (*-zar/-sar* o'rnida) *sug'zarʼy* "suvga", *tayg'azarʼy* (*tayg'azar* o'rnida) "toqqa";

b) hozirgi zamon davom fe'li qo'shimchasining to'liq formasining qo'llanilishi: Mas: *parchar* (ad. *parcha*) "kelyapti", *adyrchar* (*adircha* o'rnida) «o'tiribdi»;

v) adabiy tilda qo'shimchaga aylangan ko'makchilarning o'z holicha qo'llanishi: *malty bile* (ad. *paltynan*) "bolta bilan", *miyltax pile* (*miltaxnan* o'rnida) "miltiq bilan";

g) hozirgi zamon qo'shimchasining bo'lishsiz shakli *-paan/ -baan/-maan* (ad. *-pin/-bin/-min*): *parbaanchi* (ad. *parbinchi* o'rnida) "kelmayapti", *tog'inmaancha* (ad. *tog'inmanchi* o'rnida) "ishlamayapti";

d) kelasi zamon sifatdoshi *-ar* (*-ir* o'rnida) *aɣnarg'a* (ad. *aɣnirg'a* o'rnida) "ov qimoq".

Xakas yozma adabiy tili 1917 yildan keyin shakllandi. Xakas muxtor viloyatining tuzilishi bilan adabiy til va yozuvi bilan bog'liq masalalar kelib chiqdi. Bu masala uch davrga bo'linadi:

1924-1929 yillar rus alfaviti davri.

1929-1939 yillar lotin alifbosi davri.

1939 yildan keyin yana rus alifbosiga qaytildi.

Qamasi tili

Qamasi tili unchalik katta bo'lmagan qamasiliklar (400 kishi) tili, ular (*qamasi*, *qanmaji*) Krasnoyarsk o'lkasidagi Mana, Kana daryolarining yuqori oqimlarida istiqomat qilishadi. Qamasi mustaqil til bo'lmay, so'z o'rtasida va oxirida *r~t/d~z/s~y* qatnashishi va *z/s* belgisi ekanligi bilan xakas tiliga o'xshaydi (garchi, qamasilar Xakas muxtor viloyatida yashamasalar ham).

Qamasilar o'z yozuviga ega emas, ular rus alifbosida ish olib borishadi.

SHor tili

SHor tili Kondoma, Mirassa, Toma daryolari bo'ylarida joylashgan SHimoliy Oltoy, Kuznets Oltoyi hududlarida istiqomat qiluvchi (umumiy soni 25 ming kishi) shorlar tilidir. SHorlar Xakas va Tog'li Oltoy muxtor viloyatlari bilan chegaradosh hududlarda yashaydilar. SHorlarning nomi dastlabki etnografik adabiyotlarda shorlar, qoraygan tatarlar, mras va kondom tatarlari, kondomliklar, mrasliklar, kuznets tatarlari, tom-kuznetsk tatarlari, abenliklar va boshqa tarzda uchraydi. SHor tili turk tillarining uyg'ur-o'g'uz guruhidagi xakas kichik guruhiga kiradi.

SHor tilining asosiy xususiyatlari:

fonetik qurilishda:

a) dialektlarda *o-u*, *oo-uu* unlilarining almashinishi; masalan: *Оһна-уһна* "bilish", "anglash"; *uul~ ool* "o'g'il";

b) *i~y* almashinuvi: *kiji-kyji* "kishi";

v) *z~y* almashinuvi; *qozan~qoyan* "quyon"; *poyu~pozu* "o'zi"; *ch* almashinuvi; *choq~toq* "yo'q";

l u g' a t b o y l i g i ning ovchilik atamaları hamda mo'g'ulcha so'zlar bilan boyishi;

grammatik qurilishda:

a) ravishdoshning bo'lishsiz shakllari - *paan/ -pəən -baan /been, -maan/-meen* (xakas. *-piin /-biin/-miin*);

b) sifatdosh shakllari: *-g'aachi/-geechi*, bo'lishsiz shakli: *-paachy /-peechi*;

v) sifatdosh shakli: *-chaq/-chek*;

g) fe'l shakllarining qisqargan ko'rinishlarining borligi.

SHor xalq tili ikki lahjadan iborat:

1) z belgili lahja - Mrass va Tom vodiylarida yashovchi shorlar tili bo'lib, xakas tiliga yaqin;

2) y belgili lahja— Kondoma va Gromi daryosi quyi oqimida yashovchi shorlar tili: shimoliy oltoy tili lahjasiga yaqin.

Mras yoki z belgili lahja shor adabiy tili uchun asos bo'lgan, unda boshlang'ich maktablar darsliklari nashr qilingan.

z belgili dialektining asosiy belgilari:

a) $r \sim t/d \sim z/s \sim y$ almashinuvlari orasida mras lahjasi z/s belgili guruhga tegishli, kondom lahjasi y belgili tillar guruhiga oid, masalan: mras. *mozuk*, kondom. *Piyik* "buyuk" miras. *kes*, kondom *kiy* "u erda"; mras. *albag'a*, kondom. *albag'ы*, "suvsar";

v) o-u va oo-uu almashinuvlari: mras. *quzruq*, kondom. *qoyruq* "quyruq".
grammatik qurilishda:

a) o'tgan zamon ravishdoshining turli shakllarda qo'llanishi: mras. *parchag'an*, kondom. *parchan /parchын* "jo'neydigan";

b) -*chaq* so'z yasovchi qo'shimchasining turli shakllarda qo'llanishi: mras. *shomalanchaq*, kondom. *shomalanchыq* "o'yinqaroq".

v) I shaxs ko'plikdagi shaxs-son qo'shimchasining turli ko'rinishlarda qo'llanishi: mras. *keltidibis*, kondom. *keldis* "keldik".

SHor adabiy tili hozirgi paytda mavjud emas, shorlar eng yaqin til — xakas yoki rus tillarida ish olib borishadi.

CHulim tatarlari, kyueriklarva ketsiklar tillari

CHulim (melet yoki melets) tatarlari tili kichik xalqlarning tili bo'lib, chulimlar CHulim Havzasi (Ob daryosi oqimida) yashaydilar. Keng ma'noda chulim tatarlari tili qo'shni urug' tillari ketsik (kezik) va kyueriklar tillari bilan bog'lanadi. CHulim tatarlari tili uch guruh dialektlaridan iborat: 1) ketsiklar lahjasi (V. V. Radlov fikriga ko'ra ketsiklar genetik jihatdan tobol tatarlariga bog'lanadi); 2) kyueriklar lahjasi (V. V. Radlov ularni teleutlarga bog'laydi); 3) chulimlar lahjasi (bular genetik jihatdan turkiylashgan ostyak va ketlardan kelib chiqqan).

CHulimlar tili yoki melets tatarlari uyg'ur-o'g'uz guruhining xakas kichik guruhiga kiradi va shu kichik guruhidagi boshqa tillar, birinchi navbatda, shor tiliga yaqin, shuningdek, xakas tilining qizil dialektiga ham ancha yaqin turadi.

CHulimlar tili boshqa turkiy tillardan quyidagi belgilar bilan farqlanadi:

fonetik qurilishda:

a) ts jarangsiz qorishiq va z jarangli undoshi mavjud: *tsыq* -"chiq", *ag'a* "daraxt", *kuts* "kuch", *pitsaq~puzaq* "pichoq".

b) *ua*, *uo*, *uo*, *ie* diftonglariga ega: *suaq* "sovuq", *kuak*, "kakku", *siek* "so'na";

grammatik qurilishda:

a) klassi zamon shakli -g'oq /-gök): *men parg'oom*): men boraman (< *porg'og'um*);

b) klassi zamon shakllari -luq /-lyk, -ruq/-ryk, -shuq/-shyk, -nuk/-nyk, -yuq/-yyk, -suq/-syk. Masalan: *ol paruq* "u ketadi", *ol kellyk* "u keladi", *tannuq* "u biladi", *qooppo'q* "qopadi", *əəssyk* "o'sadi".

L u g' a t b o y l i g i d a - chorvachilik va dehqonchilikka oid hamda hunarmandchilikka oid atamalar ko'p, biroq ular o'rganilmagan.

CHo'lim tatarlari tilida ikki lahja bor: qo'yi chulimlar va o'rta chulimlar lahjalari. SHuningdek, fonetik jihatdan bir-biridan farqlanuvchi shevalarga ham ega.

Qo'yi chulim lahjasida Asinov va Ziryay rayonlari aholisi so'zlashadi va bu til barabari lahjasiga yaqin turadi, o'rta chulim lahjasida CHulimning yuqori qismida yashovchi aholi gaplashadi, bu lahja xakas tilining qizil lahjasiga o'xshash. Bu ikki lahja bir-biridan quyidagi belgilar bilan farqlanadi:

a) quyi cho'limlar tilida so'z boshida *y*, o'rta cho'limlar tilida esa *ch* qo'llanadi, masalan: *yay~chay* "yoz", *yaqshy~chaqshy* "yaxshi";

b) so'z oxirida quyi chulimlar tilida *ts*, o'rta cho'limlar tilida esa *ch* qo'llanadi, masalan: *its~ich* "ich"; *qats~qach* «qoch»;

v) so'z o'rtasi va oxirida quyi chulimlar tilida *y*, o'rta chulimlar tilida *z/s* qo'llanadi; masalan: *quyruq~quzruq*, "quyruq", *qayyn~qazyn* "qayin";

g) so'z boshida qo'yi chulimlar tilida *ts*, o'rta chulimlar tilida *sh* qo'llanadi, masalan *tsan~shan* "qo'ng'iroq", *tsyq~shyq* "chiq".

Bu ikki lahjaning grammatik hamda lug'at boyligi sohasidagi farqlari juda kam.

Qo'yi chulim lahjasida shevalar yo'q, o'rta chulim lahjasida Tatal qishlog'i shevasi, YAngi qishloq shevasi, Tizirachiv shevasi, Pushtakov qishlog'i shevasi kabi shevalar mavjud.

CHulim tatarlari ham o'z yozuvlariga ega emas, ular rus alifbosida ish olib borishadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

- 1.YOqut kichik guruhi tillariga qaysi tillar kiradi?
- 2.YOqut tili nima uchun boshqa Sibir turkiylarining tillaridan farqlanadi?
- 3.Xakas kichik guruhiga qaysi tillar kiradi?
- 4.Xakas tilining asosiy xususiyatlarini misollar bilan tushuntiring.
- 5.Qamas tili xakas tilidan qanday farq qiladi?
- 4.SHor tili nima uchun adabiy til darajasiga ko'tarilmagan?
- f. CHulim tatarlari, kyueriklar va ketsiklar tillari nima uchun xakas tilining lahja tillari hisoblanadi?

Zaruriy adabiyotlar:

1. Баскаков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. М., "Высшая школа", 1969, 24?36-бетлар.

- 2.T.Jumaev. Turkiy tillarining tarixiy qiyosiy tahlili. Qarshi, "Nasaf", 2005, 4-10-betlar.
- 3.Грамматика современного литературного якутского языка. М., 1982.
- 4.Грамматика хакасского языка. Абакан, 1948.

Adabiyotlar

- Грамматика шорского языка. М.,-Л. 1941.
- Доможаков Н. К. Описания кызылского диалекта хакасского языка. Абакан, 1948.
- Убриятова Е. И. Исследования по синтаксису якутского языка. М., ? Л. 1950.

17-ma 'ruza: QIRFIZ - QIPCHOQ GURUHI

Reja:

- 1.Qirg'iz-qipchoq guruhi tillarining umumiy belgilari.
- 2.Qirg'iz va oltoy tillarining o'xshashlik va farqlari.
- 3.Qadimgi qirg'iz tili bu guruh tillarining yuzaga kelishida asos bo'lganligi.
- 4.Hozirgi qirg'iz tilining asosiy xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: 1.Qirg'iz-qipchoq guruhiga kiruvchi tillarning boshqa Sibir turkiylari tillaridan farqli xususiyatlari.2.Qirg'iz tili bilan oltoy tilining janubiy lahjasi orasidagi lisoniy umumiyliklar.3.Qadimgi qirg'iz tilining barcha qipchoq tillarining, shuningdek, qirg'iz tilining ham yuzaga kelishi uchun asos bo'lganligi.4.Hozirgi qirg'iz adabiy tili va uning lahjalari haqida tushuncha.

Qirg'iz-qipchoq guruh o'z xususiyatlari bilan boshqa guruhlardan farqlanadi va o'z ichiga qadimgi qirg'iz tilini hamda hozirgi tillar - qirg'iz oltoy tillarini qamrab oladi. Bu guruh tillari uchun substrat qadimgi qirg'iz tili bo'lib, uning ibtidosi enisey yodgorliklarida bizning davrimizgacha saqlanib qolgan. Hozirgi qirg'iz va oltoy tillari bir-biriga ancha yaqin; ularning yuzaga kelishi turkiy tillar taraqqiyotining keyingi davri bilan bog'liq, shakllanish jarayoni qipchoq va mo'g'ul urug'lari tillarining aralashuvi davriga borib taqaladi Oltoylar uzoq vaqtlar Jo'ng'or (mo'g'ul) davlati tarkibiga uyrot qabilalari ittifoqida edi.

Bu guruh tillarining asosiy belgilari:

- a) unlilarning to'liq shakllanganligi (sakkiz me'yoriy unli olti-sakkiz ikkinchi cho'ziqli unlilar);
- b) lahjalarda unli va undoshlar orasidagi farqlarning kamligi;

- v) lab uyg'unligini to'liq saqlanganligi;
- g) *ch* va *sh* undoshlarining mustahkamligi bilan qipchoq-no'g'ay guruhi tillaridan farqlanadi; *qach*- «qoch»; *bash* "bosh"(*qash* va *bas*- o'rnida);
- d) ko'pincha so'z boshida jarangsiz undoshlarning kela olishi, asosan oltoy tilida;
- e) unlilar orasida kelgan undoshlarning jaranglashuvi, bu oltoy tili uchun xos xususiyat, bunday holat qirg'iz tilining ayrim dialektlarida uchrasa ham qonuniyat darajasiga etmagan;
- j) qadimgi turkiy tilda qo'llanuvchi shakllarning saqlanganligi;
- z) to'liq shaklli qo'shimchalarning qisqargan shakllarga aylanib qo'llanishi va h. k.

Qirg'iz va oltoy tillari boshqa qipchoq tillaridan bir qancha xususiyatlari bilan farqlanadi: unlilarning ikkinchi cho'ziqligi, so'z oxirida kelgan jarangsizlarni unlilar orasida jaranglashuvi, bu xususiyat bilan boshqa oltoy tillariga yaqin turadi (geografik jihatdan), ya'ni bu xususiyat xakas, shor, oltoy, tuva, yoqut tillari, hamda qirg'iz tili mo'g'ul, tungus, manchjur tillari bilan yonma-yon va hamkorlikda rivoj topganligini ko'rsatadi. Demak, bu tillar boshqa turkiy tillardan farqlanuvchi umumiyliklarga ega.

Qirg'iz va oltoy tillarini farqlovchi asosiy belgilar:

- a) qirg'iz tilida olti, oltoy tilida sakkiz cho'ziq unli (ikkinchi darajali) fonemaning borligi (olti unli + *ii*, *yy* cho'ziq unlilari);
- b) qirg'iz tilidagi *ж* undoshining oltoy tilidagi *d...~t...* undoshlari bilan almashinuvi;
- v) jarangli va jarangsiz undosh fonemalarning qirg'iz tilida qat'iy farqlanishi, oltoy tilida bunday farqning mavjud emasligi;
- g) qirg'iz tilida qaratqich kelishigi shakllari *-nin/-нын*, *-дын/-дин*, *-тын/-тин* va chiqish kelishigi shakllari *-tan/-тен*, *-nan/-нен*, oltoy tilida qaratqich kelishigi shakllari *-нын/-ниң*, *-дын/-диң*, *-тын/-тиң*, chiqish kelishigi shakllari *-tan/-тен*, *-nan/-нен* ekanligi.

Qirg'iz-qipchoq guruhi tillari leksikasi, SHarqiy Xunn tarmog'i tillari sifatida, G'arbiy Xunn tarmog'i tillaridan mo'g'ul tili elementlarini ko'p o'zlashtirganligi, arab, fors tillaridan juda kam so'zlarni qabul qilganligi bilan farqlanadi.

QADIMGI TILLAR

QADIMGI QIRG'IZ TILI

Qadimgi qirg'iz tili, qadimgi qirg'izlar tili bo'lib, ular Eniseyda yashashgan va eng katta qabila ittifoqini boshqarishgan; yozma yodgorliklari qabr toshlarida saqlanib qolgan. Qadimgi qirg'iz tili qadimgi o'g'uz va qadimgi uyg'ur tillariga o'xshashi bilan birga, o'zining alohida xarakterli xususiyatiga ham ega. S.E Malov¹ qayd qilganidek, qadimgi qirg'izlar bilan hozirgi tofalar (karagaslar), tuvalar, yoqutlar, xakaslar, qo'miqlar va qipchoqlar bilan qarindoshdir. Qirg'izlardan boshqa yuqoridagi barcha xalqlar qadimgi til belgilarini saqlagan; *d/s* belgisi hali

ham iste'molda. Bu tillar eng qadimgi *r* belgili tildan ham, eng yangi *y* belgili tillardan ham farqlanadi.

Qadimgi qirg'iz tili ham o'zgaras til emas, yodgorliklar guvohlik berishicha, unda bir qancha lahja va shevalar mavjud bo'lgan.

Qadimgi qirg'iz tili boshqa tillar — qadimgi, o'g'uz va qadimgi uyg'ur tili kabi yaxshi o'rganilmagan, shuning uchun ham bu qadimgi tillar orasidagi chegara aniq belgilangani yo'q.

HOZIRGI TILLAR

QIRG'IZ TILI

Qirg'iz tili (qadimdan burut, yovvoyi tosh qirg'iz, qora qirg'iz nomlari bilan atalib kelingan), umumiy soni 2 mln. kishi — Qirg'iziston respublikasining milliy va davlat tilidir. Bundan tashqari, qirg'izlar Xitoyda (150 ming k. va Afg'onistonda (50 ming k.) ham yashashadi. U turkiy tillarning SHarqiy Xunn tarmog'ining qirg'iz-qipchoq guruhiga kiradi.

Qirg'iz tili adabiy tildan tashqari ikki lahja: shimoliy va janubiy lahjalarga ega. Bu lahjalar o'zbek tili bilan aloqadorlik natijasida yuzaga kelgan, ular orasidagi tafovutlar quyidagilar:

- a) so'z boshida shimoliy lahjada *æ*, janubiy lahjada *æ/y* qo'llanishi;
- b) shimoliy lahjada cho'ziq unlilarning, janubiy lahjada diftonglarning borligi;
- v) *ə* unlisining shimoliy lahjada mavjud emasligi.

Hozirgi qirg'iz tilining yuzaga kelishi uchun eramiz boshida Eniseyda yashagan qirg'iz qabilalari asos solgan bo'lsa-da, uning hozirgi holati ancha kech shakllandi; keyingi davrlarda esa unga o'z ta'sirini qipchoq tili o'tkazdi.

Qirg'iz tili boshqa qipchoq tillaridan unlilarda ikkinchi cho'ziqning mavjudligi, lahjalarida so'z oxiridagi undoshlarning jaranglashishi, unlilar orasidagi undoshlarning jaranglashuvi bilan farqlanadi va bu xususiyatlari bilan oltoy tillariga yaqin turadi. Oltoy tili qirg'iz hamda xakas, shor, tuva, yoqut tillari bilan hamkorlikda hamda va mo'g'ul, tungus-manchjur tillari bilan qo'shnichilikda rivoj topdi. SHuning uchun ham bu turkiy tillar boshqa guruh turkiy tillaridan farq qiladi va o'ziga xos xususiyatlar bilan turkiy tillarining SHarqiy Xunn tarmog'iga kiradi. Qirg'iz va oltoy tillarining jo'g'rofiy jihatdan sharqda joylashganligi, mo'g'ul, tungus, manchjur tillari bilan bevosita aloqadorligi alohida guruh — qirg'iz qipchoq guruhini tashkil qilishini namoyon qiladi.

Turkiy tillarining SHarqiy Xunn tarmog'i G'arbiy Xunn tarmog'idan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi; unlilarning ikkinchi cho'ziqlikka ega ekanligi; jarangli va jarangsiz undoshlar orasidagi farqning kamligi; unlilar orasida jarangsiz undoshlarning jaranglashuvi va hokazo. Qirg'iz va qipchoq guruhi SHarqiy Xunn tarmog'i tillari orasida quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:

- a) o'z qatlam so'zlarida *x* va *v...* fonemalarining yo'qligi;
- b) ikkinchi bo'g'indagi *a* va *ə* unlilarning lab uyg'unligiga moslashuvi (tor *u* va *y* dan tashqari);

v) to'liq qo'shimchalarning qisqargan shaklga aylanish qonuniyati, qo'shimchalarning shaklan mos kelishi, biroq ma'no jihatidan farq qilishi.

Va nihoyat, oltoy va qirg'iz tillarini farqlaydigan belgilar.

a) qirg'iz tilida olti, oltoy tilida sakkiz cho'ziq (ikkinchi cho'ziq) unli (olti unli+cho'ziq unlilar ii, ыы) larning borligi;

b) qirg'iz tilida *ж* undoshining borligi, bu undoshning oltoy tilida *t...~d...* undoshlariga o'tishi;

v) qirg'iz tilida jarangli va jarangsiz undoshlarning farqlanishi;

g) qirg'iz tilida qaratqich kelishigi shakllari *-nin/ -нын, -дын/-дин, -tin/-тин*, chiqish kelishigi shakllari *-dan/-дән, -tan/-тән, -nan /-нән* va oltoy tilida qaratqich kelishigi shakllari *-niң/-ның ; - diң/-дың, -тың/-тиң*, chiqish kelishigi shakllari *-daң/-дәң, -taң/-тәң, -naң/-нәң*.

Qirg'iz tili leksikasini sharqiy tarmog'i tillarida bo'lganidek, mo'g'ulcha so'zlarning ko'p, va aksincha, arabcha, forsha so'zlarning kamligi xarakterlaydi, oltoy tilida esa bu holat yanada yorqinroq saqlangan.

Qirg'iz adabiy tili bugungi kunda ilm-fan matbuot hamda ommaviy axborot vositalari tili sifati yuksak darajada taraqqiy etgan til bo'lib hisoblanadi. Qirg'iz adabiy tilida o'rta va oliy maktab darsliklari, ko'plab gazeta va jurnal, kitoblar nashr qilinadi. Rus alifbosida olib borilgan bu ishlar CHingiz Aytmatov asarlarining nashri bilan butun dunyoga dong taratdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1.Qirg'iz-qipchoq guruhi tillari boshqa guruh tillaridan qaysi xususiyatlariga ko'ra farqlanadi?

2.Qirg'iz va oltoy tilining janubiy lahjasi orasida qanday fonetik va leksik umumiyliklar bor?

3.Qadimgi qirg'iz tilining lisoniy belgilari haqida nimalar bilasiz?

4.Nima uchun qirg'iz tili boshqa qipchoq tillaridan farq qiladi?

5.Hozirgi qirg'iz adabiy tili uchun qaysi lahja asos bo'lgan?

6.Hozirgi qirg'iz tilining qanday lahjalari mavjud?

7.Qirg'iz tilining qaysi lahjasiga o'zbek tili o'z ta'sirini singdirgan?

Zaruriy adabiyotlar:

1. Баскаков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. М., "Высшая школа", 1969, 24?36-бетлар.

2.Т.Жумаев. Туркий tillarining tarixiy qiyosiy tahlili. Qarshi, "Nasaf", 2005, 4-10-betlar.

3.Рамцедт Г.И. Введение в алтайское языкознание. М., 1957.

4.Батманов И.А. Грамматика киргизского языка. М., 1940, вып. 111.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1.Дмитриев Н.К. Строй тюркских языков. М., 1962.

2.Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. М. –Л.:Наука, 1951.

18-ma'ruza: **OLTOY TILI**

Reja:

- 1.*Oltoy tilining umumiy lisoniy belgilari haqida.*
- 2.*Oltoy tilining janubiy guruh shevalari asosiy xususiyatlari.*
- 3.*Oltoy tilining shimoliy guruh shevalarining asosiy xususiyatlari.*

Tayanch tushunchalar:Oltoy tili tarqalgan hududlar.2. Oltoy tilining ikki lahjalar guruhiga bo'linishi. 3.Birinchi guruhga: oltoy, telengit, teleut lahjalari kirishi. 3. Ikkinchi guruh: tuba, kubandi, chalqan lahjalari kirishi. 5.SHimoliy va janubiy guruh shevalari orasidagi fonetik va leksik farqlanishlar.

Oltoy tili — Oltoy o'lkasidagi Tog'li Oltoy o'lkasi aholisining adabiy tili. Oltoylarning soni hozir 100 000 kishi bo'lib, u o'zida bir qancha urug' va qabilalarni birlashtiradi. O'z navbatida, oltoy tili etnik jihatdan ikki lahjaga: shimoliy va janubiy lahjalarga bo'linadi.

Oltoy tili turkiy tillarning SHarqiy tarmog'i, shuningdek, qirg'iz tili bilan birgalikda, bir kichik guruhga kiradi. SHunisi xarakterliki, shimoliy lahja hozirgi oltoy adabiy tili uchun asos qilib olingan; janubiy lahjalardan keskin farq qiladi. Oltoy tilining shimoliy lahjasi ayrim belgilari bilan turkiy tillarning SHarqiy tarmog'iga kiruvchi uyg'ur -o'g'uz guruhi tillariga o'xshaydi. Demak, bu til boshqa tillar kabi bir butunlikdan iborat emas, balki shimoliy va janubiy guruhlarni tashkil qiluvchi dialektlardan iborat bo'lib, ular o'zlari fonetik, leksik va grammatik belgilariga ko'ra farqlanadi:

Janubiy guruh shevalari uch asosiy lahjaga birlashadi:

1. **Oltoy lahjasi.** Bu lahjada Katun, Sema, Peschannaya, CHarvish, Ursul, Mayma daryolari bo'ylarida yashovchi Onguday, Ustkan, Elikmanar va SHibalin rayonlari aholisi gaplashadi. Bu aholi oltoy-kiji yoki tog'li oltoylar, oqlar, shuningdek, qalmiqlar nomlari bilan ataladi.

2. **Telengit lahjasi.** Bu lahjada Ulagan aholisi, va qisman, Qash Ag'ach aymoqlari gaplashadi. Bu lahja ikki shevaga bo'linadi: a) *tilengit-teles shevasi*. Unda CHulishman, Bashkauz daryolari bo'yida, hamda Telets ko'li qirg'oqlarida yashovchi telengit va talos nomi bilan ataluvchi aholi gaplashadi; b) *chuy shevasi*. Bu shevada chuy-kiji nomi bilan ataluvchi CHuy daryosi buylarida yashovchi aholi so'zlashadi.

3. **Teleut lahjasi.** Unda SHEbalin va Maymin aymoqlari, Tog'li Oltoy viloyati aholisi, CHumish rayoni (Oltoy o'lkasi), va asosan, Navosibirsk viloyatining Belov rayoni aholisi gaplashadi. Bu rayonlar katta va kichik Bag'at nomlari bilan atalib, u erda CHoloxuy, SHandu, Katta Ulus

qishloqlari mavjud. Bu hudud aholisi o'zini *telengut* yoki *telengetlar* deb ataydi.

SHimoliy guruh ham uch lahjani o'z ichiga oladi.

1. **Tuba lahjasi.** Bu lahja vakillari o'zlarini *tuba//tuva//tuma-kiji, tubalar, d...ish//t...ish// yish-kiji* nomlari bilan ataladi va ular Katun va Biya daryolari oralig'ida, shuningdek, Uymen, Pija, Katta va Kichik Isha, Sari va Kara Kokshi daryolari qirg'oqlarida hamda Mayma va CHuy daryolarining yuqori oqimida joylashgan aholi so'zlashadi. Tuba lahjasida so'zlovchilar Salgandu, Inirga, Tushkenek qishloqlarida ham yashaydilar. SHuningdek, Turachan aymoqlari (Kebezen, Artibash qishloqlarida yashovchi) ham shu dialektda so'zlashadi. Tubalarning umumiy soni 15 ming kishi.

2. **Kumandi lahjasi.** Bu lahja vakillari o'zlarini *qubandi//quvanti//qumandi-kiji* nomlari bilan atashadi, umumiy sonlari 12 ming kishi. Ular Biya daryosi o'zanida Tog'li Oltoyning Oqqush (Lebed) hamda Baliqsu daryolari qirg'oqlarida yashashadi.

Kumandin lahjasi o'z navbatida uch shevaga bo'linadi:

a) turachak; b) solton; v) eski bardi. Bular orasidan eski bardi shevasi qadimgi xususiyatlarni yaxshi saqlagan.

3. **CHalqan lahjasi.** Bu lahjada so'zlovchi aholi o'zlarini *chalqandu//shalqandu-kiji, quu-kiji* kabi nomlar bilan atashadi. Umumiy soni 4 ming kishi. Ular Lebed daryosi bo'ylari va Boygol daryosi oqimidagi Kurmach-Boygol, Suranash, Kichik CHibechen va Itkuch qishloqlarida istiqomat qilishadi. Bu lahja vakillari bir-biridan unchalik farqlanmaydigan *shalqanig'* va *shag'shylyq* kabi ikki kichik guruhga bo'linadi.

Oltoy tilining shimoliy va janubiy lahjalari orasida farqlar quyidagicha:

Fonetika sohasida:

a) **Unlilar.**

SHimoliy guruh	Janubiy guruh	
u-o <i>ul</i>	<i>ol</i>	«u»
<i>ura</i>	<i>aro</i>	«o'ra»
<i>pul-//pol-</i>	<i>pol-</i>	«bo'l-«
<i>mursak</i>	<i>borsoq</i>	«bo'rsiq»
u-o <i>uyda</i>	<i>oyto</i>	«qayta»
<i>myrø</i>	<i>bory</i>	«bo'ri»
<i>puruk</i>	<i>poryk</i>	«telpak»
<i>shuy</i>	<i>chey</i>	«tort»-
i-e <i>sibis</i>	<i>semis</i>	«semiz»
<i>pik</i>	<i>bek</i>	«achchiq»
<i>pil//pel</i>	<i>Bel</i>	«bel»
<i>ilek</i>	<i>elek</i>	«elak»

Oltoy tilining bunday fonetik xususiyati tatar va boshqird tillari uchun ham xos i~e — mosligi esa urxun tosh bitiglaridagi qadimgi o'g'uz tiliga to'g'ri keladi.

Oltoy tilidagi ikki lahja orasidagi farqlanish cho'ziq unlilar borasida ham o'z aksini topgan. Masalan:

SHimoliy lahja Janubiy lahja

oo-uu: <i>ool</i>	<i>uul</i>	«o'g'il»
<i>qooq</i>	<i>quuq</i>	«qovuq»
aa-uu//oo: <i>aar</i>	<i>uur</i>	«og'ir»
<i>paar</i>	<i>buur</i>	«bag'ir»
<i>aas</i>	<i>os</i>	«og'iz»

SHimoliy lahjadagi unlilarning bunday mosligi, asosan, ko'mandin va chalkan shevalarida to'liq, tuba shevasida esa qisman saqlangan. SHuningdek, shimoliy lahja shevalari o'zining lab uyg'unligining cho'zilganligi bilan ham janubiy lahjadan farqlanadi: shim. l. *kørgen*, jan. l. *kørgøn* «ko'rgan», shim. l. *polg'an*, jan. l. *bolg'on* «bo'lgan».

Undoshlar sohasida:

SHimoliy lahjada so'z oxirida qo'llanuvchi til orqa, jarangli, sirg'aluvchi *g'* va portlovchi til orqa *g* janubiy lahja shevalarida *uu/ uu* cho'ziq unlilar bilan almashadi, masalan:

SHimoliy lahja Janubiy lahja

<i>tag'</i>	<i>tuu</i>	«tog'»
<i>sug'</i>	<i>suu</i>	«suv»
<i>yg//ug'//uu</i>	<i>uy</i>	«uy»
<i>eptig</i>	<i>epty(y)</i>	«o'ng'ay»
<i>sherig</i>	<i>chery(y)</i>	«cherik»
<i>qayyg'</i>	<i>qayu (u)</i>	«qolip»
<i>qyrlыg'</i>	<i>qyrlu (u)</i>	«tog'li»

So'z boshida *ch/ж...-d...//t...* mosligi mavjud, masalan:

SHimoliy lahja Janubiy lahja

CH'd' <i>chil</i>	<i>dыл</i>	«yil»
<i>chыt</i>	<i>d'ыт</i>	«hid»
<i>chыsh</i>	<i>d'ыsh</i>	«o'rmon»
<i>chap</i>	<i>d'ap</i>	«yop-»
<i>chaqsha</i>	<i>d'aqshы</i>	«yaxshi»

Tuba shevasida so'z boshidagi *ch* ba'zan *y*: *yыл* "yil", *yыт* "hid", ba'zan *k'/g'* bilan almashinadi, masalan: *k'asap* (*d'asap* o'rnida) «yasab», *k'edip/g'edip* (*d'edip* o'rnida) "etib".

SHimoliy lahjada *aga/aj'a* — janubiy lahjada *ad'a* «aka», shimoliy lahjada *ege/ej'a* — janubiy lahjada *ed'e* «amma»; shim. l. *kechir//kej...ir* — jan. l. *keđir* «bo'g'iz».

n...-d... so'z boshida mos kelishi:

SHimoliy lahja Janubiy lahja

<i>n'aan</i>	<i>d'aan</i>	«katta»
<i>n'ag'ыs</i>	<i>d'aңыs</i>	«bir»
<i>n'aң</i>	<i>d'aң</i>	«odam»
<i>naaң</i>	<i>d'aaң</i>	«lunj»
<i>n'eң</i>	<i>d'eң</i>	«eng»
<i>n'eңil</i>	<i>d'eңil</i>	«engil»

Soʻz boshida *sh...* va *ch* mosligi:

SHimoliy lahja	Janubiy lahja	
<i>sh'anaq</i>	<i>chanaq</i>	« <i>chana</i> »
<i>sh'apqan</i>	<i>chapqan</i>	« <i>chopgan</i> »
<i>sh'ıq</i>	<i>chıq-</i>	« <i>chiq</i> »
<i>sh'eden</i>	<i>cheden</i>	« <i>to'siq</i> »

Soʻz oʻrtasida *j-ch* mosligi:

SHimoliy lahja	Janubiy lahja	
<i>pyj'aq</i>	<i>pychaq</i>	« <i>pichoq</i> »
<i>qaj'an.</i>	<i>qachan</i>	« <i>qachon</i> »
<i>pij'i</i>	<i>bichi</i>	« <i>yozmoq</i> »

Soʻz boshida *m-b* mosligi:

SHimoliy lahja	Janubiy lahja	
<i>mure//mor</i>	<i>y bory</i>	« <i>bo'ri</i> »
<i>molot//molat</i>	<i>bolot</i>	« <i>po'lat</i> »
<i>mursaq</i>	<i>borsaq</i>	« <i>barsuq</i> »
<i>malqash</i>	<i>balqash</i>	« <i>balchiq</i> »

Va aksincha, soʻz oʻrtasida **b/v**~*m* mosligi:

SHimoliy lahja Janubiy lahja

<i>Tebir</i>	<i>temir</i>	« <i>temir</i> »
<i>Tabaq</i>	<i>tamaq</i>	« <i>tomoq</i> »
<i>Kebe</i>	<i>keme</i>	« <i>qayiq</i> »
<i>toben</i>	<i>təməŋ «quyi tomon»</i>	

SHimoliy lahja shevalarida soʻzlarning *tebir*, *tabaq*, *kebe*, *toben* shakllari bilan birgalikda *tev*~*ir*, *tavəaq*, *kevəe*, *təvəen* koʻrinishlari ham teng qoʻllanadi.

SHimoliy shevalarda undoshlar dissimilyatsiyasi faol qoʻllanadi.

SHimoliy lahja Janubiy lahja

<i>Kelti</i>	<i>keldi</i>	« <i>keldi</i> »
<i>Altıylar</i>	<i>aldıylar</i>	« <i>oldilar</i> »
<i>CHug'ultadı</i>	<i>chug'uldadı</i>	« <i>achchiqlandi</i> »
<i>Tynte</i>	<i>tınd</i>	<i>e</i> « <i>tunda</i> »
<i>kerti</i>	<i>kərđi</i>	« <i>ko'rdi</i> »

Grammatika sohasida:

a) har ikki lahjada sifatdoshning boʻlishsiz shakli oʻziga xos shakllar bilan ifodalanadi, masalan shim. l. *d'ev'iyin* — jan. l. *d'imey* «*emay*»; shim l. *surav*~*ıyın*— jan. l. *suramay* «*so'raman*».

b) chiqish kelishigi qoʻshimchasi shimoliy shevalarda hozirgi uygʻur tilidagi kabi *-dın/-din*, *-tın/-tin*, janubiy shevalarda esa *-daŋ/-dəŋ*, *-taŋ/-tən*,

-*naŋ/-nəŋ* kabi ishlatiladi. Masalan: shim. l. *mendin* — jan. l. *menen* «mendan»; shim. l. *ug'dyn* ~ jan. l. *uyden* «uydan».

v) ko'rsatish va kishilik olmoshlari ham bu lahjalardan o'ziga xos ko'rinishda qo'llanadi: shim. l. *po* — jan. l. *bu* «bu»; shim. l. *d...uug'/d...uu* — jan. l. *ne* «nima»;

g) fe'llarning tuslanishi o'ziga xos shakllar orqali amalga oshadi; masalan: shim.l. *korybit* — jan.l. *korynd'at* «ko'ryapti»; shim. l. *ichibit* — jan. l. *ichind'at* «ichyapti».

d) tushum kelishik qo'shimchaning qo'llanishi shimoliy shevalarda to'liq, janubiy shevalarda qisqa shaklda qo'llanadi, masalan: shim. l. *myrigini//morygini aldy* — jal. l. *borygin oldi* «telpagini oldi».

Lug'at boyligi sohasida ham shimoliy va janubiy guruh shevalarida sezilarli farqlanish mavjud; bu holat mazkur til egalari uchun ancha qiyinchiliklar tug'diradi:

a) *otlardagi farqlanish:*

SHimoliy lahjada Janubiy lahjada

<i>ag'a</i>	<i>ada</i>	«ota»
<i>yl'da</i>	<i>abag'ay</i>	«amaki»
<i>yna</i>	<i>deŋa</i>	«yanga»
<i>adaq</i>	<i>taada</i>	«buva»
<i>naanaq</i>	<i>enesh</i>	«buvi»
<i>tanaq</i>	<i>tumchuq</i>	«burun»
<i>echek</i>	<i>chөөchey</i>	«piyola»
<i>törden</i>	<i>ton</i>	«shuba»
<i>kuŋnak</i>	<i>chamcha</i>	«kuylak»
<i>n...emchi</i>	<i>chычqan</i>	«sichqon»
<i>рычан</i>	<i>өлөң</i>	«somon»
<i>chip</i>	<i>tuk</i>	«jun»
<i>chyrme</i>	<i>ch ked...e</i>	«kokil»
<i>qusaq</i>	<i>kurak</i>	«kurak»
<i>qag'at</i>	<i>chazyn</i>	«qog'oz»

Boshqa so'z turkumlaridagi farqlanish:

SHimoliy lahja Janubiy lahja

<i>Qandyg'</i>	<i>qandyu</i>	«qanday»
<i>d...o'g'/chug' ne</i>	«nima» <i>parchyn bastyra</i>	«hamma»
<i>n...aa</i>	<i>d...anŋa</i>	«yangi»
<i>ees</i>	<i>biyik</i>	«yuqori»
<i>tune</i>	<i>sooq</i>	«sovuq»
<i>qybala</i>	<i>ista</i>	«izlash»
<i>tik -</i>	<i>kөkte-</i>	«tinmoq»
<i>рыч-</i>	<i>kes- «kes-»</i>	
<i>elebin</i>	<i>kenteyin</i>	«birdan»

YUqoridagi dalillar ko'rsatadiki, oltoy tilining shimoliy guruh shevalari janubiy guruh shevalaridan sezilarli farqlarga ega, bu holat shimoliy guruh shevalarini qo'shni shor tiliga ancha yaqinligini ko'rsatadi. SHimoliy guruh

shevalari, shor tili bilan birgalikda, xakas guruhi tillariga o'xshasa, janubiy guruh tillari o'z xususiyatlari bilan qirg'iz tiliga yaqin turadi.

Hozirgi oltoy adabiy tili fonetik, leksik va grammatik jihatdan shimoliy guruh shevalaridan (*tuba, kumandi, chalkan*) farq qiladi. Keyingi paytlarda bu til egalarining yosh vakillarining adabiy tilda so'zlashishi oradagi farqlarning bartaraf bo'lishiga olib kelmoqda.

1947 yilgacha oltoylar o'zlarini o'yrotlar deb atashgan, chunki bu hududlarda uzoq vaqt mo'g'ul urug'i hisoblanmish o'yrotlar hukmronlik qilishgan. SHu sababdan ham oltoylar o'zlarini o'yrotlar deb atab kelishgan. 1947 yilda «o'yrotlar» "oltoylar" nomi bilan almashtirildi, O'yrot muxtor viloyati Oltoy muxtor viloyati nomi bilan atala boshlandi.

Oltoylar tili Oktyabr inqilobiga qadar o'z yozuviga ega xalq hisoblanadi. XIX asrning 40-yillarida mahalliy dindorlar rus yozuvi asosidagi teleut lahjasida ish olib borishgan. Ular asosan diniy faoliyat uchun bu yozuvdan foydalanishgan bo'lsa-da, ba'zi badiiy asarlar ham rus yozuvida paydo bo'la boshlagan: XIX asr oxirlarida oltoy tilining ayrim xususiyatlari ham o'rganilgan edi.

SHunday qilib, barcha turkiy tillar tarixan eng asosiy lisoniy xususiyatlariga ko'ra ikki katta: G'arbiy Xunn va SHarqiy Xunn tarmoqlariga bo'linadi.

Turkiy tillarning G'arbiy Xunn tarmog'i tarixan Xunn davlatining g'arbiy qanotini tashkil qilgan va o'zida quyida qabila ittifoqlarini va tillarini birlashtirgan: I — bulg'orlar; II — o'g'uzlar (bular o'z navbatida: o'g'uz-turkman, o'g'uz-bulg'or va o'g'uz-saljuq kichik guruhlariga bo'linadi); III — qipchoqlar (bular o'z navbatida: qipchoq-poloves , qipchoq-bulg'or, qipchoq-no'g'ay kichik guruhlariga bo'linadi) va IV — qarluqlar (bular qarluq-uyg'ur, qarluq-xorazm kichik guruhlardan tashkil topgan).

SHarqiy Xunn tarmog'i tillari esa Xunn davlatining sharqiy qanotida joylashgan urug' qabilalarining tillari hisoblanadi va ular ham tarixan ikki guruh tillariga bo'linadi: I — uyg'ur-o'g'uz guruhi tillari (bular uyg'ur-tukyu, yoqut va xakas kichik guruhlarini o'z ichiga oladi; II — qirg'iz-qipchoq guruhi esa faqat ikki hozirgi tilni qirg'iz va oltoy tillarini o'zida mujassam etadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

- 1.Oltoy tili qaysi hududlarga tarqalgan?
2. Oltoy tili necha lahjga bo'linadi?
- 3.Birinchi guruhga qaysi lahjalar kiradi?
- 4.Ikkinchi guruh shevalariga qaysi lahjalar kiradi?
- 5.Shimoliy va janubiy guruh shevalari orasidagi qanday fonetik va leksik farqlanishlar.

Zaruriy adabiyotlar:

1. Баскаков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. М., "Высшая школа", 1969, 24?36-бетлар.

2.T.Jumaev. Turkiy tillarining tarixiy qiyosiy tahlili. Qarshi, "Nasaf", 2005, 4-10-betlar.

3.Котвич В.В.Исследования по алтайским языкам. М.,-Л. 1962.

4.Рамцедт Г.И. Введение в алтайское языка знание. М., 1957.

Qo'shimcha adabiyotlar

1.Baskakov N.A. Altayskiy yazyk. M.,1958

2.Baskakov N.A. Dialekt kumandintsev (kumandi-kiji). M., 1972

3.Batmanov I.A. YAzyk Eniseyskix pamyatnikov drevnetyurkskoy pismennosti. Frunze.1959.

Tuzuvchi Tursunali Jumayev, QarshiDU dotsenti